

S.T. VAFOYEV  
I.J. XUDAYEV

# GIDROMEXANIZATSIYA VOSITALARI



TOSHKENT - 2014

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

---

**S.T. VAFOYEV, I.J. XUDAYEV**

# **GIDROMEXANIZATSIYA VOSITALARI**

**/ DARSLIK /**

«5A450301 - Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash» yo'nalishida ta'lif  
olvuchi magistrantlarga darslik sifatida  
tavsiya etiladi.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi oliy o'quv  
yurtlari ilmiy-uslubiy birlashmasi faoliyatini Muvofiglashtirish kengashi  
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan.*

**Toshkent-2014**

**OO‘MTVning 09.06.2014 y. № 220 sonli buyrug‘iga asosan chop etishga tavsiya etilgan.**

*Ushbu darslik «Gidromexanizatsiya vositalari» fanidan «5A450301-Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash» yo‘nalishida ta’lim oluvchi magistrantlarga darslik sifatida tavsiya etiladi.*

Darslikda suv osti va suv usti gruntlariga gidromexanizatsiya vositalari yordamida ishlov beruvchi mashina va uskunalarining (gidromonitor, gidroelevator, loyqaso‘rgich va loyqaso‘rgich snaryadlari) tuzilishi va ishslash usullari, konstruksiyalari haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, gruntga sifatli ishlov berishning nazariy asoslari, ish jihozining asosiy ko‘rsatkichlarini hisoblashning ilmiy asoslangan uslubiyati ham yoritilgan.

Darslikdan irrigatsiya va melioratsiya sohasidagi ilmiy izlanuvchilar, injener-texnik xodimlar hamda loyihalash va qurilish tashkilotlari ham foydalanishi mumkin.

### **T a q r i z ch i l a r:**

- |                      |  |
|----------------------|--|
| <b>Barayev F.A.</b>  | TIMI ning Gidromelioratsiya tizimlaidan foydalanish kafedrasi mudiri, t.f.d., professor    |
| <b>Maxmudov E.J.</b> | Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy tekshirish institutining yetakchi ilmiy xodimi, t.f.d. |

**S.T. VAFOYEV, I.J. XUDAYEV  
/ GIDROMEXANIZATSIYA VOSITALARI /.  
DARSLIK. -T.: TIMI, 2014. 174 b.**

## **KIRISH**

Gidrotexnik inshoottlarni qurish va ulardan foydalanishda, qishloq xo‘jaligida va baliqchilik sanoatida gidromexanizatsiya vositalaridan keng foydalaniladi.

Gidromexanizatsiya - bosim ostidagi suv yordamida gruntni yuvish va hosil bo‘lgan aralashmani ko‘chirish hamda buyum sirtlarini va ularga yopishgan turli moddalarni yuvish vositasidir.

Metallshunoslik, issiqlik elektr stansiyalari, tog‘ jinslariga ishlov berishda va boshqa korxona hamda xo‘jaliklarda buyumlarni yuvish va ulardagi har xil (oltin, shlak, qurum, loy, tuproq va kimyoviy) moddalarni yo‘qotishda va ajratib olishda yuqori bosimli suvdan foydalaniladi. Bunda yuqori bosimli suv, maxsus moslama orqali kerakli joyga purkaladi va natijada shu joy tozalanadi.

Keyingi yillarda gidromexanizatsiya vositalaridan suv xo‘jaligi va melioratsiya sohasida ham keng qo‘llanilmoqda. Jumladan, kanal va suv havzalarini qurishda va ulardagi cho‘kindini tozalashda, gruntlarni suv yordamida shibbalashda.

Gidromexanizatsiya vositalari yordamida asosan gruntga ishlov berish va uni ko‘chirish, grunt va tog‘ jinslarini yuvish ishlari amalga oshiriladi.

Gidromexanizatsiya vositalari yordamida gruntga ishlov berish deganda, suv usti va osti gruntlarini suv bosimi (bosimsiz) yoki qir-qish orqali buzish va uni suv bilan aralashtirish jarayonlari tushiniladi.

Gidromexanizatsiya vositalari yordamida gruntni ko‘chirish deganda, gruntni suv bilan aralashtirib uni quvur yoki maxsus novlar orqali transport qilish tushiniladi. Bunda aralashmani transport qilish bosim ostidagi (oqimdagи bosimlarning farqi hisobiga) quvurlar hamda novlarning qiyaligidan foydalaniladi.

Darslikda gidromexanizatsiya vositalarining konstruksiyalari, ularni hisoblashning nazariy asoslari yoritilgan.

Darslik, Davlat Ta’lim Standartlari asosida tasdiqlangan na’munaiy o‘quv rejasi, hamda, mualliflarning ushbu mutaxassislik va fan bo‘yicha bir necha yillik olib borgan ilmiy, amaliy va nazariy mashg‘ulotlarining natijalariga asoslanib yozildi.

Ushbu fanni o‘rganuvchilar, olgan bilimlarini sinab ko‘rishlari uchun har bir bob oxirida nazorat savollari berilgan.

Darslik Davlat tilida ilk bor chop etilayotganligini hisobga olib, u kamchiliklardan xoli emas, shu sababli mualliflar, bildirilgan fikr va mulohazalarni mammuniyat bilan qabul qiladilar va oldindan o‘z minnatdorchilagini bildiradilar.

**Mualliflar:**

Bizning manzilimiz: Toshkent shahri, 1000000, Qori-Niyoziy ko‘chasi, 39  
Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti (TIMI)

## **1- BOB. GRUNT VA GIDROARALASHMA HAQIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR**

### **1.1. Gruntlarning fizik-mexanik tarkibi va ularning gruntga gidromexanizatsiya vositalsri yordamida ishlov berish jarayoniga ta'siri.**

Gidromexanizatsiya vositalari yordamida gruntga ishlov berish, uni ko'chirish va yotqizish ishlari amalga oshiriladi. Shuning uchun gruntu dan quriladigan gidrotexnik inshootlarni sifatli va samarali bo'li-shida gruntu ning fizik-mexanik tarkibiga bog'liq bo'ladi.

Grunt, bu tog' jinsi bo'lib, mineral zarrachalari va ular orasi suv hamda havo miqdori bilan to'ldirilgan sistemadir. Shunga ko'ra gruntu lar uchta fazaga bo'linadi: qattiq, suyuq va gazsimon. Gruntu ning qattiq zarrachasining o'rtacha diametri bo'yicha sog' (gilli) tuproq ( $\varnothing < 0,005$  mm), changsimon ( $\varnothing = 0,05\dots0,005$  mm) va qumli ( $\varnothing = 2\dots0,05$  mm), shag'al ( $\varnothing = 20\dots2,0$  mm). Grunt, imorat va injenerlik inshootlarini qurishda ishlatiladigan asosiy qurilish materialidir. Tar-kibiga ko'ra gruntu lar qumli, changsimon, qumoq, loyli, sog' tuproqli, torfli, toshloq va h.k. xillarga bo'linadi. Ularning har biri ma'lum xos-salarga ega bo'ladi. Gruntu ning namligi, zichligi, g'ovakligi, siljish qar-shiligi, shuningdek, bog'lanuvchanlik, suv o'tkazuvchanlik, singdiruv-chanlik, yumshaluvchanlik, yopishqoqlik, qiyaliklarda ushlab turuv-chanlik xususiyati va zichlanuvchanlik uning asosiy xossalari hisob-lanadi.

**Namlik (W)** - bu ma'lum hajmdagi grunt tarkibidagi suv miqdori og'irligi  $P_s$  ning quruq grunt og'irligi  $P_g$  ga bo'lgan nisbatidir.

$$W = \frac{P_s}{P_g} \cdot 100, \% \quad (1.1)$$

**Zichlik ( $\rho$ )** - bu hajm birligidagi grunt skeleti (quruq holdagi) og'irligidir, uni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$\rho = \frac{\gamma_g}{1 + \frac{W}{100}}, \text{kg/m}^3 \quad (1.2)$$

bu yerda  $\gamma_g$  - namli gruntning hajmiy massasi,  $\text{kg/m}^3$ ;  $W$  - grunt namligi.

Gruntlarning zichligi uning turiga qarab  $1,45\ldots 2,3 \text{ t/m}^3$  oraliqda bo'ladi

**G'ovaklik ( $n$ )** - bu gruntni zichlanganlik darajasi bo'lib, namuna-dagi gruntning g'ovaklari hajmi ( $V_g$ ) ni uning to'liq hajmi ( $V$ ) ga bo'lган nisbatidir. Uni quyidagi formula yordamida anqlash mumkin:

$$n = \frac{V_g}{V} 100 = \frac{\rho_t - \rho_q}{\rho_t} 100, \% \quad (1.3)$$

bu yerda  $\rho_t$  va  $\rho_q$  – tegishli ravishda gruntning tabiiy va quruq holdagi zichligi,  $\text{kg/m}^3$ .

Gruntlarning turiga qarab uning g'ovakligi  $25\ldots 65\%$  oraliqda bo'-ladi.

**G'ovaklik koeffitsienti** - gruntning g'ovaklari hajmi ( $V_g$ ) ni uning qattiq zarralari hajmi ( $V_{qat}$ ) ga bo'lган nisbatidir. Uni quyidagi formula yordamida anqlash mumkin:

$$k_g = \frac{V_g}{V_{qat}} = \frac{\rho_{qat} - \rho_q}{\rho_{qat}} \quad (1.4)$$

bu yerda  $\rho_{qat}$  – gruntning qattiq zarralarining zichligi,  $\text{kg/m}^3$ .

Bog'lanmagan gruntlarning nisbiy zichligi Tersagi formulasi yordamida aniqlanadi:

$$k_z = \frac{k_{yu} - k_y}{k_{yu} - k_t} \quad (1.5)$$

bu yerda  $k_{yu}$  va  $k_t$  - tegishli ravishda gruntning yumshoq va qattiqlik chegarasining g'ovaklik koeffistientlari;  $k_y$  - tabiiy holdagi gruntning g'ovaklik koeffitsenti.

**Granulometrik tarkibi** - turli o'lchamlarga ega bo'lган massa zarrachalarining og'irlik bo'yicha foiz miqdori.

**Egiluvchanlik** - gilli gruntlarning shaklini o'zgartirishidir. Bu ko'rsatkich egiluvchanlik koeffitsenti  $k_e$  bilan xarakterlanadi va uni quyidagi formula yordamida anqlash mumkin:

$$k_e = \frac{W_{oq} - W_e}{100} \quad (1.6)$$

bu yerda  $W_{oq}$  va  $W_e$  – tegishli ravishda gruntning oquvchanli va egiluvchanlik chegarasidagi namligi.

**Konsistensiya ( $k_k$ )** - gilli gruntlarni suv singdiruvchanligiga bog‘-liq holdagi qo‘zg‘aluvchanligidir. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$k_k = \frac{W_t - W_e}{W_{oq} - W_e} \quad (1.7)$$

bu yerda  $W_t$  – gruntning tabiiy namligi.

**Bog‘lanuvchanlik** - gruntning o‘zaro bog‘langan zarralari bir-biridan ajratishga intiluvchi kuchlarga qarshilik ko‘rsata olish xususiyatidir. Loyli va toshloq gruntlarning bog‘lanuvchanligi eng yuqoridir.

**Suv o‘tkazuvchanlik** - bu gruntning suv o‘tkazish xususiyatidir. Qumli gruntlar eng yaxshi suv o‘tkazuvchanlikka ega.

**Suv singdiruvchanlik** - bu, gruntning o‘ziga suv singdirish xususiyatidir. Loyda bunday xususiyat eng kuchlidir. Mutlaqo quruq gruntning massasiga nisbatan % larda ifodalangan suv miqdori gruntning namligi deb ataladi. Agar gruntda 5% gacha suv bo‘lsa, u quruq grunt hisoblanadi, agar 30% gacha bo‘lsa, nam grunt, 30% dan ortiq bo‘lsa, ho‘l grunt hisobla-nadi.

**Yumshatuvchanlik** - bu, gruntni qazish jarayonida uning o‘z hajmini oshirish xususiyatidir. Yumshatilgan grunt hajmining zinch holatidagi hajmiga nisbati yumshatilish koeffitsenti ( $k_yu$ ) deb ataladi. Qu-moq tuproq va loyning yumshatilish koeffitsenti eng katta (1,26 ...1,32) bo‘lib, qumniki esa eng kichik (1,1...1,15) dir.

Yumshatilgan va ko‘tarmaga yotqizilgan gruntning qiyaliklarda (yon bag‘irlarda) ushlanib turish xususiyati tabiiy qiyalik burchagi bilan belgilanadi. U har bir grunt turi hamda uning namligi uchun o‘zgarmas miqdordir. Masalan, qumli gruntning tabiiy qiyalik burchagi 15...30°, qumoq tuproqlarniki esa 25...50° ni tashkil qiladi. Burchaklarning kichik qiymatlari ho‘l gruntlarga taaluqlidir.

**Zichlanuvchanlik** - bu, gruntlarning ko‘tarmaga zinch yotish xususiyatidir. Bu xususiyat grunt massasining u egallab turgan hajmga nisbatini bildiruvchi o‘rtacha zichlik ( $t/m^3$ ) bilan ifodalanadi.

**Yopishqoqlik** - bu, gruntning mashinaning ish organlariga yopishuvchanlik xususiyatidir. Loyli gruntning yopishqoqligi katta, shuning uchun uni qazish qiyin.

Gruntlarning yuqorida qayd qilingan xossalari yer-tuproqdan tiklangan inshootlarning ustivorligi va mustahkamligiga hamda gruntlarni qazish ishlarining sermehnatligiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Shag‘al, kumli va qumoq gruntlar yer-tuproq inshootlari uchun yaxshi qurilish materiallari hisoblanadi. Ular ancha ustivor va bo‘kishga yaxshi qarshi tura oladi. Changsimon va mayda qumloq tuproqlar qurilish materiali qilib ishlatishtga yaramaydi. Ularning bog‘lanuvchanligi yetarlicha bo‘lib, suvga to‘yingan holda oqma qumlarga aylanadi, bunda ular yuk ko‘tara olish xususiyatini yo‘qotadi, ulardan ko‘tarilgan ko‘tarmalar suv bilan yuvilib ketadi.

Qumoq tuproqlarning bog‘lanuvchanligi va suv o‘tkazuvchanligi nisbatan yuqori, ular yaxshi zichlanadi va changsimon gruntlarga nisbatan ancha ishonchli bo‘ladi.

Loyli gruntlar qazib olishda va ko‘tarmaga yotqizishda mushtashib qoladi va ular orasida bo‘shliqlar hosil bo‘ladi, shuning uchun ular ancha barqaror emas (ayniqsa nam holatda) va yomon zichlanadi.

Sog‘ tuproqli gruntlarni yer inshootlarini tiklash uchun ishlatishtumkin, ular yaxshi zichlanadi. Bunda inshoot puxta va suv ta’siriga ustivor bo‘ladi.

Torfli va tarkibida massasi bo‘yicha 10% dan ortiq organik aralashmalar bo‘lgan gruntlar yer-tuproq inshootlarini qurish uchun yaramaydi, chunki ularning namligi o‘zgarishi bilan hajmi va zichligi ham sezilarli o‘zgaradi. Natijada mazkur gruntlardan ko‘tarilgan inshootlarning ustivorligi pasayadi.

Gruntni ichki ishqalanish kuchi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$F_{ish} = f \cdot N = N \cdot \operatorname{tg}\phi, N \quad (1.8)$$

bu yerda  $f = \operatorname{tg}\phi$  - ichki ishqalanish koeffitsenti;  $N$  - normal bosim kuchi,  $N$ ;  $\phi$  - ichki ishqalanish burchagi, grad.

## 1.2. Gidroaralashma (suv-loy)ning oqimi va uning tavsifi.

Gruntni suv bilan aralashmasiga gidroaralashma deyiladi. Ma’lum hollarda (qumli yoki shag‘alli tarqoq gruntlarni) bu aralashma tabiiy gruntni suv bilan aralashtirish natijasida hosil qilinadi, boshqa bir hollarda (bog‘langan va qattiq gruntlarga ishlov berish orqali) sun’iy ravishda maydalab suv bilan aralashtirish natijasida hosil qilinadi.

Gidroaralashmaning *tezligi* deb, vaqt birligi ichida uning quvur yoki novlardan o‘tish yo‘liga aytildi.

Gidroaralashmaning ***miqdori*** deb, ko‘ndalang kesim yuzasidan vaqt birligi ichida o‘tgan aralashmaning hajmiga aytiladi. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q = 3600 \cdot S \cdot \vartheta, \text{ m}^3/\text{soat} \quad (1.9)$$

bu yerda  $S$  - qorishma o‘tayotgan idishning ko‘ndalang kesim yuzasi,  $\text{m}^2$ ;  $\vartheta$  - qorishmaning idishdagi tezligi,  $\text{m/s}$ .

Gidroaralashmaning ***zichligi*** deb, aralashmaning hajm ( $V$ ) birligidagi massasi ( $m$ ) ga aytiladi. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\rho = \frac{m}{V}, \text{ kg/m}^3 \quad (1.10)$$

Gidroaralashmaning ***konsistensiyasi*** deganda uni gruntga to‘yin-ganlik darjasini tushiniladi. Buni aniqlashning bir nechta usullari mavjud bo‘lib, ular ichida aralashmadagi qattiq jismlar hajmi ( $V$ ) ning undagi suyuq modda hajmi ( $q$ ) ga bo‘lgan nisbati keng tarqalgan.

U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$k_k^{\text{ar}} = \frac{q \cdot \rho_s + \rho_g}{q + \frac{\rho_g}{\rho_s}} \quad (1.11)$$

bu yerda  $\rho_s$  - suvning zichligi,  $\text{kg/m}^3$ ;  $\rho_g$  - gruntning zichligi,  $\text{kg/m}^3$ .

### 1.3. Grunt zarrachalarining gidravlik yirikligi.

Gidravlik yiriklik  $\vartheta_{gy}$  deganda tinch turgan suvga grunt zarralarning tushish tezligi tushiniladi. Bu ko‘rsatkich zarralarning shakliga, o‘lchamiga va mineralogik tarkibiga, muhitning zichligi va yopish-qoqligiga bog‘liq bo‘ladi.

Gidravlik yiriklikni topish uchun S.P.Ogorodnikov quyidagi formulani tavsiya etadi:

mayda zarrali gruntu ( $d_g \leq 0,10 \dots 0,15 \text{ mm}$ ) uchun

$$\vartheta_{gy} = k_{su} \frac{d_g^2}{V} \cdot \frac{\rho_q - \rho_s}{\rho_s}, \text{ m/s} \quad (1.12)$$

yirik zarrali gruntu ( $d_g > 1,5 \dots 2,0 \text{ mm}$ ) uchun

$$\vartheta_{gy} = \sqrt{2g \cdot d_g \frac{\rho_q - \rho_s}{\rho_s}}, \text{ m/s} \quad (1.13)$$

bu yerda  $k_{su}$  - suyrilik (obtekniya) koeffitsenti;  $v$  - suvning kinematik yopishqoqligi,  $m \cdot s$ ;  $d_g$  - grunt zarralarining o'rtacha diametri, m.

Agar bir xil o'lchamdagagi bir nechta grunt zarralari tushayotgan bo'lsa, uning gidaravlik yirikligi S.P.Ogorodnikov tavsiya etgan quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\vartheta_{gy}^n = \vartheta_{gy} (1 - k_k^{ar})^m, \text{ m/s} \quad (1.14)$$

bu yerda  $k_k^{ar}$  - tushuvchi zarralarning hajmiy konsistensiyasi;  $m$  - daraja ko'rsatkichi. Agar  $d_g > 2$  mm bo'lsa,  $m=2,25$ ;  $d_g = 0,25 \dots 2$  mm

$$m = 2,9\sqrt[5]{d_g} \quad (1.15)$$

Agar turli o'lchamdagagi bir nechta grunt zarralari tushayotgan bo'lsa, uning gidravlik yirikligining o'rtacha qiymati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\vartheta_{gy}^{o'r} = \sum_{i=1}^i \vartheta_{gy}, \text{ m/s} \quad (1.16)$$

## SINOV (NAZORAT) SAVOLLARI VA TOPSHIRIQLAR

1. *Gruntning namligi qanday aniqlanadi?.*
2. *Gruntning zichligi qanday aniqlanadi?*
3. *Gruntni zichligi bilan uning skeleti zichligi orasida qanday farq bor?*
4. *Gruntni egiluvchanligi deganda nima tushiniladi va u qanday aniqlanadi?*
5. *Gruntni konsistensiyasi deganda nimani tushinaiz va u qanday aniqlanadi?*
6. *Gruntning ichki qarshilik kuchi nimalarga bog'liq bo'ladi.*
7. *Gidroosalashmaning miqdori qaysi ko'rsatkichlarga bog'liq.*
8. *Gidroosalashmaning konsistensiyasi qanday aniqlanadi?*
9. *Grunt zarrachalarining yirikligi deganda nimani tushinasiz va u qanday aniqlanadi?*

## **2- BOB. GIDROMEXANIZATSIYA VOSITALARI**

### **2.1. Gidromexanizatsiya vositalari haqida asosiy tushunchalar.**

Shunday gidrotexnik inshootlar borki, yer qazish mashinalarining ish jihozlari bilan ulardagi gruntlarga ishlov berish noqulay (qulochini etmasligi) bo‘lib, ish jihozidan yuqorida bo‘lgan gruntning o‘pirilib tushishi, inson hayoti va texnika uchun o‘ta xafli bo‘ladi. Nisbatan yuqorida joylashgan gruntlarni ko‘chirish, transport va kerakli joyga yotqizishda bosim ostidagi suvning yo‘nalishidan foydalaniladi. Shuningdek, kanal va suv havzalaridagi cho‘kindilarni tozalashda, cho‘-kindini suvga aralashtirib maxsus suv nasoslari yordamida tortish usulidan foydalaniladi. Bu usulni ijro etuvchi texnikalarni gidromexanizasiya vositalari deb yuritiladi. Gruntni suv bosimi yordamida qo‘parib ko‘chiruvchi uskunaga **gidromonitor**, aralashmani (suv-loy) transport qiluvchi uskunaga esa **gidroelevator** deb ataladi.

Gidromexanizatsiya vositalari gidrotexnika va meliorasiya qurilishida keng foydalaniladi.

Bu usulning yutug‘i qilib quyidagilarni ko‘rsatish mumkin; texniqtisodiy ko‘rsatkichining yuqoriligi, sarflanadigan xarajat va masasining kamligi, konstruksiyasining oddiyligi, o‘ta yuqori malakaga ega bo‘lgan mutaxasisni talab qilmasligi.

Gidromexanizatsiya usulining kamchiligi qilib; katta miqdorda suv va elektr energiyasini talab qilishi, chiqarib tashlanadigan aralashma uchun katta maydonning zarurligi, havo harorati past bo‘lganda ish samarasining pasayishi va ayrim hollarda umuman ishlay olmasligini ko‘rsatish mumkin.

Suv ostida joylashgan qurilishda ishlatiladigan qum hamda kanal, kollektor va tindirgichlardagi cho‘kindilarini tozalashda suv-loy aralashmasini so‘rvuvchi nasoslar (loyqaso‘rgich) yoki suv-loy aralashmasini so‘rib chiqarib tashlashda suvda suzib yuruvchi (loyqaso‘rgich snaryad) mashinalardan foydalaniladi.

Suv-loy aralashmani bir tomonlama so‘rib oluvchi markazdan qochma nasosga **loyqaso‘rgich** deb ataladi. Loyqaso‘rgichlar, oddiy suv nasoslaridan korpusining mustahkamligi va ishchi g‘ildiragidagi kuraklarning kamligi bilan farq qiladi. Nasos kuraklarining kamaytirilishiga (odatda kuraklarni soni 3...6 dona bo‘ladi) sabab, ular orasidan

o‘tadigan grunt va uning tarkibidagi boshqa materiallarni (mayda tosh, temir, shisha va har xil o‘simlik ildizlari) o‘tishiga imkoniyat yaratishdir. Bu materiallar nasos ichida tiqilib qolganda, ularni tozalash uchun nasos korpusida teshik ochilgan bo‘lib, u maxsus qopqoq yordamida boltli birlashma orqali yopilgan bo‘ladi.

Loyqaso‘rgich uskunasi o‘rnatilgan suvda suzib yuruvchi maxsus mashinaga **loyqaso‘rgich snaryadlar** deb yuritiladi. Ular suvosti cho‘kindilarini (agar cho‘kindi qattiq bo‘lsa, uni yumshatib) suv bilan birga aralashtirib so‘rib olish va uni, transport qilishda ishlataladi.

Mamlakatimizdagi magistral kanal va suv xavzalarini cho‘kindidan tozalashda bu mashinalardan keng foydalaniladi.

## 2.2. Gidromonitorlar.

### 2.2.1. *Gidromonitorning vazifasi, tuzilishi va ishlashi.*

Gidromonitor- gidromexanizatsiya vositalarining asosiy uskunasi bo‘lib, u bosim ostidagi suvni yo‘naltirib, gruntga ishlov berish uchun xizmat qiladi. U bosim ostida quvurda bo‘lgan suvning potensial energiyasini kinetik energiyaga aylantirib, uni kerakli nuqtaga yo‘naltiradi. Natijada grunt suv bilan aralashib, suv-loy aralashmasi hosil bo‘ladi.

Gidromonitorlar quyidagi turlari bo‘yicha sinflarga ajratiladi:

*Boshqarilishi bo‘yicha;* qo‘l kuchi yordamida va masofadan turib.

*Ko‘chirish bo‘yicha;* o‘ziyurar va qo‘l kuchi yordamida.

*Ish joyiga o‘rnatilishi bo‘yicha;* yaqin va xafsiz.


*Suv bosimi bo‘yicha;* past (1,5 MPa gacha), o‘rta (1,5...5,0 MPa) va yuqori (5,0 MPa dan ortiq).

Gidromonitorning gidravlik ish holati va ko‘rsatkichlari o‘rnatikichlarni (qo‘ndirma) almashtirish orqali amalga oshiriladi.

Gidromonitorning konstruktiv sxemasi 2.1-rasmda ko‘rsatilgan bo‘lib, u quyidagi qismlardan tashkil topgan; o‘rnatiladigan asos 9, suv quvuri 1, silindrsimon buruluvchi uskuna 3, sharsimon buruvchi uskuna 7, yo‘naltirgich 6, boshqaruv dastagi 4, qo‘ndirma 5 va quvurlarni bog‘lovchi bog‘lagich 8.

Bosim ostidagi suv, quvurlar 1, 2 va sharsimon korpus 7 ichidan o‘tib, konussimon yo‘naltirgich 6, orqali qo‘ndirma 5 yordamida purkalib, gruntga ishlov berish uchun yo‘naltiriladi. Konussimon yo‘naltirgichning ichiga suvni tinchlantiruvchi bo‘ylama qovurg‘alar o‘rna-

tilgan. O‘rnatgich 5 ham konussimon bo‘lib, suvni siqib, atmosferada uchishini ta’minlaydi. Gidromonitorning yo‘naltirgichi 6 buruluvchi uskuna o‘qi orqali gorizontal tekislikda  $360^{\circ}$  ga, sharsimon uskuna 7 yordamida vertikal tekislikda  $20\ldots40^{\circ}$  gacha burish mumkin. Burilishlar boshqaruv dastasi 4 pastga yoki yukoriga ko‘tarish hamda uni o‘ngga yoki chapga burish orqali amalga oshiriladi.



**2.1-rasm. Gidromonitorning umumiy ko‘rinishi.**

Ishlov beriladigan gruntning turiga qarab suvning bosimi  $1,5\ldots2,5$  MPa, tezligi  $20\ldots70$  m/s oraliqda bo‘lishi kerak.  $1\text{ m}^3$  gruntni buzishga  $6\ldots12\text{ m}^3$  suv,  $2\ldots6\text{ kVt.soat}$  elektr energiyasi talab qilinadi.

### **2.2.2. Gidromonitorlarni hisoblash.**

Gidromonitorlarni loyihalash va yasashda uni gidravlik hisobi, shuningdek, mustahkamlik va turg‘unlikka bo‘lgan hisoblash ishlari ham amalga oshiriladi.

Gidromonitor yo‘naltirgichidan gorizontga nisbatan  $\alpha$  burchak hosil qilib otilayotgan bosim ostidagi suvning ko‘tarilish balandligi h va tushish masofasi L ni aniqlash uchun uning harakat traektoriyasini chizamiz (2.2-rasm).


Gorizontga nisbatan  $\alpha$  burchak hosil qilib otilayotgan bosim ostidagi suvning tezligi  $v$  ni vertikal ( $L = v \cdot \sin \alpha$ ) va gorizontal ( $L = v \cdot \cos \alpha$ ) tashkil etuvchilarga ajratamiz.

Traektoriyaning yuqori nuqtasida suv zarralarining vertikal tezligi hamda erga tortilish tezligi ( $g \cdot t$ ) teng bo'lishini hisobga olib, quyidagi tenglikni yozamiz:

$$v \cdot \sin \alpha = g \cdot t \quad (2.1)$$

bu yerda  $\alpha$  - otilayotgan suv yo'naliшining gorizont bilan hosil qilgan burchagi, grad;  $t$  - suv zarrachalarinig ko'tarilish vaqt, s. Uni (2.1) formuladan foydalanib topamiz.

$$t = \frac{v \cdot \sin \alpha}{g}, \text{ s} \quad (2.2)$$



**2.2-rasm. Gidromonitoridan chiqayotgan suvning harakat traektoriyasi.**

Suv zarralarining maksimal ko'tarilish balandligi  $h$  quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$h = \frac{g \cdot t^2}{2} = \frac{g \cdot v^2 \cdot \sin^2 \alpha}{2 \cdot g^2} = \frac{v^2 \cdot \sin^2 \alpha}{2 \cdot g}, \text{ m} \quad (2.3)$$

Suv zarralarining uchish yo'li  $L$  quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$L = v \cdot t_{uch} \cdot \cos \alpha, \text{ m} \quad (2.4)$$

bu yerda  $t_{uch}$  - suv zarralarining uchish vaqt, s. U zarralarning ko'tarilish va tushish vaqtlarining yig'indisiga teng.

Ko'tarilish va tushish vaqtleri bir biriga teng bo'lishini hisobga olsak,  $t_{uch} = 2t$  ekanligi kelib chiqadi. (2.2) formuladan  $t$  ni topib, (2.4) formulaga qo'ysak, quyidagi formula hosil bo'ladi:

$$L = v \cdot \frac{2 \cdot v \cdot \sin \alpha}{g} \cdot \cos \alpha = \frac{v^2 \cdot \sin 2\alpha}{g}, \text{ m} \quad (2.5)$$

**Gidromonitorni gidravlik hisobi.** Bunda gidromonitordan o‘tayotgan suv oqimi va bosimi (napori) ni yo‘qotishi aniqlanadi.

Gidromonitordan chiqayotgan *suv oqimining gidravlik ko‘rsat-kichlari* o‘zaro mavjud gidravlika tenglamalari orqali bog‘langan.

Gidromonitor yo‘naltirgichidan chiqayotgan bosim ostidagi suvning tezligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\vartheta = k_t \cdot \sqrt{2 \cdot g \cdot H}, \text{ m/s} \quad (2.6)$$

bu yerda  $k_t$  – suv zarralari tezligining koeffitsenti;  $H$  - nasos yordamida ko‘tarilgan suv ustunining balandligi (suv naponi), m.

Suyuqlikning idish tubiga beradigan bosimini (nasos kuraklarida-gi suvning bosimi) quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$P = \rho \cdot g \cdot H, \text{ Pa} \quad (2.7)$$

bu yerda  $\rho$  - suvning zinchligi,  $\text{kg/m}^3$ .

Bu formuladan  $N$  ni topib, (2.6) formulaga qo‘ysak, unda bosim ostidagi suvning tezligi quyidagiga teng bo‘ladi:

$$\vartheta = k_t \cdot \sqrt{\frac{2P}{\rho}}, \text{ m/s} \quad (2.8)$$

Nasosdagi suvning miqdori quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q = \mu \cdot \frac{\pi \cdot d^2}{4} \cdot \sqrt{2 \cdot g \cdot H}, \text{ m}^3/\text{s} \quad (2.9)$$

bu yerda  $\mu$  - gidravlik koefitsient;  $d$  - suv quvurining ichki diametri, m. ( $\mu = k_t = 0,92 \dots 0,96$ ).

*Gidromonitordagi suv ustuni  $h_{gm}$  ning kamayishini* quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$h_{gm} = k_{gm} \cdot \frac{\vartheta_{pt}^2}{2 \cdot g}, \text{ m} \quad (2.10)$$

bu yerda  $k_{gm}$  – gidromonitorning joylardagi qarshiliklari yig‘indisining koefitsienti, ( $k_{gm} = 3 \dots 5$ );  $\vartheta_{pt}$  – gidromonitor pastki tirsagidagi suvning tezligi, m/s.

**Gidromonitorning asosiy ko‘rsatkichclarini aniqlash.**

*Suvni maksimal otish masofasini* quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$L = 2 \cdot k^2 \cdot H \cdot \sin 2\alpha, \text{ m} \quad (2.11)$$

bu yerda  $k$  - suv tezligidan foydalanish koeffitsenti ( $k = 0,96 \dots 0,98$ );  $H$  - suv naporı, m;  $\alpha$  - otiladigan suv yo'nalishini gorizont bilan tashkil qilgan burchagi, grad.

*Gidromonitoring texnik ish unumdorligini* quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$U_t = 3600 \cdot \frac{\pi \cdot d^2}{4} \cdot \mu \cdot \sqrt{2gH}, \text{ m}^3/\text{soat} \quad (2.12)$$

bu yerda  $d$  - qo'ndirma chiqish teshigining diametri, m;  $\mu$  - suv sarfi koeffitsenti ( $\mu = 0,90 \dots 0,93$ ).

*Suv nasosiga sarflanadigan quvvat* quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$N = \frac{U_t \cdot P}{3600 \cdot \eta}, \text{ kVt} \quad (2.13)$$

bu yerda  $P$  - suv bosimi, MPa;  $\eta$  - nasosning F.I.K ( $\eta = 0,70 \dots 0,75$ ).

### **Gidromonitorni mustahkamlikka hisoblash.**

*Gidromonitorning yuqori va pastki tirsagi devorlarining qalinligi* quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\delta_t = \frac{P_t \cdot D_t}{2[\sigma]}, \text{ m} \quad (2.14)$$

bu yerda  $P_t$  – tegishli ravishda gidromonitoring pastki va yuqori tirsaklaridagi suvning bosimi, MPa;  $D_t$  – gidromonitorning pastki va yuqori tirsaklarining ichki diametri, m;  $[\sigma]$  – tirsak materialining ruxsat etiladigan kuchlanishi, MPa.

*Gidromonitor yo'naltirgichi devorining qalinligini* quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$\delta_y = \frac{P_y \cdot D_y}{2[\sigma]}, \text{ m} \quad (2.15)$$


bu yerda  $P_y$  – gidromonitor yo'naltirgichidan chiqishdagi suvning bosimi, MPa;  $D_y$  – yo'naltirgichning hisob kesimidagi diametri, m.

*Gidromonitorning sharsimon korpusini mustahkamlikka hisoblashda* asosan yo'naltirgichda hosil bo'lgan suvning reaksiya kuch gidromonitorning yuqori tirsagini pastki tirsagidan ajratishga harakat qiladigan kuchni topishdir. Umumiyl holda yuqori tirsakka uchta kuch ta'sir etadi (2.3-rasm):

- 1) shar o'qi bo'ylab yuqoriga yo'nalgan kuch,

$$F_1 = F_{tp} \cdot \frac{\pi \cdot D_{pt}^2}{4}, \text{ N} \quad (2.16)$$

bu yerda  $F_{tp}$  - pastki tirsakning markazdan kochma kuchi, N;  $D_{pt}$  – pastki tirsak quvurining ichki diametri, m.



**2.3-rasm. Gidromonitorni mustahkamlikka hisoblash chizmasi.**

2) yo‘naltirgich o‘qi bo‘ylab ta’sir qiluvchi suvning reaksiya kuchi,

$$R_{gm} = \rho_s \cdot \frac{\pi \cdot d_{sch}^2}{4} \cdot g_{sch}^2, \text{ N} \quad (2.17)$$

bu yerda  $\rho_s$  – suvning zichligi, kg/m<sup>3</sup>;  $d_{sch}$  - o‘rnatgichning ichki diametri, m;  $g_{sch}$  – o‘rnatgichdan chiqayotgan suvning tezligi, m/s.

3) yuqori tirsakning markazdan kochma kuchi,

$$F_{tyu} = \rho_s \cdot \frac{\pi \cdot D_{yut}^2 \cdot \ell_{yu} \cdot g_{syu}^2}{4 \cdot r}, \text{ N} \quad (2.18)$$

bu yerda  $D_{yut}$  - yuqori tirsakning ichki diametri, m;  $\ell_{yu}$  – yuqori tirsakning uzunligi, m;  $g_{syu}$  – yuqori tirsakdagи suvning tezligi, m/s;  $r$  - tirsakning radiusi, m.

$F_1$  va  $R_{gm}$  kuch vektorlarining yig‘indisi natijaviy kuch  $F$  ni aniqlaydi:


$$\begin{aligned}\vec{F} &= \vec{F}_1 + \vec{R}_{gm} = \sqrt{\vec{F}_1^2 + \vec{R}_{gm}^2 + 2|\vec{F}_1| \cdot |\vec{R}_{gm}| \cdot \cos(90^\circ - \alpha)} = \\ &= \sqrt{\vec{F}_1^2 + \vec{R}_{gm}^2 + 2|\vec{F}_1| \cdot |\vec{R}_{gm}| \cdot \sin \alpha} \quad , N\end{aligned}\quad (2.19)$$

$F$  va  $F_{tyu}$  kuch vektorlarining yig‘indisi esa suv bosimining yuqori tirsakni ajratuvchi kuch  $F_{sb}$  aniqlaydi:

$$\begin{aligned}\vec{F}_{sb} &= \vec{F} + \vec{F}_{tyu} = \sqrt{\vec{F}^2 + \vec{F}_{tyu}^2 + 2|\vec{F}| \cdot |\vec{F}_{tyu}| \cdot \cos \beta} = \\ &= \sqrt{\vec{F}^2 + \vec{F}_{tyu}^2 + 2|\vec{F}| \cdot |\vec{F}_{tyu}| \cdot \cos \frac{\alpha}{2}} \quad , N\end{aligned}\quad (2.20)$$

**Gidromonitorni turg‘unlikka hisoblash.** Agar gidromonitorning poydevori zaminga mustahkam o‘rnatilgan bo‘lsa, uni turg‘unlikka hisoblash talab etilmaydi. Agar gidromonitor zamin bilan mustahkam bog‘lanmagan va ko‘chib yuradigan bo‘lsa uni albatta turg‘unlikka hisoblash talab etiladi.

Gidromonitorning hisob chizmasi masshtabda chizilib, unda barcha ta’sir etuvchi kuchlar o‘z yelkalari bilan ko‘rsatiladi (2.4-rasm).



Gidromonitor turg‘un deb hisoblash uchun, O nuqtaga nisbatan olingan momentlarning yig‘indisi quyidagi shartni bajarishi kerak:

$$R_{gm} + F_{tyu} \cdot OB \leq m_g \cdot g \cdot a + F_{tp} \cdot OA \quad (2.21)$$


Agar bu shart bajarilmasa, gidromonitor ramasiga qo'shimcha og'irlik (posangi)  $m_p \cdot g$  kuchi qo'yiladi. Uni quyidagi munosabatdan aniqlash mumkin:

$$R_{gm} + F_{tyu} \cdot OB = m_g \cdot g \cdot a + F_{tp} \cdot OA + m_p \cdot g(a + b) \quad (2.22)$$

## 2.3. Gidroelevatorlar.

### 2.3.1. Gidroelevatorlar haqida umumiy tushunchalar.

Gruntga gidromonitor yordamida ishlov berish natijasida hosil bo'lgan aralashmani (suv-loy) va boshqa suv-loyli aralashmalarni transport qilishda gidroelevatorlardan foydalaniladi. U bosim ostidagi suv yo'nalishi asosida ishlaydi. Gidroelevatordan konstruktiv sxemasi 2.5-rasmda ko'rsatilgan bo'lib, u korpus, bo'g'iz, konusli toraytirgich va diffuzorlardan tashkil topgan.



**2.5-rasm. Gidroelevatordan umumiy ko'rinishi:** 1-suv bosimi ostidagi quvur; 2-loyni so'rvuchi quvur; 3-qo'ndirma (konusli toraytirgich); 4-yo'naltirgich (diffuzor); 5-ochgich.

Gidroelevatordan korpusi po'lat yoki chugunni eritib quyilgan qotishmadan iborat bo'lib, uni metall list bo'laklarim bir biriga payvandlab ham yasash mumkin. Odadta ular turli shakl va o'lchamdagini quvurlarni birlashtirishdan hosil qilinadi.

Suv-loy aralashmasi quvur 2 ga yo'naltirilgandan so'ng, bosim ostidagi suvni ochib, yopuvchi uskuna 5 orqali suv, qo'ndirma 3 yordamida purkalishi hamda tiqin vazifasini bajaruvchi aralashmaning ta'siri natijasida vakuum hosil bo'ladi. Suv bosimining yuqoriligi aralashmani suv bilan qorishtirib, yo'naltirgich 4 orqali transport qiladi.


Gidroelevatordan yutug'i qilib quyidagilarni ko'rsatish mumkin; konstruksiyasining oddiyligi, bir joydan ikkinchi joyga qo'chirishda

uni qismlarga ajratish va o‘rnatishning yengilligi, harakatlanuvchi mexanizmlarning yo‘qligi uni ishga tushirish va to‘xtashni osonlashtirishi.

Ularning kamchiligi qilib quyidagilarni ko‘rsatish mumkin; suv sarfining yuqoriligi, aralashmani yuqoriga ko‘tarishda va so‘rvuchi quvurga havo tushganda ish unumdorligini kamayishi, aralashmani transport qilishda uskunalarni tez yeysishi.

### 2.3.2. Gidroeleatorlarni hisoblash.

Gidroeleatorlarni hisoblash gidravlika kursidagi nazariyalardan foydalanib amalga oshiriladi. Buning uchun gidroeleatorning hisob chizmasi chizilib, unda barcha kuchlar ko‘rsatiladi (2.6-rasm). Bunda  $Q_o$ ,  $Q_{so}$  va  $Q$  lar tegishli ravishda suv, loyqa va ularning yig‘indisi ( $Q = Q_o + Q_{so}$ ) dan tashkil topgan sarflangan miqdorlari,  $H_b$  – loyqani ko‘tarish balandligi, m;  $H_{ch}$  – loyqani so‘rish chuqurligi, m.



Konusli toraytirgich oldidagi suvning 1-1 kesmdagi napori  $H_1$  quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$H_1 = \frac{P_1}{\gamma_1}, \text{ m} \quad (2.23)$$

bu yerda  $P_1$  – toraytirgich oldidagi suvning bosimi, Pa;  $\gamma_1$  – suvning hajmiy og‘irligi, N/m<sup>3</sup>.

Yo‘naltirgich (diffuzor) ning 5 – 5 kesimdagagi napori  $H_5$  quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$H_5 = \frac{P_5}{\gamma_2} = H_{gem} + h_{yo}, \text{ m} \quad (2.24)$$

bu yerda  $P_5$  – diffuzor quvuridagi suv-loy aralashmaning bosimi, Pa;  $\gamma_2$  – aralashmaning hajmiy og‘irligi,  $N/m^3$ ,  $H_{geo}$  – geometrik balandlik, m;  $h_{yo}$  – gidravlik qarshiliklar hisobiga yo‘qotilgan napor, m.

1 – 1 va 2 – 2 kesimlar uchun Bernulli tenglamasini yozamiz:

$$\frac{\vartheta_1^2}{2g} + \frac{P_o + P_1}{\gamma_1} = \frac{P_o - P_v}{\gamma_1} + \frac{\vartheta_2^2}{2g} + \zeta_t \cdot \frac{\vartheta_1^2}{2g} \quad (2.25)$$

bu yerda  $\vartheta_1$  va  $\vartheta_2$  – tegishli ravishda suyuqlikning 1–1 va 2–2 kesimdagi tezliklari, m/s;  $P_o$  – atmosfera bosimi, Pa;  $P_1$  – suyuqlikning 1–1 kesimdagi bosimi, Pa;  $P_v$  – kamera vakuumining ko‘rsatkichi, Pa;  $\zeta_t$  – konusli toraytirgichning qarshilik koeffitsenti.

Kamera vakuumidagi bosim  $P_v$  quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P_v = P_o - P_2, \text{ Pa} \quad (2.26)$$

bu yerda  $P_2$  – suyuqlikning 2–2 kesimdagi bosimi, Pa.

(2.25) tenglamadan suyuqlikning 2–2 kesimdagi tezligini topib quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\vartheta_2 = \sqrt{\left(\frac{P_1 - P_v}{\gamma_1}\right) \cdot 2g + \vartheta_1^2(1 - \zeta_t)}, \text{ m/s} \quad (2.27)$$

Agar toraytirgichning qarshilik koeffitsentini napor va oqim tezligi koeffitsenti  $\zeta_t$  bilan almashtirsak unda (2.25) formula quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\frac{\vartheta_1^2}{2g} + \frac{P_o + P_1}{\gamma_1} = \frac{P_o - P_v}{\gamma_1} + \frac{\vartheta_2^2}{2g} - \zeta_t \cdot \frac{\vartheta_1^2}{2g} \quad (2.28)$$

Bu hol uchun (43) formulani quyidagi ko‘rinishda yozamiz:

$$\vartheta_2 = \frac{1}{\sqrt{1 + \zeta_t}} \cdot \sqrt{\left(\frac{P_1 - P_v}{\gamma_1}\right) \cdot 2g + \vartheta_1^2}, \text{ m/s} \quad (2.29)$$

Agar  $\frac{1}{\sqrt{1 + \zeta_t}} = \varphi$  – tezlik koeffitsenti o‘zgartirishni kiritsak (2.29)

formula quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\vartheta_2 = \varphi \cdot \sqrt{\left(\frac{P_1 - P_v}{\gamma_1}\right) \cdot 2g + \vartheta_1^2}, \text{ m/s} \quad (2.30)$$

3 – 3 va 4 – 4 kesimlar uchun Bernulli tenglamasini yozamiz:

$$\frac{P_3}{\gamma_1} + \frac{\gamma_3 \cdot \vartheta_3^2}{2g \cdot \gamma_1} = \frac{P_4 \cdot \gamma_3}{\gamma_1 \cdot \gamma_3} + \frac{\gamma_3 \cdot \vartheta_4^2}{2g \cdot \gamma_1} + H_{ch} \left( \frac{\gamma_3 - \gamma_1}{\gamma_1} \right) + H_b \cdot \frac{\gamma_3}{\gamma_1} + h_{yo(3-4)} \quad (2.31)$$

bu yerda  $P_3 = P_o + H_{ch} \cdot \gamma_1 - \zeta_{kr} \cdot \gamma_3 \cdot \frac{\vartheta_3^2}{2g}$  - 3 - 3 kesimdagisi bosim, Pa;

$\zeta_{kr}$  - so‘ruvchi quvurga kirish qarshiligining koeffitsenti ( $\zeta_{kr} = 0,8$ );  $h_{yo(3-4)} = 3 - 3$  va  $4 - 4$  kesimlar orasidagi gidravlik qarshiliklar hisobiga yo‘qotilgan napor, m;  $\vartheta_3 = \vartheta_4 = 3 - 3$  va  $4 - 4$  kesimlar orasidagi suyuqlikning tezligi, m/s;  $P_4 = 4 - 4$  kesimdagisi bosim, Pa; ( $P_4 = P_2$  - gidroeleator korpusidagi absolyut bosim).

Ma’lum qisqartirishlardan so‘ng (2.31) formula quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\frac{P_3}{\gamma_1} + H_{ch} - \zeta_{kr} \frac{\vartheta_3^2}{2g} \cdot \frac{\gamma_3}{\gamma_1} = H_{ch} \left( \frac{\gamma_3 - \gamma_1}{\gamma_1} \right) + H_b \cdot \frac{\gamma_3}{\gamma_1} + h_{yo(3-4)} \quad (2.32)$$

6 - 6 va 7 - 7 kesimlar uchun Bernulli tenglamasini yozamiz:

$$\frac{P_6}{\gamma_2} \cdot \frac{\gamma_2}{\gamma_1} + \frac{\vartheta_6^2}{2g} \cdot \frac{\gamma_2}{\gamma_1} = \frac{P_7}{\gamma_1} + \frac{\vartheta_7^2}{2g} \cdot \frac{\gamma_2}{\gamma_1} + \frac{\gamma_2}{\gamma_1} \cdot h_{yo(6-7)} + \sum_{i=1}^n i \cdot \frac{\vartheta_6^2}{2g} \cdot \frac{\gamma_2}{\lambda_1} + H_{geo} \frac{\gamma_2}{\gamma_1} \quad (2.33)$$

bu yerda  $\sum_{i=1}^n \zeta_i = \zeta_t + \zeta_{ch}$ ;  $\zeta_t$ -tirsakning qarshilik koeffitsenti ( $\zeta_t = 0,2$ );

$\zeta_{ch}$  - suyuqliki quvurdan chiqishdagi qarshilik koeffitsenti ( $\zeta_{ch} = 1,0$ ).

5 - 5 va 6 - 6 kesimlar uchun Bernulli tenglamasini yozamiz:

$$\frac{P_5}{\gamma_2} \cdot \frac{\gamma_2}{\gamma_1} + \frac{\vartheta_5^2}{2g} \cdot \frac{\gamma_2}{\gamma_1} = \frac{P_6}{\gamma_1} \cdot \frac{\gamma_2}{\gamma_1} + \frac{\vartheta_6^2}{2g} \cdot \frac{\gamma_2}{\gamma_1} + \zeta_{df} \frac{\gamma_2}{\gamma_1} \cdot \frac{\vartheta_5^2}{2g} \quad (2.34)$$


bu yerda  $\zeta_{df}$  - diffuzorning qarshilik koeffitsenti. Uni professor P.N.Kamenev tuzgan grafikdan aniqlash mumkin (2.7-rasm). Bu qarshilik koeffitsenti gidroeleatorning F.I.K ( $\eta$ ), bo‘g‘izdagi suyuqlikning tezligi ( $v_b$ ) va aralashmaning tezligiga ( $v_{ar}$ ) bog‘liq bo‘ladi.

Gidroeleatorning foydali ish koeffitsentini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$\eta = \frac{Q_{so} \cdot \gamma_2 \cdot \left( H_b + H_5 + \frac{\vartheta_5^2}{2g} \right)}{Q_o \cdot \gamma_1 \cdot \left( H_1 - H_5 - H_b - \frac{\vartheta_5^2}{2g} \right)} \quad (2.35)$$


Gidroeleatorning konusli toraytirgichining silindr qismining uzunligi  $\ell$  va uni silindrik qismi bilan ulanadigan joyining radiusi  $r$  ni aniqlashda uchining diametri d hisobga olinadi.

$$r = (3...5) \cdot d, \text{ m}; \ell = (0,25...0,50) \cdot d, \text{ m}.$$



**2.7-rasm.** Diffuzorning qarshilik koeffitsenti  $\zeta_{df}$  ni suyuqlik naponi N ga bog'liqligining grafigi.

P.N. Kamenev toraytirgichning diametrini tanlash uchun grafik tuzgan va u napor N bilan suyuqlik miqdori Q ga bog'liq bo'ladi (2.8-rasm).



**2.8-rasm.** Gidroelelevator konusli toraytirgichini tanlash grafigi.

## **2.4. Loyqaso‘rgichlar (Zemlesoslar).**

Loyqaso‘rgich deb, suv-loy aralashmasini bosim ostida quvur yordamida ma’lum masofaga ko‘chiruvchi (transport qiluvchi) mashinaga aytildi.

Loyqaso‘rgichlar - konstruksiyasiga ayrim o‘zgartirishlar kiritilgan markazdan qochma suv nasoslar bo‘lib, unga mustahkam bog‘langan so‘ruvchi va ko‘taruvchi quvurlardan tashkil topgan konstruksiyadir.

Loyqaso‘rgichlar gidromexanizatsiyaning asosiy uskunasi bo‘lib hisoblanadi, shuning uchun bu mashinaga katta e’tibor qaratiladi.

### ***2.4.1. Loyqaso‘rgichlarning konstruksiyalari.***

XVIII asr o‘rtalarida Leonardo Eyler tomonidan markazdan qochma nasoslarning nazariyasi yaratilgan bo‘lib, uni hayotga qo‘llash XIX asr o‘rtalariga kelib amalga oshirilgan. Bunga sabab nasoslarni harakatga keltiruvchi maxsus dvigatellarning yo‘qligi bo‘lgan.

Rassiyada birinchi bo‘lib 1935 yilda ZNK-200 rusumli loyqaso‘rgich ishlab chiqilgan. Uning g‘ildiragi valining aylanish tezligi 830 ayl/min, napori (bosimi) 22 m.s.u. va ish unumдорligi 110 l/s ni tashkil qilgan.

1937 yilda injener-konstruktor V.A.Morz tomonidan ZGM-1 rusumli loyqaso‘rgich ishlab chiqarilgan. Undan keyingi loyqaso‘rgichning asosiy konstruksiyasining elementlari yaratililib, takomillashtirilib borildi.

1938 yilda ZGM-1 rusumli loyqaso‘rgichni konstruksiyasini takomillashtirish natijasida ZGM –2 rusumlisi ishlab chiqilgan. Bu loyqaso‘rgich ish jahozi valining kam aylanishiga qaramasdan murakkab sharoitlarda yuqori konsentrasiyalı gidroaralashmalarni so‘rishda ishlatilgan.

Loyqaso‘rgichlarni zamонавиј конструкијаларини юратиш ва уларни фойдали исх коефитсентини (F.I.K) ошириш натижасида ZGM-3 rusumlisi ishlab chiqarildi. Bu konstruksiyani takomillashtirish natijasida loyqaso‘rgichlarning 20NZ (300-40), 24NZ (500-60) va 1000-80 rusumlilari yuzaga keldi.

Shunday ko‘chirib o‘rnataluvchi loyqaso‘rgichning takomillashtirilgan konstruksiyasi ZGM-1-350A rusum bilan ishlab chiqarilgan

(2.9-rasm). Uskuna ikkita bir-biri bilan oshiq-moshiq orqali o‘zaro birlashtirilgan metall poydevorga o‘rnatilgan. Ularning biriga loyqaso‘rgich nasosi 4, loyqaso‘rvuchi quvur 1 va uni ko‘tarib tushiruvchi moslama 2 (elektr chig‘ir, po‘lat arqon, polistpast) o‘rnatilgan. Ikkinchisiga esa, nasosni harakatga keltiruvchi elektr dvigateli 8 va boshqaruv moslamalari joylashtirilgan.

Loyqaso‘rgich nasosi elektr dvigateli bilan oshiq-moshiqli muftalar va ularga tegishli vallar orqali ulangan. Nasosning so‘rvuchi quvur tomonida maxsus qopqoq bo‘lib, undan ishchi g‘ildirakni tozalashda foydalilanadi. Nasosning bosim quvuri tomoniga qaytaruvchi klapan o‘rnatilgan.

Uskunani ishga tushiruvchi ejektori va boshqa yordamchi suv ta’minotlarini suv bilan taminlash tegishli quvurlar orqali maxsus suv nasosi yordamida amlaga oshiriladi. Loyqaso‘rgich nasosinining ishlahini manometr va vakuummetrlar orqali nazorat qilinadi.

ZGM-1-350A rusumli ko‘chma loyqaso‘rgichning asosiy texnik ko‘rsatkichlari 2.1-jadvalda keltirilgan.


### *2.1-jadval*

#### **ZGM-1-350A rusumli loyqaso‘rgichning asosiy texnik ko‘rsatkichlari.**

Texnik ish unumdorligi, m <sup>3</sup> /soat.....	228
Elektr dvigatelining quvvati, kVt.....	510
So‘rvuchi quvurning maksimal tushirish chuqurligi, m.....	2,5
So‘rvuchi quvurning diametri, .....	400
Bosim quvurining diametri, m.....	400
Uskunaning massasi, t.....	19,45


Uskunaga ZGM-1-350A rusumli loyqaso‘rgich nasosi o‘rnatilgan (2.10-rasm). Korpus 4 ichiga maxsus podshipnik orqali joylashgan ishchi g‘ildirak 6 da uchta kurak o‘rnatilgan. Ishchi g‘ildirak uni aylantiruvchi val 10 ga shponkali brikma orqali mahkamlangan. Aylantiruvchi val poydevor 16 ga ikkita tayanch podshipniklari yordamida o‘rnatilgan.

Zichlovchi halqa 22 ni loyqadan himoya qilish maqsadida uning aylanishiga teskari yo‘nalishda suv bosimi (maxsus nasos yordamida) beriladi.



**2.9-rasm. 3ГМ-1-350A rusumli ko'chma loyqaso'rgich uskunasining (yuqoridan, plandagi) umumiyl ko'rinishi:** 1-so'rvuchi quvur; 2-chig'ir; 3-ejektor; 4-nasos; 5-mudta; 6-boshqarish joyi; 7-poydevor; 8-eleknh divigateli; 9-qaytaruvchi klapan; 10-bosim quvuri.


Loyqaso‘rgich nasosining oldingi va orqa qopqog‘i yeylishining oldini olish maqsadida almashtiriladigan himoya diskleri bilan himoyalangan va ular suv yordamida doimiy yuvib turiladi.



**2.10-rasm. ZGM-1 rusumli loyqaso‘rgichning qirqimi:** 1-o‘rnatuvchi halqa; 2-so‘ruvchi quvur bo‘g‘izi; 3-qopqoqning himoya diskisi; 4-korpus; 5-tayanchning himoya diskisi; 6-ishchi g‘ildirak; 7-moy tutkichi; 8-oldingi podshipnikning qopqog‘i; 9-oldingi podshipnikning qutisi; 10-val; 11-orqa podshipnikning qopqog‘i; 12-orqa podshipnik qutisi; 13, 14-mufta; 15, 19-podshipnik qopqoqlari; 16-poydevor; 17, 18, 20-podshipniklar; 21-siuvchi ftulka; 22-zichlovchi halqa.

**Loyqaso‘rgichning korpusi** (2.11,*a*-rasm). Korpus chugun yoki po‘latni eritib quyilgan konstruksiya bo‘lib, uning ichiga loyqaso‘rgichning ishchi g‘ildiragi joylashtiriladi. Korpusning yuqori qismida boltli bog‘lagich bo‘lib, unga napor quvuri o‘rnatiladi. Shuningdek, korpusda maxsus tuynik bo‘lib, unga qopqoq qo‘yiladi va boltlar yordamida berkitiladi. Bu tuynikdan korpus va ishchi g‘ildirakni turli xil iflosliklardan tozalashda foydalilanadi.


Loyqaso‘rgichning ishchi g‘ildiragi uni aylantiruvchi val bilan ulanadi, val esa korpusdagi poydevorlarga o‘rnatilgan poshipniklarga joylashtirilgan bo‘ladi va val oxirida uni dvigateł bilan bog‘lovchi flanes o‘rnatilgan bo‘ladi. Korpusga ishchi g‘ildirak joylashtirilgandan so‘ng, korpusdagi boltlarga himoya diskisi va qopqoq kiritilab kayka yordamida mahkamlanadi (2.11,*b*-rasm).



**2.11-rasm. Loyqaso‘rgichning korpusi:** *a*-loyqaso‘rgichning korpusi; *b*-loyqaso‘rgichning detallari.

20R-11 rusumli bir pog‘onali bir tomonlama so‘rvuchi loyqaso‘rgichning umumiyl ko‘rinishi 2.12-rasmda ko‘rsatilgan.

**2.12-rasm.**  
**Loyqaso‘rgich-ning**  
**umumiyl ko‘rinishi.**



So‘rvuchi va naporli quvurlarining diametri 500 mm. Ish unum-dorligi  $3600 \text{ m}^3/\text{soat}$ , naporlari  $55\ldots52 \text{ m}$ , F.I.K 70 %, elektrovdvigateli ning quvvati  $1100 \text{ kVt}$ .

ZGM-1-350A rusumli loyqaso‘rgich nasosining texnik ko‘rsat-kichlari 2.2-jadvalda keltirilgan.

2.2-jadval

**ZGM-1-350A rusumli loyqaso‘rgich nasosining texnik ko‘rsatkichlari.**

Ishchi g‘ildiragining diametri mm	Ish unumdorligi, m <sup>3</sup> /soat	Napor, m.s.u	F.I.K., %	Valning aylanishlar soni, ayl/min	Elektr dvigatelining quvvati, kVt	G‘ildirak kesimining ichki diametri, mm	Nasosning so‘ruvchi va bosim bo‘g‘izlarining ichki diametri, mm	So‘rishing vakuumetrik balandligi, m.s.u	Nasosning massasi, kg
910	1900	43	70	590	500	210	350	5,5	4203
865	1900	61	69	740	630	210	350	4,5	4203
865	1800	38	69	590	500	210	350	5,5	4203

Tozalovchi qopqoqda joylashgan shtuserga quvur yordamida vakuumnasos yoki ejektorga ulanadi. Uning yordamida korpus ichidagi havo so‘rilib olinadi va korpus suv bilan to‘ldiriladi. Korpus suv bilan to‘lgandan so‘ng vakumnasos yoki ejektor to‘xtatilib, uni ulovchi quvur berkitiladi. Korpusning suv bilan to‘lganligini maxsus shisha naychadan aniqlanadi.


Bu kabi kerakli ishlar bajarilgandan so‘ng loyqaso‘rgichning elektrdvigateli ishga tushirilib loy-suv aralashmasini so‘rish va uni transport qilish jarayoni boshlanadi.

**Loyqaso‘rgichning ishchi g‘ildiragi.** Loyqaso‘rgichning ishchi g‘ildiragi uning asosiy vositasi bo‘lib, uning kuraklari yordamida suyuqlik energiyasi mexanik energiyaga aylanadi. Loyqaso‘rgich ishchi g‘ildiragi konstruksiyasining mukammaligi hamda undagi kuraklar shaklining rasionalligi loyqaso‘rgichni samarali ishlashini ta’minlaydi.

Loyqaso‘rgich yordamida hosil qilinadigan suvning napori, ish jihizi valining aylanishlar soni hamda g‘ildirakning diametri orqali aniqlanadi. Agar loyqaso‘rgich dvigateli ish jihizi valining aylanishlar sonini o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, turli naporni hosil qilishda qo‘srimcha g‘ildirklardan foydalilanadi.

Loyqaso‘rgich uskunasi nasosining ishlash sxemasi 2.13-rasmda ko‘rsatilgan. Cho‘kindini so‘rib oluvchi quvur 2, nasos korpusi 4 ning ichidagi kurakli g‘ildirak 3 o‘qiga paralell qilib ulanadi. Nasos korpusi aylanasiga urunma qilib yasalgan chiqarish yo‘li 11 ga chiqaruvchi

quvur ulanadi. Ish g‘ildiragi, ikkita paralell disk 3,6 lar va uni orasida joylashgan, ma’lum radiusga ega bo‘lgan kurak 1 lardan tashkil topgan bo‘lib, val 8 ga mahkamlangan bo‘ladi.



**2.13-rasm. Loyqaso‘rgichning ishlash sxemasi:** 1-kurak; 2-so‘ruvchi quvur; 3-kuraklar; 5-ishchi g‘ildirak; 4-korpus; 6-suv quyuuvchi quvur; 7-bog‘lagich; 8-val; 9-zichlagich (salnik); 10-korpusning qopqog‘i; 11-chiqaruvchi quvur.


Aralashmani nasosga kirishi uchun disk 3 da teshiklar ho-sil qilin-gan bo‘lsa, disk 5 yaxlit yasalgan va unga kuraklar mahkamlangan bo‘ladi. Bu disk, val 8 bilan birlashgan bo‘lib, nasos korpusining qop-qog‘i 10 ga zichlagich 9 orqali bog‘langan bo‘ladi. Qopqoq, boltli birlashma orqali korpusga mahkamlanadi. Nasos ichi chiqindilar bilan to‘lganda qopqoq ochilib, tozalanadi. Bundan tashqari qopqoqdan, ishchi g‘ildirakni almashtirishda ham foydalaniladi. Nasosni ishga tushirishdan oldin so‘ruvchi quvur berkitilib, nasos ichiga quvur 6 orqali suvga to‘ldiriladi. Shundan so‘ng nasos elektr digateli yordamida ishga tushirilishi bilan birga so‘ruvchi quvur ochiladi.

Loyqaso‘rgichning ishchi g‘ildiragi yopiq, yarim yopiq va ochiq ko‘rinishda bo‘ladi. Agar kuraklar disklar orasida bo‘lsa uni yopiq (2.14, a,b,-rasm) agar kuraklar bir diskka o‘rnatilgan bo‘lsa yarim yopiq, agar kuraklar disksiz bo‘lib, kuraklar vali korpusda joylashgan bo‘lsa ochiq turi deb yuritiladi.

Ochiq turida ish jihozи diskining o‘rnini loyqaso‘rgich korpusi-ning so‘ruvchi va napor tomonlari hamda himoya disklari bajaradi.


Shuni ta'kidlash kerakki, ish jihozining ochiq turdagisi yopiq turdagisiga nisbatan, korpusga o'rnatilgan qismi ko'proq yeyiladi.

Loyqaso'rgich ishchi g'ildirigidagi kuraklar soni 2...5 dona bo'lishi mumkin, odatda 3 yoki 4 dona bo'ladi.



**2.14-rasm. Loyqaso'rgichning ishchi g'ildiragi:** a-1000-80 rusumli loyqaso'rgich g'ildiragi; b- 500-60 rusumli loyqaso'rgich g'ildiragi.

Loyqaso'rgich asosan suv-loy aralashmasini tortishi va bu aralashma tarkibida qum hamda toshning bo'lishi ish jihozini tez yeyli shiga olib keladi. Ish jihizi g'ildiragidan chiqayotgan aralashmaning tezligi maksimal bo'ladi. Shuning uchun ham shu joyda katta yeyilash sodir bo'ladi (2.15-rasm).



**2.15-rasm. 300-40 rusumli loyqaso'rgichning yeyilgan g'ildiragi.**

Hozirda yeyishning oldini olish maqsadida ishchi g'ildiraklar qattiq qotishmalardan tayyorlanadi.

Yeyishga chidamli bo'lishi uchun po'latga ayrim aralashmalar (xrom, nikel, molibden, volfram, titan, mis marganes va boshqalar) qo'shiladi.


Himoya diskining xizmat ko'rsatish muddati nasosning so'ruvchi tomoni uning napor qismiga nisbatan ancha kam bo'ladi. Nasosning qo'zg'aluvchan va qo'zg'almas detallari orasiga qum va toshlar kirib

qolib, detallar sirtini yeylishiga olib keladi. Buning oldini olish maqsadida bu oraliq maxsus nasos yordamida toza suv bilan yuvib turiladi

Loyqaso'rgichni toza suv yordamida yuvushning sxemasi 2.16-rasmda ko'rsatilgan.

Bu yerda A, B, E harflar nasosning napor tomonini yuvuv-chi suv yo'lini, A', B', E' harflar esa nasosning so'ruvchi tomonini yuvuvchi suv yo'lini ko'rsatadi.

**2.16-rasm. Loyqaso'rgichni yuvish sxemasi:** 1-korpus; 2-so'ruvchi quvur; 3-korpus kanali; 4-alarashma; 5-ish jihozini so'rish maydoni.




**Ishchi g'ildirakni loyqaso'rgich valiga o'rnatib mahkamlash.** Ishchi g'ildirak loyqaso'rgich valining oxiriga flanesli brikma yoki valning konusli qismiga gaykani siqish orqali o'rnatiladi.

Yuqori ish unumdorli loyqaso'rgichlarda ishchi g'ildirak 3 val 2 ga flanesli qilib bog'lanadi (2.17-rasm).


Loyqaso'rgichning korpusi ikkita qopqoqqa ega: biri loyqani so'ruvchi ikkinchisi loyqani bosim ostida ko'taruvchi tomonida joylashgan bo'ladi. Oldingi qopqoq loyqaso'rgichning ishlashi davomida ishchi g'ildirak va qopqoq orasidagi gruntga ishqalanishi natijasida qiziydi va yeyiladi. Qizish va yeyilshning oldini olish maqsadida qopqoqning ichki tomoniga himoya diskini o'rnatiladi. Himoya diskini qalinligi 25 mm bo'lgan disk shaklidagi po'latdan yasaladi. M'yordan ortiq yeyilgan disk yangisi yoki qayta tiklangani bilan almashtiriladi. Qattiq va mustahkam yog'ochdan yasaladi himoya disklari po'latdan yasalganlariga nisbatan yeyishga ancha chidamli ekanligini ko'rsatdi. Agar ular uzoq vaqt ishlamay tursa qurib maydalanib ketishi mumkin.

**2.17-rasm. Ishchi g'ildirakni loyqaso'rgich valiga bog'lash chizmasi:**

1-podshipniklar; 2-val;  
3-g'ildirak; 4-grundbuksa;  
5-loyqaso'rgichning  
qopqog'i.



Himoya diskini o'rnatish sxemasi 2.18-rasmda ko'rsatilgan. Loyqaso'rgichning so'ruvchi qopqog'i 4 ga so'ruvchi quvur 1 o'rnatiladi, so'ruvchi qopqoq bilan ishchi g'ildirak 2 orasiga himoya diskini 3 joylashtiriladi.



**2.18-rasm. Loyqaso'rgich qopqog'iga himoya diskini o'rnatish chizmasi:** 1-so'ruvchi quvur; 2-ishchi g'ildirak; 3-himoya diskisi; 4-loyqaso'rgich qopqog'i; 5-loyqaso'rgich korpusi.

## 2.4.2. Loyqaso‘rgichlarni hisoblash.

Ma'lumki, ishlatilayotgan loyqaso‘rgich g‘ildiragidagi kuraklari orasida doimiy ravishda gidroaralashma o‘tib turadi. Suv havzasining tubidagi cho‘kindiga ishlov berish orqali hosil bo‘lgan gidroaralashmani ishchi g‘ildirakning chiqish teshigigacha bo‘lgan ko‘taruvchi kuchni atmosfera bosimi hosil qiladi. Gidroaralashmani ishchi g‘ildirakning chiqish teshigidan yuqoriga ko‘taruvchi kuch, loyqa so‘rgich dvigatelining ishchi g‘ildiragidagi kuraklarga beradigan energiyasi orqali hosil qilinadi.

Elementar hajmini  $v$ , massasi  $m$  va ishchi g‘ildirakning o‘qidan r masofada joylashgan gidroaralashmani ko‘rib chiqamiz. Aytaylik, elementar  $v$  hajmdagi gidroaralashmadagi qattiq jismlar qismi  $k$  va suyuq jismlar qismi  $1-k$  bo‘lsin. Unda ajratilgan  $v$  hajmning massasini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$m = [\rho_k \cdot k + \rho_c \cdot (1-k)] \cdot v, \text{ kg} \quad (2.36)$$

bu yerda  $\rho_q$  – aralashmadagi qattiq jismning zichligi,  $\text{kg/m}^3$ ;  $\rho_s$  – aralashmadagi suyuq jismning zichligi,  $\text{kg/m}^3$ .

Ishchi g‘ildirak aylanganda uning kuraklaridagi gidroaralashma markazdan qochma kuch oladi. Bu kuch quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$F = \frac{m \cdot \vartheta_a^2}{r} - \frac{m \cdot (\omega \cdot r)^2}{r} = m \cdot r \cdot \omega^2, \text{ N} \quad (2.37)$$

bu yerda  $\vartheta_a$  – g‘ildirakning chiziqli tezligi ( $\vartheta_a = \omega \cdot r$ ),  $\text{m/s}$ ;  $\omega$  – g‘ildirakning burchakli tezligi,  $\text{s}^{-1}$ .

Bu formulaga (2.36) formuladagi  $m$  ning qiymatini qo‘yib quyidagi formulaga ega bo‘lamiz:

$$F = [\rho_k \cdot k + \rho_c \cdot (1-k)] \cdot v \cdot r \cdot \omega^2, \text{ N} \quad (2.38)$$

Bu kuch ta’sirida aralashma  $r_2 - r_1$  ga ko‘chadi, bunda  $r_1$  – aralashmaning ishchi g‘ildirakka kirish teshigining radiusi,  $\text{m}$ ,  $r_2$  – aralashmaning ishchi g‘ildirakdan chiqish teshigining radiusi,  $\text{m}$ .

F kuch yordamida aralashmani  $r_2 - r_1$  masofaga ko‘chirishda bajrilgan A ishni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$A = k \cdot v \cdot \rho_k \cdot \omega^2 \int_{r_1}^{r_2} r dr + v \cdot \rho_c (1-k) \cdot \omega^2 \int_{r_1}^{r_2} r dr, \text{ J} \quad (2.39)$$

Bu ifodani integrallab, о·r ning о‘rniga  $\vartheta_a$  ni qo‘yib, bajarilgan ishni quyidagi formula orqali aniqlaymiz:

$$A = \frac{1}{2} [v \cdot \rho_k \cdot k \cdot (\vartheta_{a_2}^2 - \vartheta_{a_1}^2) + v \cdot \rho_c (1-k) \cdot (\vartheta_{a_2}^2 - \vartheta_{a_1}^2)], J \quad (2.40)$$

bu yerda  $\vartheta_{a_1}$  - aralashmaning ishchi g‘ildirakka kirish teshigidagi chiziqli tezligi; m/s,  $\vartheta_{a_2}$  - aralashmaning ishchi g‘ildirakdan chiqish teshigidagi chiziqli tezligi, m/s.

Gidroaralashma zichligini uning hajmiy og‘irligi bilan almashtirib (2.40) formulani quyidagicha yozish mumkin:

$$A = v \cdot \gamma_k \cdot k \cdot \frac{\vartheta_{a_2}^2 - \vartheta_{a_1}^2}{2g} + v \cdot \gamma_c (1-k) \cdot \frac{\vartheta_{a_2}^2 - \vartheta_{a_1}^2}{2g}, J \quad (2.41)$$

bu yerda  $\gamma_q$  – aralashmadagi qattiq jismning hajmiy og‘irligi N/m<sup>3</sup>;  $\gamma_s$  – aralashmadagi suyuq jismning hajmiy og‘irligi, N/m<sup>3</sup>.

Bu formulani aralashmaning bir birlik hajimdagisi uchun quyida-gicha yozish mumkin:

$$A_v = \frac{\vartheta_{a_2}^2 - \vartheta_{a_1}^2}{2g} [\gamma_k \cdot k + \gamma_c (1-k)] = \gamma_{ar} \frac{\vartheta_{a_2}^2 - \vartheta_{a_1}^2}{2g}, J \quad (2.42)$$

bu yerda  $\gamma_{ar}$  – aralashmaning hajmiy og‘irligi, N/m<sup>3</sup>.  
bir birlik og‘irlikdagisi uchun

$$A_F = \frac{\vartheta_{a_2}^2 - \vartheta_{a_1}^2}{2g}, J \quad (2.43)$$

Nazariy jihatdan gidroaralashmani nasosdan o‘tish miqdorini (ish unumdorligini) quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$Q = \mu \cdot \frac{n \cdot b_k}{60} \left[ \frac{\pi}{4} (D_g^2 - D_{ga}^2) - z \cdot \ell_k \cdot \delta_k \right], m^3/s \quad (2.44)$$

bu yerda  $\mu$  - gidravlik koeffitsient;  $n$  - nasos valining aylanishlar soni, ayl/min;  $b_k$  - nasos kuraginiн eni, m;  $D_g$  – nasos kuraginiн chek diametri, m;  $D_{ga}$  – nasos kuraginiн ichki diametrii, m;  $z$  – kurak-lar soni;  $\ell_k$  – kurakning uzunligi, m;  $\delta_k$  – kurakning qalinligi, m.

Loyqaso‘rgichning ish jihoziga sarflanadigan quvvat quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$N = Q \cdot \gamma_{ar} \frac{\vartheta_{a_1}^2 - \vartheta_{a_2}^2}{2000 \cdot g}, kVt \quad (2.45)$$

Bu formulaga  $\frac{\vartheta_{a_1}^2 - \vartheta_{a_2}^2}{2g} = H$  almashtirish kirtsak, quvvat formulasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$N = Q \cdot \gamma_{ar} \frac{H}{1000}, \text{kVt} \quad (2.46)$$

bu yerda  $N$  – gidroaralashmaning napori, m.

Mexanikadan ma’lumki, valdagи quvvat uni aylantiruvchi moment  $M$ , ( $\text{kN}\cdot\text{m}$ ) ni burchakli tezlik  $\omega$  ( $\text{s}^{-1}$ ) ka ko‘paytmasidir, agar nasosning foydali ish koeffitsenti  $\eta$  ni ham hisobga olsak uni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$N = \eta \cdot M \cdot \omega, \text{kVt} \quad (2.47)$$

(2.46) va (2.47) formulalarni tenglashtirib, aralashmaning napori  $H$  ni topamiz:

$$H = 1000 \cdot \frac{\eta \cdot M \cdot \omega}{Q \cdot \gamma_{ar}}, \text{m} \quad (2.48)$$

G‘ildirak kuragidagi aralashmaning harakat holatini ko‘rib chiqamiz (2.19-rasm).

Rasmda quyidagi belgilashlar kiritilgan:

$D_1$  va  $D_2$  - tegishli ravishda g‘ildirakning ichki va tashqi diametrlari, m;

$v_{ay\cdot 1}$  va  $v_{ay\cdot 2}$  - tegishli ravishda aralashmani g‘ildirakka kirish va chiqishdagi aylanishning chiziqli tezliklari, m/s;

$v_{ns\cdot 1}$  va  $v_{ns\cdot 2}$  - tegishli ravishda aralashmani g‘ildirakka kirish va chiqishdagi nisbiy tezliklari, m/s;

$v_{ab\cdot 1}$  va  $v_{ab\cdot 2}$  - tegishli ravishda aralashmani g‘ildirakka kirish va chiqishdagi absolyut tezliklari, m/s;

$\alpha_1$  va  $\alpha_2$  - tegishli ravishda aralashmani kirish va chiqishdagi chiziqli va absolyut tezliklari orasidagi burchak, grad;

$\beta_1$  va  $\beta_2$  - tegishli ravishda aralashmani kirish va chiqishdagi chiziqli va nisbiy tezliklari orasidagi burchak, grad;

$\ell_1$  va  $\ell_2$  - tegishli ravishda aralashmani g‘ildirakka kirish va chiqishdagi absolyut tezliklari yo‘nalishidan g‘ildirak markaziga tushirilgan perpedikulyarlarning uzunliklari, m.


Agar g‘ildirakning ichki va tashqi diametrлари hamda uning valini aylanishlar soni berilgan bo‘lsa uni aylanishidagi chiziqli tezligini quyidagi formula yordamida topish mumkin:

$$v_{ay1} = \frac{\pi \cdot n \cdot D_1}{60}, \text{ m/s; } v_{ay2} = \frac{\pi \cdot n \cdot D_2}{60}, \text{ m/s} \quad (2.49)$$

bu yerda  $n$  – g‘ildirak valining aylanishlar soni, ayl/min.

Aralashmani harakatlar sonini momentlar teoremasiga asosan quyidagicha yozish mumkin:

$$M = \frac{\gamma_{ar} \cdot Q}{g} (v_{ab,2} \cdot \ell_2 - v_{ab,1} \cdot \ell_1), \text{ N}\cdot\text{m} \quad (2.50)$$



**2.19-rasm. Loyqaso‘rgich ishchi g‘ildiragidagi kurakka kiruvch va chiquvchi aralashmaning tezliklar parallelogrami.**

2.19-rasmdan  $\ell_1 = \frac{D_1}{2} \cos \alpha_1$  va  $\ell_2 = \frac{D_2}{2} \cos \alpha_2$  larni aniqlab, bularni (2.50) formulaga qo‘yamiz:

$$M = \frac{\gamma_{ar} \cdot Q}{2g} (v_{ab,2} \cdot D_2 \cdot \cos \alpha_2 - v_{ab,1} \cdot D_1 \cdot \cos \alpha_1), \text{ N}\cdot\text{m} \quad (2.51)$$

Bu formuladigi  $D_1$  va  $D_2$  larni chiziqli  $v$  va burchakli  $\omega$  tezliklar orasidagi bog'lanish formulasidan topamiz:

$$D_1 = \frac{2 \cdot v_{ay \cdot 1}}{\omega}, \text{ m}; \quad D_2 = \frac{2 \cdot v_{ay \cdot 2}}{\omega}, \text{ m}$$

bu qiymatlarni (2.48) formulaga qo'yib aralashmaning nazariy naporini aniqlaymiz:

$$H_n = \frac{v_{au \cdot 2} \cdot v_{ab \cdot 2} \cdot \cos \alpha_2 - v_{au \cdot 1} \cdot v_{ab \cdot 1} \cdot \cos \alpha_1}{g}, \text{ m} \quad (2.52)$$

Bu formula akademik Leonarda Eyler tomonidan keltirib chiqarilgan va u turbomashinalar tenglamasi deb yuritiladi.

Agar  $\alpha_1 = 90^\circ$  bo'lsa (2.52) formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$H_n = \frac{v_{au \cdot 2} \cdot v_{ab \cdot 2} \cdot \cos \alpha_2}{g}, \text{ m} \quad (2.53)$$

Hisoblash formulasini olish uchun (2.52) formulaga gidravlik  $\mu$  va suyuqlik zarrachalari traktoriyasini hisobga oluvchi koeffitsientlarni kiritish kerak, shunda (2.52) formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$H_n = \mu \cdot k \cdot \frac{v_{au \cdot 2} \cdot v_{ab \cdot 2} \cdot \cos \alpha_2}{g}, \text{ m} \quad (2.54)$$

#### **2.4.3. Loyqaso'rgichning so'rish qobiliyatini aniqlash.**

So'rish balandligining geometrik va vauumetrik turlari mavjud. Gorizontal valli loyqaso'rgichning geometrik so'rish balandligi  $H_{gs}$  suv sathi bilan nasos o'qi orasidagi masofa (2.20-rasm).

Vakuumetrik so'rish balandligini quyidagi formula orqali topiladi:


$$H_{vak} = \frac{P_a - P_k}{\gamma_s}, \text{ m} \quad (2.55)$$

bu yerda  $P_a$  – atmosfera bosimi, Pa;  $P_k$  – suvning nasosga kirishdagi bosimi, Pa;  $\gamma_s$  – suvning hajmiy og'irligi, N/m<sup>3</sup>.

Toza suv so'rilganda vakuumetrik ko'tarish balandligi ( $H_{vak}$ ) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$H_{vak} = H_{gs} + h_{sq} + \frac{v_s^2}{2 \cdot g}, \text{ m} \quad (2.56)$$

bu yerda  $h_{sq}$  – ishqalanish natijasida so‘rvuchi quvurdagi naporning yo‘qolishi, m;  $v_s$  – suvning so‘rilish tezligi, m/s.



**2.20-rasm. Loyqani so‘rishi sxemasi.**

Loyqali aralashmani so‘rishiда bu formulaga yana bir qo‘rsatkich, ko‘tarilayotgan loyqa sathi va suv sathi orasidagi masofa  $h_{ar}$  qo‘shiladi. Bu ko‘rsatkichni tutash idishlar qonunidan foydalanib topish mumkin:

$$h_{ar} = h_{sch} \cdot \left(1 - \frac{\gamma_s}{\gamma_{ar}}\right), \text{ m} \quad (2.57)$$

bu yerda  $h_{sch}$  – so‘rvuchi quvurning suvga botirilish chuqurligi, m;  $\gamma_{ar}$  – aralashmaning hajmiy og‘irligi, N/m<sup>3</sup>.

Buni (2.56) formulaga qo‘yib, quyidagi formulani hosil qilamiz:


$$H_{vak} = H_{gs} + h_{sq} + h_{sch} \cdot \left(1 - \frac{\gamma_s}{\gamma_{ar}}\right) + \frac{v_s^2}{2 \cdot g}, \text{ m} \quad (2.58)$$

## 2.5. Loyqaso‘rgich snaryadlari (Zemsnaryadlar).

### 2.5.1. Loyqaso‘rgich snaryadlarining vazifasi, tuzilishi va ishlash jarayoni.

Loyqaso‘rgich snaryadlari deb, suv osti gruntlariga uzliksiz ishlov berib uni suvgaga aralashtirib so‘rvuchi va bu aralash-mani chiqarib tashlovchi suvda suzib yuruvchi mashinalarga aytildi.

Loyqaso‘rgich snaryadining umumiyo ko‘rinishi 2.21-rasmida ko‘rsatilgan. Suvda suzib yuruvchi asosiy korpus 5 ga dizelelektrik motor, loyqaso‘rgich 6, chig‘ir 3, qoziq 8 va uni qoqib, qo‘paruvchi uskunalar joylashtirilgan.




**2.21-rasm. Loyqaso‘rgich snaryadining umumiyo ko‘rinishi:** 1-cho‘kindini qabul qiluvchi moslama; 2-val; 3-chig‘ir; 4-so‘rvuchi quvur; 5-asosiy korpus; 6-loyqaso‘rgich; 7-aralashmani chiqaruvchi quvur; 8-qoziq; 9-quvurni suvda tutib turuvchi moslama.

IYOD ga ulangan generator yordamida ishlab chiqilgan elektr energiyasi; loyqaso‘rgich snaryadiga, loyqaso‘rgich nasosiga, gruntni yumshatuvchi va tegishli chig‘irlarni harakatga keltiruvchi elektr dvigatellariga uzatiladi. Cho‘kindini qabul qiluvchi moslama grunt turiga qarab, turlicha bo‘lishi mumkin (2.22-rasm). Yumshoq yaxshi bog‘-lanmagan gruntlardan hosil bo‘lgan cho‘kindini erkin so‘rib oluvchi (2.22,*a*-rasm) turi qo‘llaniladi. Qattiq yaxshi bog‘langan g‘runtlardan hosil bo‘lgan cho‘kindilar esa yumshatilib, so‘riladi. Ularni yumsha-

tishda quyidagi moslamalardan foydalaniladi; gidromonitorlar (2.22,*b*-rasm), frezali (2.22,*c*-rasm) va gidroejektorli (2.22,*d*-rasm).

Suv bilan aralashgan cho'kindini so'rish, maxsus so'ruvchi quvur 4 orqali loyqaso'rgich 6 yordamida amalga oshiriladi (2.21-rasm).

Loyqaso'rgich nasosining og'ir sharoitda ishlashini (suv tarkibida grunt, tosh, metall bo'laklarining mavjudligini) hisobga olib, uning korpusi va ish g'ildiragi mustahkam, yeylishga chidamli metalldan yasalgan bo'lishi kerak. Loyqaso'rgich korpusiga, so'ruvchi quvur nasos g'ildiragi o'qiga paralel qilib, chiqaruvchi quvur esa perpendikulyar ravishda ulanadi. Aralashmani chiqaruvchi quvurni suv ustida ishlab turish maqsadida, maxsus suvda cho'kmas moslamalardan foydalaniladi. So'ruvchi ish jihozini ko'tarib, tushirish xartumga ulangan po'lat arqon va uni chig'iri yordamida bajariladi. Loyqaso'rgich snaryadni suvda ushlab turish uchun maxsus qoziq 8 dan foydalaniladi. Bunda qoziq, suv tubidagi gruntga maxsus qoziq qoquvchi uskunalar yordamida qoqiladi. Bu qoziq, mashinani suvda ushlab turish bilan birga uni qoziq atrofida aylanishiga ham xizmat qiladi. Loyqaso'rgich snaryadning qoziq atrofida o'ng va chapga burilishi, suv ostidagi cho'kindini qamrash oralig'ini uzaytiradi.




**2.22-rasm. Cho'kindini qabul qiluvchi moslamalar.**

**Loyqaso'rgich snaryadni ishlatish jarayoni.** Loyqaso'rgich snaryad 2, suv havzasining o'rtasiga olib kelinadi va o'rnatiladi (2.23-rasm). Uni shu joydagи ushlab turish uchun, ustun qozig'i 1 suv tubidagi gruntga maxsus qoziq qoquvchi uskuna yordamida qoqiladi.

Havzaning qarama-qarshi qirg'oqlariga qoziqlar qoqilib, unga ilmoq 6 o'rnatiladi. Ilmoqqa ulangan po'lat arqon 5 tegishli bulok orqali chig'ir 7 ga ulanadi. Po'lat arqon yordamida ushlab turilgan, frezali yumshatgich 4 ga ega bo'lgan ish jihizi, uning og'irlilik kuchi hisobidan foydalanib, arqonni bo'shatish orqali suv tubidagi cho'kindiga botkuncha tushiriladi.

Frezaga harakat, uning uchun o‘rnatilgan maxsus elektr mator, reduktor va qardan val orqali beriladi. Cho‘kindiga botirilgan frezaga harakat berilgandan so‘ng, loyqaso‘rgich ishga tushirilib, aralashmani so‘rish va uni transport qilish jarayoni boshlanadi. Aralashma, maxsus so‘ruvchi va transport qiluvchi quvurlar ichida harakat qiladi.



**2.23-rasm. Loyqaso‘rgich snaryadning plandagi ish jarayoni.**


Cho‘kindini tozalash, frezani gorizontal tekislikda yoysimon harakatlantirish orqali olib boriladi. Bunda qirg‘oq va mashina bilan bog‘langan arqon va uning chig‘irlari hamda qoqilgan qoziqdan foy-dalaniladi. Agar chap chig‘irdagi arqon o‘ralib, o‘ng chig‘irdagisi bo‘-shatilsa, mashina qoziq atrofida chapga burilib, I qatlam cho‘kindini, o‘ngga burilganda esa II qatlam cho‘kindini suvgaga aralashtirib tortib oladi (2.23-rasm). Bunda tozalashning umumiyligi qamrovi  $2B$  ga teng bo‘ladi. Mashina har bir tozalash holatiga o‘tganda qoziq qo‘parilib, qaytadan qoqiladi.

Hozirda ishlatilayotgan loyqaso‘rgich snaryadlarini quyidagi to‘rtta gruhga bo‘lish mumkin: qurilishda ishlatiladigan (asosan suv osti qumlarni tortib olib qurilishda ishlatish); meliorasiya ishlarida

ishlatiladigan (asosan suv havzalaridagi cho‘kindilarni tozalashda); inshootlarni chuqurligini oshirishda; maxsus ishlarni bajarishda.

### **2.5.2. Loyqaso‘rgich snaryadlarining konstruksiyalari.**

Kichik o‘lchamli loyqaso‘rgich snaryadning umumiy ko‘rinishi 2.24-rasmda ko‘rsatilgan. Bu qurulma yordamida asosan magistral kanallar, suv omborlari va tindirgichlardagi cho‘kindilar so‘rib olinib chiqarib tashlanadi.




**2.24-rasm. Kichik o‘lchamla loyqaso‘rgich snaryadi:** 1-koziq; 2-loyqaso‘rgich snaryadining korpusi (kema); 3-boshqarish joyi; 4-xartum; 5-so‘ruvchi quvur; 6-aratlashtirgichning ramasi; 7-aratlashtiruvchi ish jihoz; 8-ish jihozini harakatga keltiruvchi (aylantiruvchi) val; 9-polispast.

Korpusning orqa qismida ikkita qoziq joylashtirilgan. Ularning biri ko‘tarilgan holatda qoldirilib, ikkinchisi suv tubidagi gruntga loyqaso‘rgichda o‘rnatilgan maxsus bolg‘ali qoziq qoquvchi uskuna yordamida qoqiladi.

Yuqori ish unumdorli 500-60 rusumli loyqaso‘rgich snaryadining umumiy ko‘rinishi 2.25-rasmda ko‘rsatilgan. Bu mashinaning harakat manbaasi dizel-generatorli elektr dvigatel 12 hisoblanadi. Undan energiyani tegishli mexanizmlarga o‘rnatilgan reduktorlarning elektr dvigatellariga beradi.

Mashinani ish holatida tutib turish uchun qoziqlar 6 dan foydalaniadi. Qoziqlar ikkita bo‘lib, ular havzaning tubiga qoqiladi. Agar tozalash aylana yoyi shaklida bo‘lsa, bir qoziq ko‘tarilgan va ikkinchisi esa qoqilgan holda bo‘ladi va mashina uning atrofida aylanib ish bajradi.



Gruntga ishlov beruvchi jihoz frezali bo‘lib, uni ko‘tkrib tushirish po‘lat arqonlar orqali chig‘ir yordamida amalga oshiriladi. Suv ostida gorizont bo‘yicha og‘ish burchagi 0...45° ni tashkil qiladi. Bosim quvuri 11 mustahkamligi yuqori va qalin quvurdan yasalgan bo‘ladi.

Qo‘sishimcha suv ta’minoti uchun ikkita suv nasosi o‘rnatilgan bo‘lib, ularni biri zahira hisoblanadi.

Korpusning orqa qismida qoziqlar uchun maxsus maslama o‘rnatilgan bo‘lib, ularni qo‘parish uchun ikkita chig‘ir (har birining yuk ko‘tarish qobu liyati 10 kN) ham joylashtirilgan. Chig‘irlar harakatni elektr dvigatelidan to‘rtta tezlikka ega bo‘lgan uzatmalar qutisi orqali oladi.

Ta’mirlash ishlarini bajarish uchun korpusga yuk ko‘tarish qobu liyati 50 kN bo‘lgan kran ham o‘rnatilgan bo‘ladi.


Yuqori quvvatga ega bo‘lgan 1000-80 rusumli loyqaso‘rgich snaryadning konstruktiv chizmasi 2.26 - rasmida ko‘rsatilgan. Loyqa so‘rgich nasosi quvvati 4400 kVt bo‘lgan asinxron elektr dvigateli orqali harakatga keltiriladi. Asinxron rejimda ishlatishda valning ay lanish tezligi reostat yordamida 240, 260, 280 va 297 ayd/min ga o‘zgartirish mumkin. Mashinani bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish, quvvati 74...88 kVt bo‘lgan katerlar yordamida shatakkka olib amalga oshiriladi.

Ayrim kichik o‘lchamli loyqaso‘rgich snaryadlarning asosiy ko‘rsatkichlari 2.3-jadvalda keltirilgan.

### 2.3-jadval

#### Kichik o‘lchamli loyqaso‘rgich snaryadlarining asosiy ko‘rsatkichlari.

Ko‘rsatkichlar	UPM-2	8PZU-3M	ZRS-2	350-50L	350-50T
Grunt bo‘yicha texnik ish unumdarligi, m <sup>3</sup> /soat.	50	67	123	375	375
Yumshatgich bilan maksimal chukurligi, m.	3,2	4,5	4,5	10	18
Suvdagи texnik ish unumdarligi, m <sup>3</sup> /soat.	252	720	1320	4500	4500
Dvigatelining quvvati, kVt.	55	110	220	1695	2280
So‘rvuchi va chiqaruvchi quvurning diametri, mm.	150	273	350	600	600
Mashinaning massasi, t.	8	30	37,5	281	500



**2.26-rasm. 1000-80 rusumli loyqaso'rgish snaryadining (yuqoridan va yon tomonidan) umumiyo'rinishi:** 1-korpus; 2, 7, 9, 10, 11-chig'irlar; 3-bosim quvuri; 4-qoziq; 5-elektr dvigateli; 6-nasos; 8-loyqa so'ruvchi ish jihizi.

Salmoqli hamda yuqori ish unumdorli loyqaso‘rgich snaryadlari-ning texnik ko‘rsatkichlari 2.4-jadvalda keltirilgan.

#### 2.4-jadval

#### Ayrim salmoqli loykasos‘rgich snaryadlarining texnik ko‘rsatkichlari.

Ko‘rsatkichlar	Loyqaso‘rgich snaryadlarining rusumlari			
	100-35	300-40	500-60	1000-80
	1	2	3	4
<i>Umumiyo‘ ko‘rsatkichlar</i>				
Grunt bo‘yicha texnik ish unumdorligi (10% li), m <sup>3</sup> /soat.	100	300	500	1000
Loyqani 10m balandlikda ko‘tarilishdagi gorizontal tekislikda transport qilish masofasi, km.	1,2	1,5	2,5	3,6
Yumshatgich bilan birgalikdagi gruntga ishlov berishning maksimal chukurligi, m.	7	11	5	15
Yumshatgich bilan birgalikdagi gruntga ishlov berishning minimal chukurligi, m.	2	3,6	4,5	6
Dvigatelining quvvati, kVt.	400	1227	2970	5130
Mashinaning massasi, (chiqaruvchi quvurlarsiz), t.	64	212	400	650
<i>Loyqaso‘rgich korpusining asosiy ko‘rsatkichlari</i>				
Asosiy o‘lchamlari, m:				
balandligi	1,32	2	2,3	2,85
uzunligi	18,06	30	37	45
eni	8,06	9,5	11	12,2
Korpus listining qalinligi, mm.	3	5	5	5
Korpusning massasi, t.	17,2	51,7	93	127,2
<i>Loyqaso‘rgich nasosining ko‘rsatkichlari</i>				
So‘rvuchi quvurning diametri, mm.	300	500	600	854
Bosim quvurning diametri, mm.	300	500	600	672
Loyqa nasosining ish unumdorligi, m <sup>3</sup> /soat.	1000	3600	5600	10000
Nasos yordamida hosil qilinadigan napor, m.s.u.	40	45	60	80
So‘rvuchi quvurdagi vakuum-ning chegaraviy qiymati, m.s.u.	700	650	600	-
Nasos g‘ildiragining aylanishlar soni, ayl/min.	740	500	500	297


G‘ildirakdagi kuraklari soni.	3	4	4	4
Nasos kirish teshigining diametri, mm.	320	500	635	854
Ishchi g‘ildirakning tashqi diametri, mm.	700	1100	1330	2310
Ishchi g‘ildirakning eni, mm.	200	300	380	420
Salnikli zichlagichni yuvish nasosining suv sarfi miqdori, l/s.	7	12	18	25
Yuuwish suvning napori, m.s.u.	45	50	70	90
Eletr o‘toldirgichning kuchlanishi,kV.	6	8	6	6
Eletr o‘toldirgichdagi tokning kuchi, A.	42,6	111	289	560
Eletr o‘toldirgich valining aylanishlar soni, ayl/min.	730	500	500	297
<i>Chig ‘irlar</i>				
<i>Yumshatuvchi ish jihozini kutarib tushiruvchi chig ‘ir:</i> ko‘tarish kuchi, kN. g‘altakning tezligi, m/min. elektr dvigatelining quvvati, kVt.	15 12,8 5,8	8, 5,8 14,5	100 15,65 50	100 15,65 50
<i>Qoziq chig ‘irlari:</i> ko‘tarish kuchi, kN. g‘altakning tezligi, m/min. elektr dvigatelining quvvati, kVt.	15 6,4...8,6 5	85 5,8 14,5	150 0,77...19 5,5	250 0,58...13,7 18
<i>Qoziqlari</i>				
Diametrri, mm.	325	631	1020	1020
Uzunligi, m.	7,5	20	25	27,5
Og‘irligi, kN.	39	57	153	180
<i>Loyqa so‘ruvchi quvur</i>				
Umumiyligini uzunligi, m.	16	25	33,5	37
Diametri, m.	350	500	700	950
Umumiyligini og‘irligi, kg.	70	148	505	1865
<i>Bosim quvuri</i>				
Umumiyligini uzunligi, m.	9	15	25	25
Diametri, m.	300	500	700	800
Umumiyligini og‘irligi, kg.	153	516	1125	2625
<i>Gruntni yumshatuvchi ish jihizi (frezali)</i>				
Frezaning diametri, mm.	1000	1750	2200	2700
Freza valining aylanishlar soni, ayl/min.	24	18	12	12...18

Frezadagi tishlar soni, dona.	6	6	6	6
Elektr dvigatelining quvvati, kVt.	28	115	180	310
Yumshatgichni ishga tushiruvchi statorning kuchlanishi, v.	380	380	380	6000

### 2.5.3. *Loyqaso'rgich snaryadlarining asosiy qismlari*

#### 2.5.3.1 .*Loyqaso'rgichning kallagi.*

Agar so'rila'digan grunt oddiy loy shaklidagi cho'kindi bo'lsa uni suvgaga ralashtirib so'rishda so'ruvchi quvurning kallagi konussimon bo'ladi. Aralashmani kallakka kirish qismining shakliga qarab aylana (2.27, *s*-rasm), ellipsis (2.27,*b*-rasm) va tirqishsimon (2.27, *a*-rasm) bo'ladi.




**2.27-rasm. Loyqa so'ruvchi kallakkarning shakillari:** *a*-tirqishsimon; *b*-ellipissimon; *c*-aylanasimon.

Qurilishda ishlataladigan loyqaso'rgich snaryadlarida asosan aylana shakldagisi ko'proq qo'llniladi, ayrim hollarda esa ellipsis shaklida-gilari ham qo'llilaniladi. Tirqishsimonlari esa nisbatan chuqurroqda joylashgan cho'kindilar uchun qo'llilaniladi. Kallakka harqanday o'l-chamli to'rlar (chambaraklar) o'rnatish taqiqilanadi, chunki u teshik o'lchamini (suv ostidagi turli materiallarni yopishishi natijasida) kamaytirishga olib keladi va natijada mashinaning ish unumdorligi kamayib ketadi.

### 2.5.3.2 . Suv ostidagi gruntni yumshatuvchi ish jihozlar (frezalar).


Agar suv ostidagi grunt (cho'kindi) qattiq bo'lsa unga ishlov berish orqali yumshatish talab qilinadi. Bu ishni, faol ish jihozli, turli shakillarga ega bo'lgan frezalar amalga oshiradi (2.28-rasm).



**2.28-rasm. Gruntni yumshatuvchi frezalar:** a - qirquvchi pichoqlari almashtiriladigan freza; b - qumli gruntlarga ishlov beruvchi freza; c - o'taqattiq gruntlarga ishlov beruvchi freza; d - kurakli freza.

### 2.5.3.3. Ejektorlar.

Ejektorlar loyqaso'rgich nasosidagi havoni so'rib olish uchun xizmat qiladi (2.29-rasm).



**2.29-rasm. Ejektorning kesimi:** 1-suv quvurinig bo'g'zi;  
2-chiqarish quvuri; 3-havo quvurining bo'g'zi.

Ayrim gruntni yumshatuvchi frezalarning texnik ko'rsatkichlari 2.5-jadvalda keltirilgan.

## Gruntni yunshatuvchi frezalarning texnik ko'rsatkichlari

Ko'satkichlar	Turli rusumli loyqaso'gich snaryadlariga o'matilgan frezalar							
	Plugli				Ag'dargichli			
	M3-7; M3-8; 3PC-2; 3PC-120	150-45; 12A-5M; 160-50P	200-50; 12A-4; 3PC-Г	M3-6	300-40M; 300-40ХII; 350-50Л	350-50T; 350-50TM	500-60; 500-60MH	1000-80
Yumshatuvchi frezalarning rusumlari: silliq tishsiz tishli	ΦII-100-1 ΦII-100-2	ΦII-150-1 ΦII-150-2	ΦII-200-1 ΦII-200-2	ΦII-250-1 ΦII-250-2	ΦII-350-1 ΦII-350-2	ΦO-350-1 ΦO-350-2	ΦO-500-1 ΦO-500-2	ΦO-1000-1 -
Ish unumdorligi, m <sup>3</sup> /soat	100	150	200	250	350	350	500	1000
Frezaning o'lchamlari, mm diametri: maksimal minemal uzunligi	1200 1000 820	1320 1120 860	1500 1200 1040	1750 1540 1155	1960 1600 1320	1960 1600 1400	2400 2000 1775	3250 2760 2100
Frezadagi pichqlar soni, dona	4	4	4	4	4	4	4	4
Pichoqning qirqish burchagi, grad	35 (45)	35 (45)	35 (45)	35 (45)	35 (45)	35 (45)	35 (50)	35
Freza o'qiga nisbatan pichoqning og'ish burchagi, grad	50	50	50	50	50	50	50	50
Freza balining aylanishlar soni, ayl/min	30...35	25...30	25...30	25...30	25...30	25...30	20...25	20...25
Frezaga sarflanadigan quvvat, kVt	30...40 (15...20)	30...50 (15...20)	50...60 (15...20)	75...100 (15...20)	150...200 (15...20)	200...300 (15...20)	300...400 (12...15)	500...600
Frezaning massasi, kg	534 (558)	780	954 (994)	1540(1805)	2370(2894)	2800(3320)	5205(5380)	10350

Eslatma. Qovus ichidagi sonlar tishli frezalar uchun berilgan

U o‘zidagi bug‘zi 3 orqali nasos korpusidagi maxsus teshikka o‘rnataladi. Nasos ichidagi havoni surish uchun bosim ostidagi suv teshik 1 dan yuboriladi, bu teshikning uchi toraytirilgan bo‘lib, suv ejektor kamerasidagi havoni (bosimlar farqi hisobiga) so‘radi va bu havo suv bilan aralashgan holda teshik 2 dan chiqarib yuboriladi.

Ejektorlar loyqaso‘rgich nasosning so‘ruvchi quvuri diametri bo‘-yicha tanlanadi, uni tanlash 2.6-jadvalda keltirilgan.

*2.6-jadval*

**Ejektorlarni tanlash.**


Ko‘rsatkichlar	Loyqaso‘rgichnasosining so‘ruvchi quvurining diametri, sm				
	20	30	50	60	80
Ejektoring havoni so‘ruvchi bo‘g‘zining diametri, mm.	1,5	2,0	3,0	4,0	4,0
Ejektordan o‘tayotgan suvning miqdori, l/s: napor 50 m.s.u. napor 75 m.s.u.	5,25 6,5	10 12,4	21 26	37 46	37 46
Nasosdagi havoni so‘rishning taxminiy vaqt, min.	4	4	5	5	6

**2.5.3.4. So‘ruvchi va bosim quvurlarini qo‘zg‘aluvchan  
qilib bog‘lash.**

So‘ruvchi quvurlar bir biriga gorizontal o‘q bo‘ylab qo‘zg‘aluvchan qilib sharsimon bog‘lanadi (2.30-rasm).


Bunda qo‘zg‘almas bo‘g‘iz 1 va qo‘zg‘aluvchan bo‘g‘iz 2 ning orasiga suv tutkich 3 o‘rnatalib, boltli birikma yordamida bog‘lanadi. Qo‘zg‘aluvchan bo‘g‘iz buriluvchi bo‘yin (sapfa) 4 ga ega bo‘lib, uning yordamida qo‘zg‘aluvchan bo‘g‘izni gorizontal tekislikda ma’-lum burchakka og‘dirish mumkin.

Loyqaso‘rgich nasosining qo‘zg‘almas bosim quvuri bilan loyqa-ni ko‘chirish (transport qilish) quvurlari vertikal o‘qqa nisbatan qo‘zg‘aluvchan bo‘lishi kerak. Chunki loyqaso‘rgich snaryadi qoqilgan qoziq atrofida aylanganda uning korpusda joylashgan qo‘zg‘almas quvur, suvda cho‘kmas material ustidagi transport quvuriga nisbatan gorizontal tekislikda buriladi. Bu burilish, vertikal o‘q bo‘ylab burila-digan moslama orqali amalga oshiriladi (2.31-rasm).



**2.30-rasm. So‘ruvchi quvurni qo‘zg‘aluvchan qilib sharsimon bog‘lash.**

Bunda qo‘zg‘almas quvurning yuqori qismi loyqasurgich nasosiga, qo‘zg‘aluvchan quvurning pastki qismi transport quvuriga ulanadi. Qo‘zg‘almas 4 va qo‘zg‘aluvchan 1 quvurlarning tirsaklari bir biriga ulardagи flaneslarga qo‘shimcha 2 va 6 flaneslar orqali boltli birikma 3 orqali bog‘langan bo‘ladi. Metaldan yasalgan halqa 8 ning ichiga kiritilgan rezinali suvtutqich 9, unga o‘rnatilgan boltli birikma 7 yordamida siqiladi.




**2.31-rasm. Vertikal o‘qqa nisbatan buriluvchi moslamma:** 1-qo‘zg‘aluvchan quvur; 2,6-flaneslar; 3,5,7-boltli brikmalar; 4-qo‘zg‘almas quvur; 8-halqa; 9-suv tutkich.

Loyqani transport qiluvchi quvurlarning bir-biriga ulashning ikkita usuli mavjud: sharnirli (2.32, *a*-rasm) va sharnirsiz (2.32, *b*-rasm).

Loyqani transport qiluvchi quvur maxsus suvda cho‘kmas, malum oraliqlarda joylashgan yastiqlar ustiga o‘rnatilgan bo‘ladi.

Loyqani transport qiluvchi quvurlar quyidagi talablarga javob berishi kerak: minimal gidravlik yo‘qotishga ega bo‘lishi; quvurlarning birlashgan joyi yetarlicha egiluvchan bo‘lishi; quvurlar mexanik mustahkam va chidamlı bo‘lishi; quvurlarning ulangan joyi loyqani chiqarmasligi; quvurlarni bir-biriga ulash va yechish usuli oddiy va bu jarayonga kam vaqt sarflanishi lozim.

Birlashtiriladigan quvurlarning kallagi sharsimon bo‘lib, ular bir-biriga kiritiladi va uning orasiga rezinali suvtutkich o‘rnatilib, boltli birikma yordamida mahkamlanadi.



**2.32-rasm. Transport quvurlarini ulash sxemasi:**

*a* - sharli; *b* – sharsiz.


### **2.5.3.5. Loyqaso‘rgich snaryadlarini tutib turvuchi qoziqlari.**

Qoziqlar ikkita bo‘lib, ular mashina korpusining orqa qismiga o‘rnatalgan bo‘ladi. Agar ularning ikkalasi ham qoqilgan bo‘lsa mashina bir joyda qo‘zg‘almasdan ishlaydi. Agar qoziqning biri qoqilib ikkinchisi ko‘tarilgan bo‘lsa mashina qoqilgan qoziq atrofida aylanib ishlaydi. Qoziqlarni qoqish ikki usulda amalga oshirilishi mumkin.

Qoziqlarni mashinaga o‘rnatilgan chig‘ir yordamida ularni ko‘tarib tushirib o‘z og‘irligidan foydalanib qoqish mumkin yoki maxsus qoziq qoquvchi bolg‘alardan foydalanib qoqish mumkin.


Qoziqlarni ko‘tarib tushirish usullari 2.33-rasmda ko‘rsatilgan. Bunda qoziq 3 mashinadagi maxsus ramaga qamragich 2 lar yordamida o‘rnatiladi.

Qoziqni yuqoridan ko‘tarish usulida (2.33, *a*-rasm) ramaning yuqori qismida tutkich va blok o‘rnatilgan bo‘ladi. Chig‘irning po‘lat arqoni rama va qoziqdagi bloklardan o‘tkazilib, uning uchi ramadagi tutkichga mahkamlanadi. Qoziqni pastdan ko‘tarish usulida (2.33, *b*-rasm) ramaning pastki qismida tutkich va blok o‘rnatilgan bo‘ladi. Chig‘irning po‘lat arqoni rama va qoziqdagi bloklardan o‘tkazilib, uning uchi ramadagi tutkichga mahkamlanadi. Qoziqni friksion qamragich yordamida ko‘tarish usulida (2.33, *c*-rasm), qoziq 3 ni ko‘tarib tushirish friksion qamragich 4 ga ulangan arqon orqali amalga oshiriladi.




**2.33-rasm. Qoziqlarni ko‘tarib tushirish usullari:** *a* - yuqoridan; *b* - pastdan; *c* - friksion qamragich yordamida.

Qoziqlar ikkita yo‘naltirgichlarga o‘rnatilgan bo‘ladi (2.34-rasm). Bunda qoziq 1 yuqori va pastki yo‘naltirgich 4 larga o‘rnatilib, unga friksion qamragich 2 ni kerakli joyga qo‘yib qoziq bilan mahkamlanadi. Friksion qamragichga ulangan po‘lat arqon blok orqali o‘tib chig‘irga ulangan bo‘ladi.



**2.34-rasm.** Qoziqlarni friksion qamragichlar orqali ko'tarib tushirish: 1-qoziq; 2-friksion qamragich; 3-po'lat arqon; 4-yo'naltirgich.

Friksion qamragichning umumiy ko'rinishi 2.35-rasmda ko'rsatilgan.



**2.35-rasm.** Friksion qamragichning yuqoridan ko'rinishi.


Ikkita metall kolotka 2 ga friksion material 3 (ishqalishga chidamli metall bo‘limgan material) biriktirilgan bo‘ladi. Bu kolotkalar biri bir-biridan ma’lum oraliqda joylashgan bo‘lib, ular bir-biri bilan richagli tortkich 5 yordamida bog‘langan bo‘ladi.

Blokdagи po‘lat arqon chig‘ir yordamida tortilganda richagli tortqichlar kolotkalarni bir-biriga yaqinlashtirib qoziqni siqadi. Bunda qoziq friksion va qoziq orasida hosil bo‘lgan ishqalanish kuchi hisobiga ko‘tariladi. Po‘lat arqon bo‘shatilganda richagli tortkichlar siqilgan kolotkalarni bo‘shatadi, qoziq o‘z og‘irligi hisobiga pastga tushadi.

#### **2.5.4. Xorijiy loyqaso‘rgich snaryadlari.**


Loyqaso‘rgich snaryadlari bir qancha xorijiy jumladan AQSH, Kanada va Gollandiya mamlakatlarida ham ishlab chiqariladi.

Murakkab konsruksiyaga hamda katta grunt maydalagichga ega bo‘lgan «Gidro-Kvebek» rusumli (2.36-rasm) loyqaso‘rgich snaryadining og‘irligi 390 t, korpusining uzunligi 84 m, eni 18 m, cho‘kindini so‘rish chuqurligi 15 m bo‘lib, ish jihozining og‘irligi 90 t, uzunligi 26 m tasheil qiladi. Loyqaso‘rgich nasosining quvvati 5882,35 kVt ni tashkil qiladi. Bu loyqaso‘rgich snaryadi o‘ta murakkab suv osti gruntuлага ishlov berib so‘rib olish va chiqarib tashlashga mo‘ljallangan.




**2.36-rasm. «Gidro - Kvebek» rusumli loyqaso‘rgich snaryadining umumiy ko‘rinishi.**

Gollandiyaning «Rolvill» rusumli loyqaso‘rgich snaryadining umumiyo ko‘rinishi 2.37-rasmida ko‘rsatilgan.



**2.37-rasm. «Rolvill» rusumli loyqaso‘rgich snaryadining umumiyo ko‘rinishi.**

So‘ruvchi kallaklarning umumiyo ko‘rinishi 2.38,*a,b*-rasmda, freza va so‘ruvchi kallakning umumiyo ko‘rinishi esa 2.38,*c*-rasmda ko‘rsatilgan.



**2.38-rasm. So‘ruvchi kallaklar va frezaning umumiyo ko‘rinishi:** *a*-to‘rtburchaksimon so‘ruvchi kallak bo‘shatuvchi quvuri bilan; *b*-trapetsiyasimon so‘ruvchi kallak; *c*-frezali ish jihozisi so‘ruvchi kallagi bilan.

Xitoyda ishlab chiqarilgan, Respublikamizda ishlatilayotgan loyqaso‘rgich snaryadining umumiy ko‘rinishi 2.39-rasmida ko‘rsatilgan.



**2.39-rasm. Loyqaso‘rgich snaryadining ishlash jarayoni:** *a*-umumiy ko‘rinishi; *b*-transport quvurining umumiy ko‘rnishi; *c,d*-alarashmani otish jarayoni; *e*-frezali ish jihozи va so‘ruvchi kallakning ko‘rinishi.

Respublikamizda ishlatilayotgan ayrim loyqaso‘rgich snaryadlari-ning texnik ko‘rsatkichlari 2.7-jadvalda keltirilgan.

### 2.7-jadval

#### **Respublikamizda ishlatilayotgan loyqaso‘rgich snaryadlarining texnik ko‘rsatkichlari.**

Ko‘rsatkichlar	Rusumlari			
	12E40M.633	MZ-6	LS-27	ZRS-G
Harakat manbaasi	Elektrik			
Elektr dvigatelining rusumi	SD 2-85-57-8.	AKZ-13-62-8	A-114-8	AO3-400 m-8
Elektr dvigatelining quvvati, kVt	630	630	250	250
Elektr dvigateli valining aylanishlar soni, ayl/min	750	750	750	750
Loyqaso‘rgich nasosining rusumi	12 GRU –12 L			
Loyqaso‘rgichning ish unumдорligи, m <sup>3</sup> /soat	300			

#### **2.5.5. Loyqaso‘rgich snaryadlarini hisoblash.**

##### **2.5.5.1. Loyqaso‘rgich snaryadlarini suvda suzuvchanligi.**

Loyqaso‘rgich snaryadi suvda suzib yurishi uchun quyidagi shartni bajarishi kerak (2.40-rasm):


$$F_{og} \geq R_s \quad (2.59)$$

bu yerda  $F_{og}$  - loyqaso‘rgichning og‘irlik kuchi, N;  $R_s$  - suvning loyqaso‘rgichga ko‘rsatadigan reaksiya kuchi, N.

Arximed qonuniga asosan og‘irlik kuchi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$F_{og} = \rho_s \cdot V_b \cdot g, N \quad (2.60)$$

bu yerda  $\rho_s$  - suvning zichligi, kg/m<sup>3</sup>;  $V_b$  – loyqaso‘rgichning suvga botgan qismining hajmi, m<sup>3</sup>;  $g$  - jismlarni erkin tushish tezlanishi, m/s<sup>2</sup>.




**2.40-rasm. Loyqaso‘rgich snaryadining muvozanatlik sharti.**

### 2.5.5.2. Loyqaso‘rgich snaryadlarining suvda turg‘unligi.

Loyqaso‘rgichning (keyingi so‘zlarda mashina deb ataladi) suvda turg‘unligi deb, tashqi kuchlar (shamolning bosimi, ish jihizi va yuklarni ko‘tarish va tushirishdagi kuchlar) ta’sirida uni muvozanat hola-tidan og‘ib, yana o‘z holiga kelishiga aytiladi.

Bu kuchlar ta’sirida mashina bo‘ylama (2.41, *b*-rasm) yoki ko‘ndalang (2.41, *a*-rasm), ayrim hollarda bir vaqtning o‘zida ham bo‘ylama, ham ko‘ndalang gorizont o‘qiga nisbatan ma’lum burchakka og‘ishi mumkin.



**2.41-rasm. Loyqaso‘rgichni turg‘inlika hisoblash chizmasi:**  
*a*-ko‘ndalang turg‘unlikka; *b*-bo‘ylama turg‘unlikka.

Bunda mashina (m.o.m) va uning suvgaga botgan qismi (s.q.o.m) og‘irlilik kuchlarining marqazi  $c_o$  ma’lum masofaga ko‘chadi.

Ko‘ndalang og‘ishdagi nurlarni kesishish nuqtasi  $m$  ni ko‘ndalang metamarkaz deb ataladi. Bu nuqta bilan mashinaning og‘irlilik markazi orasidagi masofa  $h$  ga kichik metamarkaz balandligi deb yuritiladi.

*Mashinaning ko‘ndalang turg‘unligi.* Mashinaning suvga botgan qismi og‘irlilik markazining og‘ishdagi yoyining kichik metamarkaz radusi  $r$  ni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$r = \frac{J_{yu}}{V}, \text{ m} \quad (2.61)$$

bu yerda  $J_{yu}$  - mashinaning yuk yuzasining diametal yuzasiga nisbatining inersiya momenti,  $\text{m}^4$ ;  $V$  - mashinaning suv ostidagi qismining hajmi,  $\text{m}^3$ .

Mashinaning suvda turg‘unligi metamarkazik formulasini quyida gicha ifodalash mumkin:

$$M_{m.m} = R_s \cdot h \cdot \sin \gamma = R_s (r - a) \frac{\gamma}{57,3}, \text{ J} \quad (2.62)$$

bu yerda  $R_s$  - suvning loyqaso‘rgichga ko‘rsatadigan reaksiya kuchi,  $\text{N}$ ;  $a$ -mashinaning og‘irlilik markazi bilan uning suvga botgan qismi og‘irlilik markazlari orasidagi masofa;  $\gamma$ -mashinani ko‘ndalang o‘qqa nisbatan og‘ish burchagi, grad.

*Mashinaning bo‘ylama turg‘unligi.* Bo‘ylama og‘ishdagi nurlarni kesishish nuqtasi  $M$  ni bo‘ylama metamarkaz deb ataladi. Bu nuqta bilan mashinaning og‘irlilik markazi orasidagi masofa  $H$  ga katta metamarkaz balandligi deb yuritiladi.

Mashinaning suvga botgan qismi og‘irlilik markazining og‘ishdagi yoyning katta metamarkaz radusi  $R$  ni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$R = \frac{J_{syu}}{V}, \text{ m} \quad (2.63)$$

bu yerda  $J_{syu}$  - mashinaning cuvga botgan qismi yuzasini uning og‘irlilik markazi joylashgan qismining ko‘ndalang kesm yuzasiga nisbatining inersiya momenti,  $\text{m}^4$ .

Mashinani suvda turg‘unligining metamarkazik formulasini quyida gicha ifodalash mumkin:

$$M_{m.m} = R_s \cdot H \cdot \sin \alpha, \text{ J} \quad (2.64)$$

bu yerda  $\alpha$  - mashinani ko‘ndalang o‘qqa nisbatan og‘ish burchagi, grad.


*Mashinani maxsus uskuna yordamida ishlashidagi turg'unligi.*  
Mashina ish holatida uning qoziqlaridan biri gruntga qoqilgan bo'lib, uni atrofida aylanib ishlaydi. Shunda mashinaga qo'shimcha yuklama hosil bo'ladi.

Mashinaning qoziqli uskuna bilan ishlashidagi turg'unligini qarab chiqamiz. Ma'lumki mashinaning qozig'i gruntga qoqilganda uning suvga botishi (cho'kishi) kamayadi va aksincha qoziq gruntu ko'tarilganda mashina suvga ko'proq botadi (cho'kadi). Agar o'rtacha cho'kishni  $\Delta z$  deb belgilasak, unda uning qiymatini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$\Delta z = \frac{F_{qok}}{\gamma_s \cdot S}, \text{ m} \quad (2.65)$$

bu yerda  $\gamma_s$  - suvning hajmiy og'irligi,  $\text{N/m}^3$ ;  $S$  – mashinaning suvga botgan qismini yuzasi,  $\text{m}^2$ .

Mashinaning dastlabki bo'ylama va ko'ndalang turg'unligini aniqlash. Buning uchun gruntga qoqilgan qoziqning og'irlik kuchi  $F_{jg'q}$  ni hisobga olib va uni hisobga olmasdan hisoblash ishlarini amalga oshirish kerak. Bunda albatta  $m$ ,  $M$ , va  $c_o$  lar holatini o'zgartiradi (2.42-rasm).



**2.42-rasm. Loyqaso'rgich snaryadining qoziq bilan ishlagandagi turg'unligi.**

Chizmadan kichik metamarkaz balandligini quyidagi muosabat bilan aniqlash mumkin:

qoziq qoqilmaganda

$$h_1 = h_0 - \frac{F_{qok}}{R_s - F_{qok}} \left( Z - \frac{\Delta z}{2} - h_0 - z \right), \text{ m} \quad (2.66)$$

qoziq qoqilganda

$$h_1 = h_0 + \frac{F_{qok}}{R_s + F_{qok}} \left( Z + \frac{\Delta z}{2} - h_0 - z \right), \text{ m} \quad (2.67)$$

bu yerda  $h_0$  - kichik metamarkazning dastlabki balandligi, m;  $Z$ -mashinaing cho'kish masofasi, m;  $z$ -qoziq og'irlilik markazidan mashina tubigacha bo'lgan masofa.

Chizmadan katta metamarkaz balandligini quyidagi munosabat bilan aniqlash mumkin:

qoziq qoqilmaganda

$$H_1 = H_0 - \frac{F_{qok}}{R_s - F_{qok}} \left( Z - \frac{\Delta z}{2} - H_0 - z \right), \text{ m} \quad (2.68)$$

qoziq qoqilganda

$$H_1 = H_0 + \frac{F_{qok}}{R_s + F_{qok}} \left( Z + \frac{\Delta z}{2} - H_0 - z \right), \text{ m} \quad (2.69)$$

Metamarkaz balandliklarini aniqlagandan so'ng, gorizontga nisbatan mashinaning ko'ndalang og'ish burchagi γ ni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$\gamma = \frac{57,3 \cdot F_{qok} \cdot \ell_1}{(R_s - F_{qok}) \cdot h_1}, \text{ grad} \quad (2.70)$$

bu yerda  $\ell_1$  - qoziq markazidan mashinaning ko'ndalang og'irlilik markazigacha bo'lgan masofa, m.

Gorizontga nisbatan mashinaning bo'ylama og'ish burchagi α ni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$\alpha = \frac{57,3 \cdot F_{qok} \cdot \ell}{(R_s - F_{qok}) \cdot H_1}, \text{ grad} \quad (2.71)$$

bu yerda  $\ell$  - qoziq markazidan mashinaning bo'ylama og'irlilik markazigacha bo'lgan masofa, m.

### 2.5.5.3. Loyqaso‘rgich snaryadi korpusining mustahkamligi.

Loyqaso‘rgich snaryadining normal ishlashi uchun uning korpusi kerakli darajada qattiq va mustahkam bo‘lishi kerak.

Loyqaso‘rgich snaryadining turli sharoitlarda ishlatilishida uning korpusiga har xil tashqi (ish jihozini va qoziqni ko‘tarib tushirish hamda korpusni burishdagi) kuchlarning ta’siri natijasida u deformatsiyalanim (asosan egilish turiga) o‘z shaklini o‘zgartirishi mumkin.

Egiluvchi deformasiyaning maksimal momentini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$M_{mak} = \frac{R_s \cdot L}{k}, \text{ N}\cdot\text{m} \quad (2.72)$$

bu yerda  $R_s$  - suvning loyqaso‘rgichga ko‘rsatadigan reaksiya kuchi, N; L - korpusning uzunligi, m; k - mashinini turli sharoitlarda ishlatish koeffitsenti ( $k = 18\dots30$ ).

Loyqaso‘rgich snaryadining korpusiga quyidagi dinamik xarakterdagи va o‘zgaruvchan kuchlar ta’sir qiladi:

a) Qoziqni qo‘parishda hosil bo‘ladigan kuch (2.43-rasm). Bu kuchning qiymati qoziqni qo‘taruvchi chig‘irning yuk ko‘taruvchanlik qobiliyatiga, chig‘irning yuklanganlik qobiliyatiga va arqon polistpastining karralari soniga bog‘liq bo‘lib, quyidagi formula orqali aniqlandi:

$$T_q = k_{qyu} \cdot n_q \cdot F_{qok}, \text{ N} \quad (2.73)$$

bu yerda  $k_{qyu}$  - chig‘irning yuklanganlik koeffitsenti ( $k_{yu} = 1,2 \dots 2,0$ );  $n_q$  – qoziqni ko‘taruvchi arqon polistpastining karralar soni;  $F_{qok}$  - qoziqning og‘irlilik kuchi, N.

b) Ish jihozini ko‘tarishdagi kuch (2.43-rasm). Bu kuchning qiymati ish jihozini qo‘taruvchi chig‘irning yuk ko‘taruvchanlik qobiliyatiga, chig‘irning yuklanganlik qobiliyatiga va ish jihozini qo‘taruvchi arqon polistpastining karralari soniga bog‘liq bo‘lib, quyidagi formula orqali aniqlanadi:


$$T_{ij} = k_{ijyu} \cdot n_{ij} \cdot F_{ij}, \text{ N} \quad (2.74)$$

bu yerda  $k_{ijyu}$  - chig‘irning yuklanganlik koeffitsenti ( $k_{ijyu} = 1,2 \dots 2,0$ );  $n_{ij}$  - qoziqni ko‘taruvchi arqon polistpastining karralar soni;  $F_{ij}$  - qoziqning og‘irlilik kuchi, N.

c) Mashinani qirg‘oqqa tomon burishdagi kuch (2.23-rasmga qarang). Bunda mashinani qirg‘oq tomonga burish uchun uning chig‘iridan foydalilaniladi. Bu kuchning qiymati mashinani buruvchi chig‘irning yuk ko‘taruvchanlik qobiliyatiga, buruvchi chig‘irning yuklanganlik qobiliyatiga va buruvchi arqon polistpastining karralari soniga bog‘liq bo‘lib, quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$T_{bu} = k_{buyu} \cdot n_{bu} \cdot F_{og'}, \text{ N} \quad (2.75)$$

bu yerda  $k_{buyu}$  – buruvchi chig‘irning yuklanganlik koeffitsenti ( $k_{buyu} = 1,2\dots2,0$ );  $n_{bu}$  – buruvchi arqon polistpastining karralar soni;  $F_{og'}$  – mashinaning og‘irlik kuchi, N.



**2.43-rasm. Loyqaso‘rgich snaryadining korpusiga ta’sir etuvchi kuchlar.**

#### *2.5.5.4. Mashina ish jihozining asosiy ko‘rsatkichlarini aniqlash.*

Loyqasuvni so‘rvuchi va chiqarib tashlovchi quvurning diametrini  $D$  quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$D = 2\sqrt{\frac{Q}{3600 \cdot \pi \cdot v}}, \text{ m} \quad (2.76)$$

bu erda  $Q$  - loyqaso‘rgich nasosining aralashmani berish miqdori,  $\text{m}^3/\text{soat}$ ;  $v$  - aralashmaning quvurdagi tezligi,  $\text{m/s}$ , ( $v = 2,5\dots3,5 \text{ m/s}$ ).

So‘rvuchi quvurning uzunligini  $\ell_{sq}$  ni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$\ell_{sq} = \frac{h + h_1}{\sin \alpha}, \text{ m} \quad (2.77)$$

bu yerda  $h$  - suv sathidan kanal tubigacha bo'lgan chuqurlik, m;  $h_1$  - suv sathidan nasos o'qigacha bo'lgan masofa, m;  $\alpha$  - vertikal o'qqa nisbatan so'ruvchi quvurning og'ish burchagi, grad, ( $\alpha = 50^0 \dots 55^0$ ), (2.44-rasm).

Frezali yumshatkichning o'lchamlari:

frezaning diametri  $D_f = (3,0 \dots 3,5)D$ , m

frezaning uzunligi  $\ell_f = 0,85D_f$ , m

frezadagi kuraklar soni  $z = 5 \dots 6$  dona


freza kuragini uzunligi  $\ell_k = (1,25 \dots 1,30)D_f$ , m

freza kuragini faol uzunligi  $\ell_{kf} = (0,9 \dots 1,0)D_f$ , m,

Kurak yordamida cho'kindini surish masofasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\ell_{sur} = \frac{v_{ar}}{z \cdot n_f}, \text{ m} \quad (2.78)$$

bu yerda  $v_{ar}$  - cho'kindini aralashtirish tezligi, m/min;  $n_f$  - frezaning aylanishlar soni, ayl/min.



**2.44-rasm. Loyqaso'rgich snaryadning ish holatidagi o'lchamlari:** 1-yumshatkich frezasi; 2-so'ruvchi quvur; 3- aralashmani so'ruvchi nasos.

Yumshatkichni aylantirishdagi qarshilik kuchini quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$F_{yu} = (k_1 + k_2) \frac{z \ell_{kf} \ell_{sur} (1 + \mu^2) \sin \alpha \sin \gamma}{2} + m_{gr} g \cdot \mu, \text{ N} \quad (2.79)$$

bu yerda  $k_1$  - qattiq gruntni solishtirma qirqish qarshiligi,  $\text{N/m}^2$ , ( $16000 \dots 20000 \text{ N/m}^2$ );  $k_2$  - yumshatilgan gruntni solish-tirma qirqish

qarshiligi, N/m<sup>2</sup>, (3000 N/m<sup>2</sup>);  $\mu$  - ishqalanish koeffitsenti, ( $\mu = 0,7$ );  $\alpha_k$  - kurakni freza o'qiga nisbatan og'ish burchagi, grad;  $\gamma$ -qirqish burchagi, grad;  $m_g$  - gruntni massasi, kg.

Gruntni yumshatishga sarflanadigan quvvat quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$N_{yu} = \frac{3F_{yu}D_f n_f}{1000 \cdot 60 \cdot \eta_f}, \text{kVt} \quad (2.80)$$

bu yerda  $D_f$  - frezaning diametri, m;  $n_f$  - frezaning aylanishlar soni, ayl/min;  $\eta_f$  - frezaning F.I.K., ( $\eta_f = 0,75 \dots 0,80$ ).

Aralashmani so'ruvchi nasosining quvvati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$N_{nas} = \frac{\gamma_{ar} Q \cdot H}{\eta}, \text{kVt} \quad (2.81)$$

bu yerda  $\gamma_{ar}$  - aralashmaning hajmiy og'irligi, kN/m<sup>3</sup>;  $Q$  - suv nasosining suv berish miqdori, m<sup>3</sup>/s;  $N$  - suvning napori, m;  $\eta$  - nasosining F.I.K., ( $\eta = 0,50 \dots 0,65$ ).

## SINOV (NAZORAT) SAVOLLARI VA TOPSHIRIQLAR

1. *Gidromexanik vositalarning qandoy turlarini bilasiz?*
2. *Gidromonitorning vazifasi, tuzilishi va uni ishlash jarayonini tushuntirib bering.*
3. *Gidromonitor turlari bo'yicha qanday sinflarga ajraladi.*
4. *Gidromonitor yordamida suvni maksimal otish masofasi qanday ko'rsatkichlarga bog'liq bo'ladi.*
5. *Gidromonitor nasosidagi suv miqdori qanday aniqlanadi.*
6. *Gidromonitorning texnik ish unumdorligini aniqlovchi formulani yozib berib, uni oshirish omillarini aytib bering.*
7. *Gidromonitor nima sababdan mustahkamlikka hisoblanadi va uni mustahkamlikka hisoblanadigan qisimlarini aytib bering.*
8. *Gidromonitor ish jarayonida turg'un bo'lishi uchun qanday shart bajarilishi kerak.*
9. *Gidroelevatorning vazifasi, tuzilishi va uni ishlatish jarayonini tushuntirib bering.*

10. *Gidroelevatorning asosiy ko‘rsatkichlari va ularni aniqlovchi formulalarni yozib bering.*
11. *Loyqaso‘rgichlar (zemlesoslar) ning vazifasi, tuzilishi va ishslash jarayonini aytib bering.*
12. *Suv va loy nasoslarining bir biridan farqini aytib bering.*
13. *Loyqaso‘rgichning ish unumдорлиги qaysi ko‘rsatkichlarga bog‘-liq bo‘ladi va uni oshirish omillarini aytib bering.*
14. *Suv-loy aralashmaning bosimi (napori) qanday ko‘rsatkichlarga bog‘liq bo‘lishini aytib bering.*
15. *Loyqaso‘rgich snaryadlari (zemsnaryadlar)ning vazifasi, tuzilishi va ishslash jarayonini aytib bering.*
16. *Cho‘kindini qabul qiluvchi (kallak) qanday moslamalarni bilsiz.*
17. *Suvosti gruntlarini yumshatuvchi ish jihozlarining turlarini aytib bering.*
18. *Loyqaso‘rgich asosidagi ejektor qanday vazifani bajaradi.*
19. *Loyqaso‘rgich snaryadini tutib turuvchi qoziqlarning konstruksiyalari va ularni ishlatish usullarini aytib bering.*
20. *Loyqaso‘rgich snaryadi suvda suzib yurishi uchun qanday shartga amal qilish kerak.*
21. *Loyqaso‘rgich snaryadining suvdagi turg‘unligini saqlash uchun qanday shartga amal qilish kerak.*
22. *Gruntni yumshatishga sarflanadigan quvvat qanday ko‘rsatkichlarga bog‘liq bo‘ladi.*


## **3-BOB. SUVOSTI GRUNTLARIGA ISHLOV BERUVCHI USKUNALAR VA ULARNING ASOSIY KO'RSATKICHLARINI ANIQLASH**

### **3.1. Suvosti gruntlarini erkin so'ravchi uskunalar.**

Suvosti gruntlari massasining ayrim qismlarini suvga aralashtirib gidroaralashma hosil qilinadi. Gidroaralashmani erkin so'rib olish va uni chiqarib tashlash loyqaso'rgich snaryadining ish jihizi va nasosi yordamida amalga oshiriladi. Bu jarayon, suv sathi va gidroaralashma-ning loyqaso'rgich nasosidan chiqishdagi bosimlarining farqi hisobiga amalga oshadi.

Demak, erkin so'rish, suvosti gruntlarini eroziyalı yuvib ko'chirish jarayonidir.

Gidroaralashmani erkin so'ravchi loyqaso'rgich snaryadining umumiy ko'rinishi 3.1-rasmda ko'rsatilgan.




**3.1-rasm. Aralashmani erkin so'ravchi loyqaso'rgich snaryadining umumiy ko'rinishi:** SS – suv sathi;  $H_{hch}$  – havzaning chuqurligi;  $H_{sscl}$  – suv sathining chuqurligi;  $H_{sb}$  – suv sathidan ishlov beriladigan joygacha bo'lgan iasofa;  $H_{ibch}$  – suv sathidan suv tubigacha bo'lgan masofa;  $h_{chq}$  – cho'kindining qalinligi.

Bunda mashinaning so'ravchi jihizi chapdpn o'ngga to-mon harakatlantirilib I qatlamga ishlov beriladi, shundan so'ng ish jihozini o'ngdan chapga harakatlantirib II qamlamga ishlov beriladi va shu tartibda jarayon davom ettiriladi.

Gidroaralashmani so‘rish nazariyasi bo‘yicha B.E.Fridman, B.E. Romanenko, P.Ya.Archipov, T.I.Yavorski, D.V. Roshupkin, A.I.Xarin kabi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari shuni ko‘rsatadiki, aralashmani so‘rish, kallakning butun kesmi bo‘yicha bo‘lmasdan uning o‘qi bo‘ylab amalga oshiriladi, qolgan qismida esa asosan toza suv so‘riladi (3.2-rasm).

Rasmdagi raqamlar gidroaralashmaning turli nuqtalaridagi so‘rilishning m/s dagi tezligini bildiradi.



**3.2-rasm. Gidroaralashmani so‘rish sxemasi:**  
a-umumiyo ko‘rinishi; b-turli nuqtaardagi tezligi.

Gidroaralashmaning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri uning so‘rilish tezligidir. Uni quyidagi formula arqali aniqlash mumkin:

$$\vartheta_{a.s} = \frac{Q}{S_{sq}}, \text{ m/s} \quad (3.1)$$

bu yerda  $Q$  - loyqaso‘rgich nasosining so‘rish miqdori,  $\text{m}^3/\text{s}$ ;  
 $S_{sq}$  - kallakning so‘ruvchi qismining ko‘ndalang qism yuzasi,  $\text{m}^2$ .

So‘rish maydonining ma’lum kattalikdagi grunt zarrachalarining meyyor darajasida ko‘chishini ta’minlovchi qismiga *faol* yoki *ishchi* so‘rish qismi deb ataladi.

A.P.Uvarov so‘rish tezligi  $\vartheta_{a.s}$  bilan grunt zarralarining ko‘chish tezligi  $\vartheta_{k.t}$  orasidaggi munosabatni quyidagicha chegaralashni tavsiya etadi:

$$\vartheta_{a.s} \geq \vartheta_{k.t} \quad (3.2)$$

D.V.Roshupkin so‘rish tezligi  $\vartheta_{a.s}$  bilan grunt zarralarining yuvish tezligi  $\vartheta_{y.u.t}$  orasidaggi munosabatni quyidagicha chegaralashni tavsiya etadi:

$$\vartheta_{a.s} \geq \vartheta_{y.u.t} \quad (3.3)$$

Bundan tashqari grunt zarralarining yuvilmaydigan tezligi  $\vartheta_{y.u.m}$  tu-shunchasi ham mavjud. Yuvilmaydigan tezlik deganda chuqurlikdagi ayrim grunt zarralari tinch holatda bo‘lib, so‘rish boshlanganda ular qo‘zg‘alib kichik masofaga ko‘chadi.

Yuvilmaydigan tezlik qiymatini nazariy aniqlash bo‘yicha D.V. Roshupkin shug‘ullanib, quyidagi formulani tavsiya etgan:

$$\frac{\vartheta_{y.u.m}^2}{g} = \frac{4}{3 \cdot k_t} \left( \frac{\rho_q}{\rho_s} - 1 \right) \cdot d_{gr} \cdot \cos \alpha + \frac{8 \cdot k_{sq}}{k_t \cdot \rho_s \cdot d_{gr}} \quad (3.4)$$


bu yerda  $k_t$  - suv bosimi tezligining koeffitsenti;  $k_{sq}$  - qatlam zarrachalarining siqilish koeffitsenti;  $d_{gr}$  - grunt zarrachasining o‘rtacha diametri;  $\rho_q$  - gruntu zarralarining zichligi;  $\rho_s$  - suvning zichligi;  $\alpha$  - so‘r-gich yuzisi teksligining gorizontga nisbatan og‘ish burchagi, grad.

D.V.Roshupkin gruntni so‘rish chuqurligi  $h$  ni aniqlash uchun quyidagi formulani tavsiya etadi (3.3-rasm):

$$h = r_{kk} \sqrt{\frac{\vartheta_{a.s}}{2 \cdot \vartheta_{y.u.t}}} , \text{ m} \quad (3.5)$$

bu yerda  $r_{kk}$  - aralashmani kallakka kirish qismining radiusi, m.

**3.3-rasm. Gidroaralashmani erkin so‘rish sxemasi.**



Aralashmani so‘rish radusi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$R_s \approx 3 \cdot b , \text{ m} \quad (3.6)$$

bu yerda  $b$  - aralashmani so‘ruvchi kallakning eni, m.

Aralashmani so‘ruvchi kallakning uzunligi  $B_s$  ni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin (3.3-rasm):

$$B_s = 2 \cdot h \cdot \operatorname{ctg}\alpha + 2 \cdot z \cdot \operatorname{ctg}\beta + b, \text{ m} \quad (3.7)$$

bu yerda  $\alpha$  - so‘rish qiyaligining dinamik burchagi (qum uchun  $\alpha = 28\ldots 30^\circ$ );  $\beta$  – suvosti gruntining tabiiy nishabligi (qum uchun  $\beta = 38\ldots 40^\circ$ );  $z$  - kallakning gruntga kirish chuqurligi, m.

Loyqaso‘rgich snaryadining ish unumdorligi  $U_{ish}$  ni ta’minlash uchun quyidagi shart bajarilishi lozim:

$$U_{ish} = k_{qu} \cdot S_{sq} \cdot \vartheta_{a.s}, \text{ m}^3/\text{s} \quad (3.8)$$

bu yerda  $k_{qu}$  - gruntni qulash koeffitsenti.


Ushbu formuladagi gidroaralashmaning so‘rilish tezligi  $\vartheta_{a.s}$  ni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$\vartheta_{a.s} = 8 \cdot \sqrt{q \cdot v}, \text{ m/s} \quad (3.9)$$

bu yerda  $q$  - gidroaralashmaning solishtirma so‘rish miqdori,  $\text{m}^3/\text{s}$ ;  $v$  – suvning kinematik yopishqoqligi,  $1/(\text{m} \cdot \text{s})$ .

So‘ruvchi kallaklar ularning ishlatalish sharoitiga qarab transheyali va gorizontal tekislikdan aylanib so‘rish turlari mavjud.

*Transheya usulida so‘ruvchi kallaklar* asosan havzalarni chuqurlashtirish va meliorasiya ishlarida ishlataladi. Odatda ularning so‘ruvchi qismi ellips shaklida bo‘ladi (3.4,*a*- rasm).



**3.4-rasm. So‘ruvchi kallaklar:** *a* – transheyali ishlov berishda;  
*b* – gorizontal tekislikda ishlov berishda.

Odatda transheyali so‘ruvchi kallaklarning aralashmani so‘ruvchi yuzasi uni so‘rish tezligi  $\vartheta_{a.s} = 1,5\ldots 2,0 \text{ m/s}$  bo‘ladigan qilib loyihalanaadi. Qalin gruntlarga ishlov berishda so‘ruvchi qisimning teshigi cho‘-

zilgan to‘rt burchak shaklida bo‘lib, uning yon tomonlari yarim aylanasimon qilib yasalgan bo‘ladi. Bunda kallak balandligi  $h_k$  ning uni uzunligi  $B_k$  nisbati oraliqda  $h_k : B_k = 1:2\dots1:5$ , uncha qalin bo‘lmagan gruntlarga ishlov berishda esa bu nisbat 1:30 oraliqda bo‘lishi kerak.

Kallak uchining pastki qismi uning ustki qismiga nisbatan  $\gamma$  burchak ostida  $\ell$  masofaga surilgan bo‘ladi.

*Gorizontal tekslikda aylanib so‘ruvchi kallaklar* asosan loyqaso‘rgich snaryadlari o‘z qozig‘i atrofida aylanib suvosti gruntlariga ishlov berishda qo‘llaniladi. Gidroaralashmani so‘ruvchi teshigi ellips yoki aylana shaklida bo‘lada bo‘lib, u pastga qaratilgan bo‘ladi (3.4, *b* – rasm).

Qalin gruntlarga ishlov berishda kallak balandligi  $h_k$  ning uni uzunli  $B_k$  gigi nisbati oraliqda  $h_k : B_k = 1:1,5\dots1:2,5$  va uncha qalin bo‘lmagan gruntlarga ishlov berishda esa bu nisbat 1:2,5…1:3,5 oraliqda bo‘lishi kerak.

### **3.1.1. So‘ruvchi kallakning asosiy ko‘rsatkichlarini aniqlash.**

Gidroaralashmani so‘ruvchi teshikning ko‘ndalang kesm yuzasi  $S_{a.s}$  ni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$S_{a.s} = \frac{U_{ish}}{g_{a.s}}, \text{ m}^2 \quad (3.10)$$

Aylana shakldagi so‘rish teshigin ing diametri  $d_s$  ni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$d_s = \sqrt{\frac{4}{\pi} \cdot S_{a.s}}, \text{ m} \quad (3.11)$$

Ellips shaklidagi so‘rish teshigining o‘lchamlari  $h_k$  va  $B_k$  quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:

ellips shaklidagi transheyali kallak uchun:

$$h_k = \sqrt{\frac{k_{sh} \cdot S_{a.s}}{k_{tr}}} \quad \text{va} \quad B_k = k_{tr} \cdot h_k \quad (3.12)$$

ellips shaklidagi aylanuvchi kallak uchun:

$$h_k = \sqrt{\frac{k_{sh} \cdot S_{a.s}}{k_{ay}}} \quad \text{va} \quad B_k = k_{ay} \cdot h_k \quad (3.13)$$

bu yerda  $k_{sh}$  - kesim shaklining koeffitsenti;  $k_{tr}$  va  $k_{ay}$  - tegishla ravishda transheyali va aylanib ishlovchi kallaklar tomonlarining o'l-chamlari nisbatining koeffitsientlari.

Gidroaralashmani so'rvuchi kallakning uzunligi  $L_k$  ni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin (3.4 -rasm):


$$L_k = \frac{B_k - d_s}{2 \cdot \operatorname{tg} \beta}, \text{ m} \quad (3.14)$$

Kallagi noksimon bo'lgan gidroaralashmani so'rvuchlar moslamaning assiy ko'rsatkichlari maxsus uslubiyat bilan aniqlanadi. Bunda so'rish teshigi aylana shaklida bo'lishi tavsiya qilinadi.

Noksimon kallakli so'rgichning vertikal kesm yuzasini quyidagi tartibda loyilanadi (3.5.-rasm):

- kallakning o'qi bo'ylab  $y$ , so'rvuchi teshik teksligi bo'ylab  $x$  o'qlari o'tkaziladi;
- K va F nuqtalardan o'tkazilgan to'g'ri chiziqni F nuqtasidan  $\beta = 8\dots 12^\circ$  burchak ostiga burib, uni  $ox$  o'qi bilan kesishish nuqtasigacha davom ettiriladi, hosil bo'lgan OA masofa kallakning tashqi radiusi  $r_{tash}$  ga teng bo'ladi;

**3.5-rasm. Noksimon kallakli so'rgichning hisob chizmasi.**



A nuqtadan ACE ichki egri chiziqni quyidagi tenglamadan foy-dalanib hosil qilinadi;

$$x = r_{tash} - 2,4 \cdot y \cdot e^{-0,3y} \quad (3.15)$$

- A nuqtadan ADB tashqi egri chiziqni quyidagi tenglamadan foydalanim hosil qilinadi;

$$x = r_{tash} + 1,7 \cdot \sqrt{y} \quad (3.16)$$

- B nuqtadan  $\alpha = 30^0$  burchak ostida M nuqtagacha to‘g‘ri chiziq o‘tkazib, kallakning tashqi shakli hosil qilinadi.

### **3.2. Suvosti gruntlariga gidravlik ishlov beruvchi uskunalar va ularning asosiy ko‘rsatkichlarini aniqlash.**

Suvosti gruntlariga gidravlik ishlov berishda asosan ularga yuqori bosim ostidagi suvni maxsus moslamalar yordamida purkab yumshatiladi va suvgrunt aralashmasi hosil qilinib so‘rib olinadi.

Suvosti gruntlarini sirtidan va chuqurlashtirib gidravlik yumshatish usullari mavjud.

Suvni bosim ostida purkab gruntni yuvish nazariyasini bo‘yicha tadqiqot ishlari bilan A.Ya.Milovich, T.N.Abromovich, I.M. Konovalov va boshqa olimlar shug‘ullangan.

I.M.Konovalov olib borgan tadqiqot ishlari natijasida suvosti gruntlarini yuvishning quyidagi ko‘rsatkichlarini tavsiya etgan (3.6-rasm):

$$\text{purkash diametri;} \quad d_p = d_o + \frac{\ell}{k_t}, \text{ m} \quad (3.17)$$

$$\text{purkash tezligi;} \quad \vartheta_p = \frac{\vartheta_o \cdot k_t \cdot d_o}{\ell + k_t \cdot d_o}, \text{ m/s} \quad (3.18)$$

$$\text{maksimal purkash masofasi;} \quad \ell_{max} = k_t \cdot d_o \left( \frac{\vartheta_e}{\vartheta_{yu}} - 1 \right), \text{ m} \quad (3.19)$$

yuviladigan gruntning qalinligi;

$$h_{yu} = d_o \left[ k_t \cdot \left( \frac{\vartheta_o}{\vartheta_{yu}} - 1 \right) \cdot \sin \alpha + \frac{\cos \alpha}{2} \cdot \left( \frac{\vartheta_o}{\vartheta_{yu}} - 1 \right) \right] - a, \text{ m} \quad (3.20)$$

yuviladigan gruntning uzunligi;

$$L_{yu} = h_{yu} [\operatorname{ctg}(\alpha + \beta) + \operatorname{ctg}\beta'], \text{ m} \quad (3.21)$$

bu yerda  $d_o$  - purkagich teshigining diametri, m;  $k_t$  - tajriba koefitsenti ( $k_t = 2,9$ );  $\ell$  - purkash masofasi;  $\vartheta_o$  - purkaladigan suvning


tezligi, m/s;  $\vartheta_{yu}$  - yuvish tezligi, m/s;  $a$  - purkagichning grunt sirtidan qo‘yilish masofasi, m;  $\alpha$  - purkagich o‘qining gorizontga nisbatan og‘ish burchagi, grad;  $\beta$  - purkashning qamrov burchagi, grad;  $\beta'$  - purkash ta’sirida hosil bo‘lgan gruntning tabiiy nishablik burchagi, grad.

Suvosti grunlarini yuvishda uning ko‘ndalang kesm yuzasini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$S_{yu} = h_{yu}^2 \cdot \operatorname{ctg}\varphi, \text{ m}^2 \quad (3.22)$$

bu yerda  $\varphi = 2\arcsin \sqrt{\frac{h_{yu} \cdot \vartheta_{yu}}{d_o \cdot \vartheta_o}}, \text{ grad}$  (3.23)

Yupqa qalinlikdagi suvosti gruntlarini gidravlik yumshatishda asosan A.S.Starikov va P.P.Puxovlar tomonidan tavsiya etilgan ish jihozlari ko‘proq qo‘llaniladi.



**3.6-rasm. Suvosti grutlarini yuvish o‘lchamlarini hisoblash sxemasi.**

A.S.Starikov tomonidan ishlab chiqilgan gidravlik yumshatgichning konstruksiyasi quyidagi qismlardan tashkil topgan (3.7,*a*-rasm): yoy shaklidagi ekran 1, suv purkagich 3, gidroaralashmani so‘rvuchi quvur 4 va taqsimlagich 2.

P.P.Puxov tomonidan ishlab chiqilgan gidravlik yumshatgichning konstruksiyasida (3.7,*b* – rasm) bosim ostidagi suvni purkash yoysi-mon shaklda bo‘ladi. Uning chekki qismlarida purkash masofasi uzun, o‘rta qismida esa qisqa bo‘ladi.

P.P.Puxov gidravlik yumshatgichning asosiy ko'rsatkichlarini aniqlashda quyidagi formulalarini taklif etadi (3.7, b – rasm):  
purkash masofasi:

$$L_i = 0,5 \cdot (1 + b_i^{1,5}), \text{ m} \quad (3.24)$$

bosm ostidagi suv quvurining diametri:


$$d_o^i = \frac{\vartheta_o}{\vartheta_{yu}} \cdot (1 + b_i^{1,5}), \text{ m} \quad (3.25)$$

purkagichlar orasidagi masofa:  $b_i = 0,5 \cdot (d_{yu}^i + d_{yu}^{i+1})$ , m (3.26)

purkash diametri:  $d_{yu}^i = k \cdot \frac{\vartheta_o}{\vartheta_{yu}} \cdot (1 + b_i^{1,5}), \text{ m}$  (3.27)

bu yerda  $k$  – to'g'irlash koeffitsenti bo'lib, uni qiymatini P.P. Puxov 0,02 ga teng deb, A.I.Xarin esa uni quyidagi formula orqali aniqlashni taklif etadi:

$$k = \frac{1}{8,24 \cdot \left(\frac{\vartheta_o}{\vartheta_{yu}} - 1\right)} \quad (3.28)$$



**3.7-rasm. Suvosti gruntlarini hidravlik yumshatuvchi ish jihozlarining konstruksiyalari.**


Ushbu formulalar yordamida hidravlik yumshatgichni hisoblash tanlash usulida amalga oshiriladi. Buning uchun oldin bosm ostidagi suv quvurining diametrining aniq qiymati (3.25) formula orqali aniqlanib, so'ngra (3.27) formula yordamida purkash teshiklarining diametri aniqlanadi.

### 3.3. Suvosti gruntlariga mexanik ishlov beruvchi uskunalar.

Suvosti gruntlari qattiq bo‘lganda ularni yumshatish ularga mexanik ishlov berish orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy loyqaso‘rgich snaryadlarining ish jihozlari bo‘lmish suvosti gruntlariga mexanik ishlov berib uni yumshatishda faol ish jihozdaridan foydalaniladi. Shunday ish jihozlaridan birining umumiy ko‘rinishi 3.8-rasmda ko‘rsatilgan bo‘lib u quyidagi asosiy qismlardan tashkil topgan: gruntni qirquvchi pichoq 1 (freza), yo‘naltiruvchi ekran 2, lisk 3, rama 4, val 5, podshipnik 6, so‘ruvchi quvur 7 va frezani ulovchi moslama 8.

**3.8-rasm. Gruntga mexanik ishlov beruvchi ish jahozi.**



Yaxshi bog‘langan va zichlangan suvosti gruntlarini mexanik usulda yumshatib uni suv bilan aralashgan holda so‘rib chiqarish hozirda keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi. Bu usulda asosan ma’lum qalanlikdagi  $h_q$  grunt frezalar yordamida tasmali qatlam  $b_q$  shaklida qirqilib suv bilan aralashgan holda so‘riladi (3.9-rasm).

Bunda loyqso‘rgich snaryadi o‘ngdan chapga tomon  $b_q$  qadam bilan yurib, I, II, III, IV va h.o. yo‘lak tasmalaridagi gruntlarga ishlov beradi. Ishlov beriladigan grunt qalanligini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya etiladi:

$$h_q = (0,9 \dots 1,2) \cdot D_f, \text{ m} \quad (3.29)$$


bu yerda  $D_f$  – frezaning diametri, m.

Cho‘kindining qalinligi  $h_{chq}$  ni aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya etiladi:

$$h_{chq} = (0,1 \dots 0,15) \cdot H_{hch}, \text{ m} \quad (3.30)$$

bu yerda  $H_{hch}$  – havzaning chuqurligi, m.

Hozirda suvosti gruntlarini mexanik yumshatuvchi ish jihozlari ichida aylanma harakatlanuvchilari samarali hisoblanadi.



**3.9-rasm. Suvosti gruntlarini loyqaso'rgich snaryadi yordamida qatlam-qatlam qilib qirqish sxemasi.**

Suvosti gruntlarini mexanik yumshatishda aosan turli shakldagi frezali (2.28-rasmga qarang), ko‘p cho‘michli bir va ikki rotorli ish jihozlaridan foydalaniladi (3.10-rasm). Bu ish jihozlari aylanma harakt qiladi. Ularga aylanma harakat mashinadagi maxsus dvigatel, reduktor va kardan val orqali uzatiladi.


Bunker 2 silindr shaklida bo‘lib, uning yuqori qismi ochiq (teshik) bo‘ladi, bu teshik cho‘michli rotor 1 yordamida qirqilgan gruntlarni qabul qiladi. Bunkerda hosil bo‘lgan suv-loy aralashmasi loyqaso'rgich snaryadining so‘ruvchi quvuri 9 orqali so‘rilib olinib havzadan tashqariga chiqarib tashlanadi. Rotorni ko‘chishiga qulaylik yaratish maqsadida uning aylanish o‘qiga perpendikulyar qilib ikkita freza 3 o‘rnatilgan. Rotor va frezalarni aylantirish zanjirli uzatmaning tishli

yulduzchasi 8 orqali amalga oshiriladi. Zanjirli uzatma himoyalovchi g'lof 6 ning ichida joylashgan bo'ladi.

Cho'michli ish jihoziga ega bo'lgan loyqaso'rgich snaryadlari-ning ish ushumdorligini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$U_{ish} = 3600 \cdot k_{gs} \cdot \delta_{gq} \cdot \ell_{qe} \cdot \vartheta_{a.s}, \text{ m}^3/\text{soat} \quad (3.31)$$

bu yerda  $k_{gs}$  - gruntni so'rish koeffitsenti;  $\delta_{gq}$  - qirqish qalinligi, m;  $\ell_{qe}$  - cho'mich pichog'ining uzunligi, m;  $\vartheta_{a.s}$  - aralashmani so'rish tezligi, m/s.



**3.10-rasm. Rotor-cho'michli gruntni yumshatuvchi ish jihozlari:** a- bir rotorli ish jihizi; b-ikki rotorli ish jihizi; 1-cho'michli rotor; 2-bunker; 3-yon frezalar; 4-val; 5-podshipnik; 6-himoyalovchi g'lof; 7-krnus tishli uzatma; 8-zanjirli uzatmaning tishli yulduzchasi; 9-so'ruvchi quvur; 10-himoya peshtaxtasi.

Gruntni so'rish koeffitsenti so'rileyotgan aralashma tarkibidagi grunt hajmini qirqilgan grunt hajmiga bo'lgan nisbati orqali topiladi.

Suvosti gruntlarini yumshatuvchi rotorcho'michli ish jihozlari-ning texnik ko'rsatkichlari 3.1-jadavalda keltirilgan.

### 3.1-jadval

#### **Gruntlarini yumshatuvchi rotor-cho'michli ish jihozlarining texnik ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	Bir rotorli	Ikki rotorli
Rotoring diametri, mm.	25000	2500
Rotoring eni, mm.	634	810
Rotordagi cho'michlar soni, dona.	6	6
Rotor valining aylanishlar soni, ayl/min.	8,3	9,9
Rotoring grunt bo'yicha konstruktiv ish unumidorligi, m <sup>3</sup> /soat.	200...400	200...400
Ish jihozining massasi, t.	13,7	14,1
Rotorni harakatga keltiruvsi dvigatelning quvvati, kVt.	40	40

#### **3.4. Suvosti gruntlariga tebranma (titratma) ishlov beruvchi uskunalar.**


Suvosti gruntlariga ishlov berib so'rishni jadallashtirish maqsadi-da bir qancha olimlar ularga tebranma (titratma) li ishlov berishni tav-siya etgan.

Toshkent irrigatsiya va meliorasiya instituti olimlari uchta I-50 rusumli tebratgich yordamida suvosti gruntlariga ishlov berish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borib yuqori natijalarga erishgan. Bunday us-kunaning umumiyo ko'rinishi 3.11-rasmda ko'rsatilgan.

Bu uskunada o'tgazilgan tajribalar ZN8/6 rusumli loyqaso'rgich snaryadi (ish unumidorligi 400 m<sup>3</sup>/soat, napor 17 m.s.u.) yordamida o'rtacha diametri 0,07 mm, hajmiy og'irligi 13,6 N/m<sup>3</sup> og'ir va engil qumoq gruntlarda olib borilgan. Tajribalar shuni ko'rsatganki ushbu uskunani qo'llash orqali mashinaning ish unumidorligi ikki marta ort-gan. Lekin uskuna konsruksiyasining noqulayligi uni keng qo'llashga imkon bermagan.

Muxandis I.S.Xoperskiy tomonidan tavsiya qilingan tebranma kallakli S-357 rusumli quvvati 0,4 kVt bo'lgan titratkich, loyqaso'rgich snaryadining ish unumidorligini 20% ga oshiradi.

Suvosti gruntlariga titratma harakat orqali ishlov berish kam o'r-ganilgan soha bo'lib, unga yuqori samara beruvchi soha sifatida qarab, kelajakda uni ilmiy asosda o'rganib, takomillashtirish talab qilinadi.



**3.11-rasm. Titratmali loyqa-so‘rgich uskunasi:** 1-so‘ruvchi quvur; 2-ko‘taruvchi arqon; 3-kabel; 4-ko-nus; 5-titratkichlar; 6-chambarak.

## SINOV (NAZORAT) SAVOLLARI VA TOPSHIRIQLAR

1. Suvosti gruntlariga ishlov berish usullarini aytib bering.
2. Qanday sharoitlarda suvosti gruntlarini erkin so‘rish usuli qo‘llaniladi?
3. Gidroaralashmani so‘rish tezligi qaysi ko‘rsatkichlarga bog‘liq bo‘ladi.
4. Loyqaso‘rgich snaryadini ish unumdorligini ta’minlash uchun qanday shart bajarilishi kerak.
5. So‘ruvchi kallakning asosiy ko‘rsatkichlari va ularni aniqlovchi formulalarni yozib bering.
6. Suvosti gruntlariga gidravlik ishlov beruvchi qanaqangi uskunalarini bilasiz va ularning asosiy ko‘rsatkichlarini aytib bering.
7. Suvosti gruntlariga mexanik ishlov beruvchi qanday ish jihozlarining turlarini bilasiz va ularnngi ish unumdorligi qanday ko‘rsatkichlarga bog‘liq bo‘ladi.
8. Suvosti gruntlariga tebranma (titratma) usulda ishlov beruvchi uskunaning tuzilishi va ishslash jarayonini aytib bering.

## **4-BOB. SUVOSTI GRUNTLARINI QIRQISHNING NAZARIY ASOSLARI**

### **4.1. Suvosti gruntlarini qirqishning geometrik ko'rsatkichlari va kinematikasi.**

Suvosti gruntlarini qirqish jarayoni va unda ishlatiladigan ish jihozlarining geometrik ko'rsatkichlari (qiriqish qalinligi va chuqurligi, qirquvchi jihozning shakli va geometrik o'lchamlari) ishlov berishning kinematikasi (burchakli, chiziqli va qirqish tezliklari) bilan mustahkam bog'langan bo'lib, bu ko'rsatkichlar qazish jarayonining samarasiga va energiya sig'imiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi.

**Gruntni qirqishda freza pichog'inining ko'chish traektoriyasi va tenglamasini keltirib chiqarish.** Gruntni qirqishda frezaning har bir pichog'i murakkab harakatda bo'lib, ular freza o'qiga nisbatan aylanma (burchakli  $\omega$  yoki vay chiziqli) va freza bilan birga chiziqli ko'chish  $\vartheta_{ch}$  tezliklarining birligida harakatidan tashkil topgan.

Freza yordamida gruntni qirqish yuqorida pastga (bunda frezaning aylanma tezligi uning chiziqli ko'chish tezligi bilan bir tomoniga yo'nalgan bo'ladi) yoki pastdan yuqoriga (bunda frezaning aylanma tezligi uning chiziqli ko'chish tezligi bilan qarama-qarshi yo'nalgan bo'ladi, 4.1-rasm) qarab amalga oshiriladi.

Agar freza yordamida gruntni qazish pstdan yuqoriga qarab amalga oshirilsa va frezadagi M nuqtaning koordinatalarini  $x$  va  $y$  o'qlari bo'yicha murakkab harakatini ma'lum T vaqtdan (I holatdan II holatga ko'chishida) keyingi ko'chishini quyidagi sistema orqali aniqlash mumkin (4.1-rasm):

$$\left. \begin{array}{l} x = \vartheta_{ch} \cdot T - R_{fr} \sin \alpha \\ y = R_{fr} \cos \alpha - r \end{array} \right\} \quad (4.1)$$

bu yerda  $R_{fr}$  – frezaning radiusi, m;  $\alpha$  – T vaqtdagi freza pichog'inining burilish burchagi, grad;  $r$  – qirqshdan hosil bo'ladigan doiraning radiusi, m. Uning qiymatini quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$r = \frac{\vartheta_{ch}}{2\pi \cdot n_{fr}}, \text{m} \quad (4.2)$$

bu yerda  $n_{fr}$  – frezaning aylanishlar soni, ayl/s.


I holatdan II holatga ko‘chishga ketgan vaqt T ni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$T = \frac{\alpha}{\omega} = \frac{\alpha}{2\pi \cdot n_{fr}}, \text{ s} \quad (4.3)$$

bu yerda  $\alpha - T$  vaqtdagi freza pichog‘ining burilish burchagi, rad.

Bu ifodasini (4.1) sistemaga qo‘yib, quyidagi sistemaga ega bolamiz:

$$\left. \begin{aligned} x &= \frac{\vartheta_{ch}}{2\pi \cdot n_{fr}} - R_{fr} \sin \alpha \\ y &= R_{fr} \cos \alpha - r \end{aligned} \right\} \quad (4.3)$$



**4.1-rasm. Freza pichog‘ining traektoriya tenglamasini keltirib chiqarish sxemasi.**

Bu ifodani parametrik ko‘rnishdagi *sikloid* tenglamasi deb ataladi.

Kinematik ko‘rsatkich koeffitsenti \$k\_k\$ quyidagi ko‘rsatkichlarning nisbati orqali aniqlanadi:

$$k_k = \frac{R_{fr}}{r} = \frac{2\pi \cdot n_{fr} \cdot R_{fr}}{\vartheta_{ch}} = \frac{\vartheta_{ay}}{\vartheta_{ch}} \quad (4.5)$$


(4.2) va (4.5) ifodalarni (4.4) ga qo‘yib, quyidagi sistemani olamiz:

$$\left. \begin{array}{l} x = r \cdot (\alpha - k_k \sin \alpha) \\ y = -r \cdot (1 - k_k \cos \alpha) \end{array} \right\} \quad (4.6)$$

Agar gruntyuqoridan pastga tomon qirqilsa (4.6) sistema quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\left. \begin{array}{l} x = r \cdot (\alpha + k_k \sin \alpha) \\ y = -r \cdot (1 - k_k \cos \alpha) \end{array} \right\} \quad (4.7)$$

Bu holatlar traektoriyasining grafik ko‘rinishi 4.2- rasmida ko‘rsatilgan.



**4.2-rasm. Freza pichog‘ining ko‘chish traektoriyasi:** *a* – pastdan yuqoriga qarab kesishda; *b* – yuqoridan pastga qarab kesishda.

Grafikdan shuni ko‘rish mumkinki, egri chiziq y o‘qiga nisbatan simmetrik bo‘lib, shartli ( $A_0, A_1, A_2$  va h.o) kesishish nuqtalarga ega, urunma chizigi  $x$  o‘qiga perpendikulyardir.

**Gruntni qirqish qalinligini aniqlash.** Ma’lumki frezada bir nechta pichoqlar joylashgan bo‘lib, ularning har biri gruntni qirqishda o‘zining traektoriyasiga ega bo‘ladi. Bunda ketma-ket kelgan ikkita pichoq orasida qirqilishi lozim bo‘lgan ma’lum qatlamlili grunt joylashgan bo‘ladi (4.3, *a*-rasmida bu qatlam shtrixlangan).

Uchburchak *a b c* dan (4.3, *b*-rasm) bitta pichoq yordamida qirqiladigan grunt qalinligi  $h$  ni quyidagi munosabat bilan aniqlash mumkin:

$$h = \ell_z \sin \alpha', \text{ m} \quad (4.8)$$

bu yerda  $\alpha'$  – sikloidning nuqtasi bilan normal orasidagi burchak, rad;  $\ell_z$  – pichoqning ko‘chishi, m.

Pichoqning ko‘chishini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$\ell_z = \frac{\vartheta_{ch}}{z \cdot n_{fr}}, \text{ m} \quad (4.9)$$


bu yerda  $z$  - frezadagi pichoqlarning soni, dona.

Sikloidning o‘rganilayotgan nuqtasi va unga o‘tgazilgan urinma orasidagi burchakni  $\beta$  deb belgilab, shu burchakning  $\operatorname{tg}\beta$  ni quyidagi formula orqali topamiz:

$$\operatorname{tg}\beta = \frac{dy}{dx} = \frac{k_k \sin \alpha}{k_k \cos \alpha \pm 1} \quad (4.10)$$

Agar  $\alpha' \approx \beta$  bo‘lsa, unda (4.8) formula quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$h = \frac{\vartheta_{ch}}{z \cdot n_{fr}} \operatorname{sinarctg} \frac{k_k \sin \alpha}{k_k \cos \alpha \pm 1}, \text{ m} \quad (4.11)$$



**4.3-rasm. Frezani shilash kinematikasi:**  $a$  – freza pichoqlarini ko‘chish traektoriyasi;  $b$  – qirqilgan grunt qirindisining kesimi;  $I...IV$  – pichoqlar raqami.

Bu tenglamada  $\alpha = 90^\circ$  bo‘lsa gruntni qirqish qalinligi maksimal qiymatga ega bo‘ladi va (4.11) formulani quyidagi qo‘rinishda yozish mumkin:


$$h_{\max} = \ell_z = \frac{\vartheta_{ch}}{z \cdot n_{fr}}, \text{ m} \quad (4.12)$$

Gruntni qirqishning o‘rtacha qalinligini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$h_{o'r} = \frac{S_q}{\ell_{yo}}, \text{ m} \quad (4.13)$$

bu yerda  $S_q$ -grunt qirqimining ko‘ndalang kesm yuzasi,  $\text{m}^2$ ;  $\ell_{yo}$  - pichoqni grunt bilan tutashish yoyining uzunligi, m.

Grunt qirqimining ko‘ndalang kesm yuzasinin aniqlash uchun 4.4-rasmdan foydalanamiz.



**4.4-rasm. Qrindining o‘rtacha qalinligini aniqlash sxemasi.**

Buni uchun rasmdan markaziy burchagi  $d\alpha$ , markaziy radiusi  $r_m$  bo‘lgan elementar yuza  $dS_q$  ni ajratamiz. Bunda  $r_m \approx R_{fr}$ ,  $dS_q \approx r_m$  va  $h = \ell_z \cdot \sin\alpha$  deb olinsa, ajratilgan elementar yuza  $dS_q$  ni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$dS_q = R_{fr} \ell_z \sin\alpha \cdot d\alpha \quad (4.14)$$

Qirindining to‘liq yuzasi quyidagicha aniqlanadi:

$$S_q = \int_0^{\alpha \approx \gamma} R_{fr} \ell_z \sin\alpha \cdot d\alpha \quad (4.15)$$

(4.15) ni integrallab quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$S_q = R_{fr} \ell_z (1 - \cos \gamma), \text{ m}^2 \quad (4.16)$$

Uchburchak  $\Delta Oab$  dan  $\cos \gamma$  ni aniqlaymiz:

$$\cos \gamma = \frac{R_{fr} - H}{R_{fr}} \quad (4.17)$$

bu yerda  $H$  – ishlov beriladigan gruntning qalinligi, m.

(4.17) ni (4.16) ga qo‘yib, quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$S_q = \ell_z \cdot H, \text{ m}^2 \quad (4.18)$$

Pichoqni grunt bilan tutashish yoyining uzunligi  $\ell_yo$  ni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$\ell_{yo} = \frac{n_{fr} \cdot \gamma}{57^03'}, \text{ m} \quad (4.19)$$


(4.18) va (4.19) ifodalarni (4.13) ifodagi qo‘yib, qirqishning o‘rtacha qalinligining yakuniy qiymatini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$h_{or} = \frac{\ell_z \cdot H}{R_{fr} \cdot \gamma} \cdot 57^03', \text{ m} \quad (4.20)$$

O‘tkazilgan tadqiqotlar va ishlab chiqarish sharoitidagi kuzatuvlar natijasi asosida ishlov beriladigan gruntning optimal qalinligi  $N_{or}$ , freza diametrining 80...120% ga teng bo‘lishi kerakligi asoslangan, ya’ni:

$$H_{op} = (0,8...1,2) \cdot D_{fr}, \text{ m} \quad (4.21)$$

**Qirquvchi pichoqning geometrik statikasi.** Qirqiladigan tekislik yuzasiga pichoqni o‘rnatishda, qiriqish burchagi  $\alpha$  va orqa burchagi  $\gamma$  larni hisobga olish kerak, shuningdek, qirqish burchagi  $\alpha = \gamma + \beta$  ga teng bo‘lishi talab qilinadi.  $\beta$ -pichoq tig‘ining o‘tkirlilik burchagi (4.5-rasm).



4.5-rasm. Qirqish burchagini aniqlovchi chizma.

Pichoq sirti bilan uning gruntni qirquvchi uchining ko‘chish traektoriyasi orasidagi burchakka ***qirqish burchagi*** deb ataladi.

Gruntning turi va guruhini hisobga olib qirqish burchagi o‘rnatiladi. Shunda uni qirqish uchun kam energiya sarflanadi. Buning uchun uni optimal qiymatini topish talab qilinadi.

Agar pichoq pona shaklida bo‘lsa (4.5-rasm), u ma’lum qatlamdagi gruntni qirqish uchun uning sirtiga normal bosm kuchi  $N$  ni qo‘yish kerak. Bu bosm kuchini ikkita tashkil etuvchiga ajratish mumkin: ular-dan biri  $N_1$  qirqish tezligi bo‘ylab va ikkinchisi  $N_2$  esa pichoq sirti bo‘ylab yo‘nalgan bo‘ladi. Bu jarayonda  $N_2$  kuch yo‘nalishiga qarama-qarshi bo‘lgan metall bilan grunt orasidagi ishqalanish kuchi  $F_{ish}$  ham sodir bo‘ladi. Bu kuchni quyidagi formuoa orqali aniqlash mumkin:

$$F_{ish} = N \cdot \operatorname{tg}\varphi, \text{ N} \quad (4.22)$$

bu yerda  $\varphi$  – gruntni tashqi ishqalanish burchak, grad; (grunt turi-ga qarib uning qiymati  $14\dots47^0$  oraliqda bo‘ladi).

Gruntni normal qirqish uchun  $N_2 > F_{ish}$  shart basharilishi kerak, bu shartni bajarilganligini 4.5-rasmida ham ko‘rish mumkin. Shartga asosan  $N$  normal va ko‘chish  $N_1$  kuchlari orasidagi burchak  $\delta$  grunting tashqi ishqalanish burchagi  $\varphi$  dan katta ( $\delta > \varphi$ ) bo‘lishi kerak. Shularga asoslanib, gruntni qirqish burchagining optimal qiymati quyidagicha aniqlash mumkin:  $\alpha_{op} < 90^0 - \varphi$   $(4.23)$

Gruntni qirqish burchagining optimal qiymatini aniqlash bo‘yicha bir qancha olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gruntni qirquvchi kuch qirqish burchagi bilan (bo‘ylama va aylanma harakatdda ham) murakkab bog‘langan (4.6-rasm).

Grafikdan shuni kuzatish mumkinki, qirqish burchagi oshishi bilan qirquvchi kuch oldiniga kamyadi, so‘ng oshadi.


Grafikdan qirqish burchagining optimal qiymati  $\alpha_{op} = 30\dots40^0$  oraliqda ekanligini ko‘rish mumkin.

Qirquvchi pichoq sirti bilan uning orqa qirrasi orasidagi burchakka tig‘ning ***o‘triklik burchagi*** deb ataladi.

Bu burchakning qirquvchi kuchga ta’sir yo‘q, uni qiymati  $\beta = 20\dots30^0$  oraliqda bo‘ladi.

Pichoqning orqa qirrasi bilan qirqish yo‘nalishi orasidagi burchakka ***orqa burchak*** deb ataladi. Bu burchak kichik bo‘lganda qir-

quvchi pichoqning pastki qirrasi qirqilgan sirtga tegib, katta ishqalanish kuchini hosil qiladi, bu esa katta miqdordagi qirqish kuchini talab qiladi. Bu burchak gruntning fizik-mexanik tarkibiga bog'liq bo'ladi, shuning uchun uni qirqishning fizik orqa burchagi deb ham ataladi. Shundan kelib chiqqan holda, bu burchakning qiymatiga katta e'tibor berish talab qilinadi.




**4.6-rasm. Gruntni qirqish kuchining qirqish burchagiga bog'liqliq grafigi:**  
 $a$  – bo'ylama harakatda (pichoqni eni  $b = 30 \text{ sm}$ , ko'chish tezligi  $v_k = 0,1 \text{ m/s}$ );  
 $b$  – aylanma harakatda (pichoqni eni  $b = 30 \text{ sm}$ , aylanish tezligi  $v_{ay} = 1,58 \text{ m/c}$ ).

Suvostida bo'lmagan quruq gruntlarni qirqishda bu burchakning qiymati  $\gamma = 5 \dots 10^\circ$  oraliqda bo'ladi. Suvosti gruntlari uchun uning qiymati hozirgacha aniqlanmagan. Bu qiymat, laboratoriya sharoitida, gruntning ikki (yopishqoq egiluvchan va mo'rt) turi bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida aniqlangan. Olib borilgan tadqiqot natijalarining grafik ko'rinishi 4.7-rasmda keltirilgan.

Yopishqoq egiluvchan gruntlarda o'tkazilgan tajribalarning ko'rsatkichlari qilib quyidagilar olindi (4.7, a-rasm): qirqish burchagi  $\alpha = 35^\circ$ , pichoqning eni  $b = 30 \text{ sm}$ , frezaning aylanish tezligi  $\vartheta_{ay} = 1,76 \text{ m/s}$ , ish jihozining chiziqli (ko'chish) tezligi  $\vartheta_k = 2,2 \text{ m/min}$ .

Mo'rt gruntlarda o'tkazilgan tajribalarning ko'rsatkichlari qilib quyidagilar olindi (4.7, b-rasm): qirqish burchagi  $\alpha = 45^\circ$ , pichoqning eni  $b = 4 \text{ sm}$ , frezaning aylanish tezligi  $\vartheta_{ay} = 0,6 \text{ m/s}$ , ish jihozining chiziqli (ko'chish) tezligi  $\vartheta_k = 1,3 \text{ m/min}$ .



**4.7-rasm. Qirquvchi kuchning orqa burchakka bog'liqlik grafigi:** *a*-yopish-qoq egiluvchan gruntu; *b* – mo'rt gruntu; 1-quruq gruntu; 2-suvosti gruntu.

Grafikdan ko'rindaniki, egiluvchan grutlar ham, mo'rt gruntlar ham umumiylar xarakterga ega bo'lib, boshida orqa burchakni kamyishi bilan qirqish kuchi kamayadi va u minimumga yetgandan so'ng, orqa burchakka bog'liq bo'lmagan holda o'zgarmasdan qoladi. Shuningdek, grafikdan orqa burchakning optimal qiymati, yopishqoq egiluvchan grutlar uchun  $\gamma = 9\ldots 11^\circ$ , mo'rt gruntlar uchun  $\gamma = 7\ldots 9^\circ$  oraliqda bo'lishini kuzatish mumkin.

Qirqish  $\alpha$  va orqa burchak  $\gamma$  larning statik qiymatlari, to'g'ridan to'g'ri frezaga o'rnatilgan pichoqning frezaning aylanish o'qiga nisbatan **og'ish burchagi**  $\theta$  ga bog'liq bo'ladi (4.8-rasm). Bunda pichoqning freza aylanish o'qiga nisbatan og'ishi, qirquvchi  $\alpha$  va  $\beta$  tig'ning o'tkirlilik burchaklarini aog; va  $\beta_{og'}$  ga o'zgarishiga olib keladi. Bu o'zgargan burchaklarning qiymatlarini 4.8-rasmdagi  $\Delta Ocd$  va  $\Delta Oab$  uchburchaklardan foydalanib topish mumkin:

$$t g \beta_{og'} = \frac{cd}{Oc} = \frac{\delta_p}{\ell_p} \cos \theta = \tan \beta \cdot \cos \theta \quad (4.24)$$


Xuddi shu usul bilan  $\alpha_{og'}$ ; va  $\beta_{og'}$  burchaklarni ham topa-miz:

$$\left. \begin{array}{l} \beta_{og'} = \arctg(\tan \beta \cdot \cos \theta) \\ \alpha_{og'} = \arctg(\tan \alpha \cdot \cos \theta) \\ \gamma_{og'} = \arctg(\tan \gamma \cdot \cos \theta) \end{array} \right\} \quad (4.25)$$

Frezali ish jihozini loyihalashda  $\theta$  burchakni optimal qiymatini topib o'rnatish katta ahamiyatga egadir.

Misol uchun qirquvchi element, unga qo'yilgan kuch  $F_q$  ta'sirida qirqish (bu kuchni tig' bo'ylab tangensial  $F_{qt}$  va tig'ga perpendikulyar

$F_{qn}$  yo‘naluvchi kuchlarga ajratish mumki) yo‘nalishining tezligi  $v_k$  bo‘ylab I holatdan II holatga ko‘chgan bo‘lsin (4.8-rasm). I chi holat bilan mos tushiuvcchi O nuqtada joylashgan gruntning  $m$  zarrasi  $F_q$  kuch ta’sirida ma’lum vaqt oralig‘ida II holatdagi  $O_1$  va  $m_1$  nuqtalarga ko‘chadi. Bundan ko‘rinadiki, qirqish  $k_{01} > k_{m1}$  va  $\theta > \phi$  shartlar bajarliganda amalga oshiriladi.



4.8-rasm. Freza pichog‘ini uning aylanish o‘qiga nisbatan o‘rnatish sxemasi.

Agar frezadagi pichoq gruntni qirqib ag‘daradigan qilib o‘rnatilgan bo‘lib, u qirqilgan gruntni majburiy ravishda so‘ruvchi quvur tomoniga yo‘naltirsa, burchak  $\theta$  ga qo‘sishimcha talablar qo‘yiladi. Buning uchun qirqilgan gruntni ag‘daribyo‘naltiruvchi pichoq sirtiga ta’sir etuvchi kuchni o‘rganib chiqamiz (4.9-rasm).

Og‘ma *silindrsimon* yuzali pichoq (4.9,*b*-rasm) sirtiga gruntning normal bosim kuchi  $N$  ta’sir etadi. Bu normal kuchni paralellogram qoidasidan foydalanib ikkita tashkil etuvchi (gruntni qirquvchi  $N_q$  hamda ko‘chiruvchi  $N_k$ ) kuchlarga ajratish mumkin.


Chizmadan foydalanib, qirqilgan gruntni ko‘chiruvchi kuch  $N_k$  ni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$N_k = N \cdot \operatorname{tg}\theta, \text{N} \quad (4.26)$$

Og'ma **konussimon** yuzali pichoq (4.9,*a*-rasm) sirtidagi gruntni ko'chiruvchi kuch  $N_k$  ni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$N_k = N \cdot \operatorname{tg}(\theta + \psi), \text{N} \quad (4.27)$$

bu yerda  $\psi$  - og'ma pichoqning konuslik burchagi, grad.



**4.9-rasm. Frezaga o'rnatilgan pichoqning frezaning aylanish o'qiga nisbatan og'ish burchagi  $\theta$  ni gruntni ko'chirishga bog'liqligini o'rnatish sxemasi.**

Gruntni qirqib ko'chirish uchun unga sarflanadigan kuch  $N_k$ , uni surishda hosil bo'ladigan ishqalanish kuchi  $F_{ish}$  dan katta bo'lishi kerak, ya'ni  $F_k > F_{ish}$  shart bajarilishi kerak.

Gruntni surishda hosil bo'ladigan ishqalanish kuchi  $F_{ish}$  ni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$F_{ish} = N \cdot \operatorname{tg}\varphi, \text{N} \quad (4.28)$$

Qo'yilgan shartga asosan:


$$\begin{aligned} \text{silindrsimon sirt uchun} \quad N \cdot \operatorname{tg}\theta &> N \cdot \operatorname{tg}\varphi \text{ yoki } \theta > \varphi \\ \text{konussimon sirt uchun} \end{aligned} \quad (4.29)$$

$$N \cdot \operatorname{tg}(\theta + \psi) > N \cdot \operatorname{tg}\varphi \text{ yoki } \theta + \psi > \varphi \quad (4.30)$$

Freza pichog'inining uning aylanish o'qiga nisbatan og'ish burchagini gruntning qirqish kuchiga ta'sirini aniqlash uchun laboratoriya sharoitida tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqot ishlarining natijalari 4.10-rasmdagi grafikda ko'rsatilgan.

Grafikdan shuni kuzatish mumkinki,  $\theta$  bursakning qiymati oshishi bilan qirquvchi kuch oldiniga oshadi keyinchalik esa bu kuch burchak


$\theta$  ga bog'liq bo'lmay qoladi. Qumoq gruntlarida  $\theta$  burchakning 30...35° oraliqdagi va gilli gruntlarda esa bu burchakning 40...45° oraliqdagi qiymatlarida qirquvchi kuchning qiymati o'zgarmaydi.



**4.10-rasm. Qirqish kuchini pichoqning og'ish burchagiga bog'liqlik grafigi:**  
a-qumoq gruntda; b-gilli gruntda; 1-yuqoridanpstga qarab ishlov berishda; 2-pstdan yuqoriga qarab ishlov berishda.

Gruntni qirqish jarayoni va uni qirquvchi kuchga pichoqning *oldingi burchagi*  $\gamma_{ol}$  ham ma'lum darajada ta'siri bo'ladi. Bu burchakni gruntning qirqish kuchiga ta'sirini aniqlash uchun laboratoriya sharoitida tadqiqot ishlari olib borilgan.

Tadqiqot ishlarining natijalari 4.11-rasmdagi grafikda ko'rsatilgan.




**4.11-rasm. Pichoqning old burchagini gruntni qirqish kuchiga bog'liklik grafigi:** 1-suvosti gruntini qirqishda; 2-quruq gruntini qirqishda.

Tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, pichoqning olida hosil qilingan burchak ham, xuddi uni orqasidagi burchagi kabi gruntni qirqish kuchi kamaytirishga sabab bo'ladi.

Grafikdan shuni kuzatish mumkinki, quruq gruntlarda old burchakning optimal qiymati  $7\dots9^0$  ni tashkil qilsa, bu ko'rsatkich suvosti gruntlarida  $9\dots11^0$  ni tashkil qiladi.

**Qirquvchi pisoqning geometrik kinematikasi.** Gruntni qirqish jarayonida frezadagi pichoq aylanma harakat qilishi bilan birga ma'lum chiziqli tezlik bilan ko'chadi ham (4.12-rasm).



4.12-rasm. Qirquvchi pichoqning geometrik kinematikasini o'rnatish sxemasi: a – qirqish jarayoni; b – tezliklarni yo'nalishi.

4.12-rasmdan shuni kuzatish mumkinki, qirquvchi pichoqdagagi burchaklar har doim ma'lum **kinematik burchak**  $\gamma_{kn}$  orqali o'zgaradi. Bu burchak, freza aylanasining nuqtasiga I-I va sikloidining nuqtasiga II-II o'tkazilgan urunmalardan hosil bo'ladi. Boshqacha aytganda, frezaning aylanish tezligi va qirqish tezligi vektorlari orasidagi burchakdir. Agar sikloid radiusi alyna radiusidan kichik bo'lsa bu burchak  $\gamma_{kn} = (\alpha - \beta)$  bo'ladi, agar katta bo'lsa  $\gamma_{kn} = (\beta - \alpha)$  bo'ladi. Umumiyl holda esa uni quyidagicha yozish mumkin:

$$\gamma_{kn} = \pm(\beta - \alpha), \text{ grad.} \quad (4.31)$$

(4.8) va (4.11) formulalardan foydalanib  $\beta$  ni qiymatini aniqlaymiz:

$$\beta = \operatorname{arctg} \left( \frac{k_k \sin \alpha}{k_k \cos \alpha \pm 1} \right), \text{ grad.} \quad (4.32)$$

buni (4.31) ga qo‘yib, quyidagi formulaga ega bo‘ladi:

$$\gamma_{kn} = \pm \left[ \arctg \left( \frac{k_k \sin \alpha}{k_k \cos \alpha \pm 1} \right) - \alpha \right], \text{ grad.} \quad (4.33)$$

Yuqoridagilarni, hamda (4.25) ifodaning qiymatlarini hisobga olib, qirquvchi pichoqdagi burchaklarni haqiqiy qiymatlarini aniqlash uchun quyidagi formulalar tavsiya etiladi:

$$\left. \begin{aligned} \alpha_h &= \alpha_{og} \mp \gamma_{kn} = \arctg(\tg \alpha \cdot \cos \theta) \pm \left[ \arctg \left( \frac{k_k \sin \alpha}{k_k \cos \alpha \mp 1} \right) - \alpha \right] \\ \gamma_h &= \gamma_{og} \mp \gamma_{kn} = \arctg(\tg \gamma \cdot \cos \theta) \pm \left[ \arctg \left( \frac{k_k \sin \alpha}{k_k \cos \alpha \mp 1} \right) - \alpha \right] \end{aligned} \right\} \quad (4.34)$$


Bu formula yordamida, grunti qirqish traektoriyasi bo‘ylab harakatlanuvchi frezaga o‘rnatilgan turli holatidagi pichoqlarning qirqish  $\alpha_h$  va orqa burchak  $\gamma_h$  larning haqiqiy qiymatini aniqlash mumkin. Yuqoridagi formula, hamda 4.13-rasmdagi grafik shuni ko‘rsatadiki, koordinata burchagi  $\alpha$  o‘zgarishi bilan, kinematik burchak  $\gamma_{kn}$ , hamda qirqish burchagini haqiqiy qiymati  $\alpha_h$  ham (ayniqsa kinematik ko‘rsatkich koeffitsenti  $k_k$  kichik bo‘lganda) o‘zgaradi. Hisoblash ishlarini soddalashtirish maqsadida, kinematik burchak  $\gamma_{kn}$  ning maksimal qiymati  $\gamma_{kn,max}$  ni (kinematik ko‘rsatkich koeffitsientining qiymatlari berilgan holda) aniqlash kerak (4.12.b-rasm). Buni uchun (4.33) formula tenglamasidan birinchi tartibli hosila olib, uni nolga tenglash kerak.

Bu fuksiya, qirqish burchagi  $\alpha = \arccos \frac{1}{k_k}$  ga teng bo‘lganda nolga teng bo‘ladi.  $\alpha$  ning bu qiymatini (4.33) formulaga qo‘yib, quyidagi tenglamaga ega bo‘lamiz:

$$\gamma_{kn,max} = \mp(90^\circ - \arccos \frac{1}{k_k}), \text{ grad.} \quad (4.35)$$

Koordinata burchagi  $\alpha$  bilan haqiqiy qirqish burchagi  $\alpha_h$  orasidagi bog‘lanish grafigi (kinematik ko‘rsatkich koeffitsenti  $k_k$  turlicha bo‘lgan qiymatlarda) 4.13-rasmda ko‘rsatilgan.

**Loyqaso‘rgich snaryadini ish jarayonida ko‘chirish usullari.** Ish jarayonida loyqaso‘rgich snaryadlari quyidagi uch usul bilan ko‘chiriladi: 1) qoziqlar va po‘lat arqonlar yordamida; 2) bosim qoziq va po‘lat arqon yordamida; 3) arqonsiz, bosim qoziq yordamida (4.14-rasm).




**4.13-rasm. Koordinata burchagi  $\alpha$  bilan haqiqiy qirqish burchagi  $\alpha_h$  orasi-dagi bog'lanish grafigi (kinematik ko'rsatkich koeffitsenti  $k_k$  turlicha bo'lган qiymatlarda): 1-pastdan yuqoriga qarab qirqishda; 2-yuqoridan pastga qarab qirqishda.**

*Loyqaso 'rgich snaryadlarini qoziqlar va po'lat arqonlar yordamida ko'chirish.* Bu jarayon quyidagicha amalga oshiriladi (4.14,*a,b*-rasm): korpusga o'rnatilgan ish jihizi korpusning o'ng tomonidagi O nuqtasiga qoqilgan qoziq atrofida aylanib (aylantirish, qirg'oqlarga qoqilgan qoziq bilan korpusdagi chig'irga ulangan po'lat arqonlar yordamida amalga oshiriladi) gruntga ishlov beradi, ish jihizi chap qirg'oqqa kelganda suv ichidagi gruntga korpusning o'ng tomonida joylashgan qoziq tushirilib qoqiladi, korpusning chap tomonidagi qoqilgan qoziq ko'tariladi.

Ish jihizi o'ng qirg'oqqa kelganda esa korpusning o'ng tomonida joylashgan qoqilgan qoziq ko'tarilib, korpusning chap tomonidagi qoziq tushirilib qoqiladi. Shunda mashina 1 nuqtadan 2 nuqtaga ko'chadi (4.14,*b*-rasm), bu nuqtara 1 orsidagi masofaga mashinaning qadami deb ataladi. Jarayonni shu tarzada takrorlab mashinani (3,4 va h.o. nuqtalarga) ko'chishi ta'minlanadi.

Agar korps o'qi bilan uni qirg'oqqa burilishdagi o'qi orasidagi burchakni  $\varphi_i$  deb belgilasak, mashinani O nuqtadagi qoziq atrofida o'ng  $\varphi_{o'n}$  va chap  $\varphi_{ch}$  tomonlarga buradiga real burchaklar hosil bo'lган (4.14,*b*-rasm).

Bu burchaklar bir biriga teng bo‘lmasada,  $\phi_i$  burchak bilan quyidagicha bog‘langan bo‘ladi:

$$\Phi_{o'n} + \Phi_{ch} = 2\phi_i \quad (4.36)$$


**4.14-rasm. Loyqaso‘rgich snaryadlarini ish jarayonida ko‘chirish sxemasi.**

Uchburchak  $\Delta ABD$  va  $\Delta AC'O$  lardan foydalanim (4.14,*a*-rasm) quyidagilarni aniqlaymiz:

$$BD = L_{qf} \cos\varphi_i; \quad C'O = BD; \quad AC' = \frac{B - b_q}{2}; \quad \operatorname{tg}\varphi_{ch} = \frac{AC'}{BD} = \frac{B - b_q}{2L_{qf} \cos\varphi_i}$$

B = 2L<sub>qf</sub> sin φ<sub>i</sub> ekanligini hisobga olib, yuqoridagi formulani quyidagicha yozish mumkin:

$$\operatorname{tg}\varphi_{ch} = \operatorname{tg}\varphi_i + \frac{b_q}{2L_{qf} \cos\varphi_i} \quad (4.37)$$

bu yerda b<sub>q</sub> – qoziqlar orasidagi masofa, m; B – gruntga ishlov berish qamrovining eni, m; L<sub>qf</sub> – freza uchi bilan qoziqlar o‘qi orasidagi masofa, m.

Mashinaning korpusi φ<sub>i</sub> burchakka burilganda freza ℓ<sub>f</sub> masofaga ko‘chadi. Bu ko‘rsatkichni ko‘chish qadami ham deb ataladi. Uni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$\ell_f = L_{qf} [\cos(2\varphi_i - \varphi_{ch}) - \cos\varphi_{ch}], \text{ m} \quad (4.38)$$

Mashina normal ishlashi uchun frezaning qadami uning uzunligidan oshmasligi, hamda u mashinaning ko‘chish qadamiga teng bo‘lishi kerak.

Bu usulda gruntga ishlov berishda qirqish eni (bu ko‘rsatkich odatda freza uzunligiga teng bo‘ladi) bir xil bo‘lsada, mashinani ko‘chirishda (4.14,*b*-rasm), bo‘shliqlar qolib ketishi (chizmada paralell chiziqlar bo‘limgan joylar) hamda bir joyning o‘zida kayta qirqishlar (chizmada paralell chiziqlarni kesishgan joylari) yuz beradi. Bunday ishlashda frezaga tushadigan yuklama bir chil bo‘lmasdan, qolib ketgan bo‘sh joylar hisobiga mashinaning ish unumdorligini kamayishiga olib keladi.

*Loyqaso‘rgich snaryadlarini bosim qoziq va po‘lat arqon yordamida ko‘chirish.* Mashina korpusining orqa qismi o‘rtasida ishchi bosim qoziq 4 ni harakatlanishi uchun maxsus joy bo‘lib, qoziq maxsus mexanizm yordamida harakatlantiriladi (4.14,*c*-rasm). Korpus ishchi bosim qoziq atrofida aylanadi, aylanish qirg‘oqlarga qoqilgan qoziq bilan korpusdagi chig‘irga ulangan po‘lat arqonlar yordamida amalga oshiriladi. Mashina ishlash jarayonida bosim qozig‘i korpusning oxirgi qismida qoqilgan holtda bo‘lib, korpusni tutib turuvchi qoziq 5 ko‘tarilgan holatda bo‘ladi. Mashinani ko‘chirish jarayoni quyidagicha olib boriladi: korpusni tutib turuvchi qoziq pastga tushirilib suvosti gruntiga qoqiladi, bosim qazig‘i ko‘tarilib, maxsus moslama yordamida oldinga qarab ℓ<sub>f</sub> masofaga suriladi va yana pastga tushirilib, suvosti

gruntga qoqilgandan so‘ng, korpusni tutib turuvchi qoziq ko‘tariladi. Bu jarayon qaytarilib (chizmada 1,2,3 holatlar), mashinani davriy ko‘chirilishi ta’minlanadi. Bu usulda qirqish qatlaming eni bir biri bilan ketma-ket tekst joylashgan bo‘ladi.

*Loyqaso‘rgich snaryadlarini bosim qozig‘i yordamida arqonsiz ko‘chirish.* Bu usulda mashina korpusi uning ko‘chish yo‘nalishiga paralel holda aylanmasdan, gruntga ishlov beruvchi ish jihozini korpusning o‘qiga nisbatan taxsus mexanizm yordamida qirg‘oq tomon bуriladi. Bu usulda po‘lat arqonlardan foydalanilmaydi. Mashinani ko‘chirish jarayoni quyidagicha olib boriladi (4.14,*d*-rasm): korpus oldida joylashgan uni tutib turuvchi qoziq 5 lar pastga tushiriladi va suvosti gruntiga qoqiladi, bosim qazig‘i 4 ko‘tarilib, maxsus moslama yordamida oldinga qarab  $\ell_f$  masofaga suriladi va yana pastga tushirilib, suvosti gruntga qoqilgandan so‘ng, korpusni tutib turuvchi qoziq ko‘tariladi. Bu jarayon qaytarilib (chizmada 1,2,3 holatlar), mashinani davriy ko‘chirilishi ta’minlanadi.

### Ish jihozini aylani, gruntni qirqish va mashinani ko‘chirish tezliklarini aniqlash.

*Qirqish tezligi* suvosti gruntlariga ishlov berish jarayonining asosiy kinematik ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, murakkab haraktlanuvchi ish jihozini ko‘chish tezligini aniqlashda yordam beradi. Qirqish bur-chagini vektori  $\vec{\vartheta}_q$ , frezaning aylanish  $\vec{\vartheta}_{ay}$  va ko‘chish  $\vec{\vartheta}_k$  vektorlarning qiyindisiga teng bo‘ladi (4.12,*b*-rasmga qarang). Uning haqiqiy qiymati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\vartheta_q = \sqrt{\vec{\vartheta}_{ay}^2 + \vec{\vartheta}_k^2 \pm 2 \cdot |\vec{\vartheta}_{ay}| \cdot |\vec{\vartheta}_k| \cdot \cos\alpha}, \text{ m/s} \quad (4.39)$$

Formuladagi (+) ishorasi qirqish pastdan yuqoriga, (-) ishora esa qirqish yuqoridan pastga qarab yo‘nalganda olinadi.

Agar  $\alpha = 90^\circ$  bo‘lsa (4.39) formula quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\vartheta_q = \sqrt{\vec{\vartheta}_{ay}^2 + \vec{\vartheta}_k^2}, \text{ m/s} \quad (4.40)$$

Bunda qirindini qirqish qalinligi maksimal bo‘ladi.

Agar  $\alpha = 0^\circ$  va  $\alpha = 180^\circ$  bo‘lsa (4.39) formula quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\vartheta_q = \vartheta_{ay} \pm \vartheta_k, \text{ m/s} \quad (4.41)$$


*Frezaning aylanish tezligini* quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$\vartheta_{ay} = \frac{\pi \cdot D_{fr} \cdot n_{fr}}{60}, \text{ m/s} \quad (4.42)$$

bu yerda  $D_{fr}$  – frezaning diametri, m;  $n_{fr}$  – frezaning aylanish tezligi, ayl/min.

**Mashinaning ko‘chish tezligi.** Bu tezlikni aniqlash uchun, ko‘chishning bosim qoziq va po‘lat arqon yordamida (4.14,c-rasmga qarang) amalga oshirilishini ko‘rib chiqamiz. Buning uchun hisob chizmasini chizib, unda barcha ko‘rsatkichlarni ifodalaymiz (4.15-rasm).

$$\vartheta_k = \frac{r_{fr}}{r_b} \cdot \vartheta_b, \text{ m/s} \quad (4.44)$$



4.15-rasm. Mashinaning kzchish tezligini aniqlash sxemasi.

Qirg‘oqning M nuqtasiga qoqilgan qoziqqa po‘lat arqonning bir uchi bog‘lanib, uning ikkinchi uchi chig‘irga bog‘lanadi. Mashinani qirg‘oq tomonga burish, unga o‘rnatilgan chig‘irni harakatga keltirish orqali amalga oshiriladi.

$\Delta Bab$  dan foydalanib, arqon bulokining ko‘chish tezligi  $\vartheta_b$  ni aniqlaymiz:

$$\vartheta_b = \frac{\vartheta_b'}{\cos \gamma}, \text{ m/s} \quad (4.43)$$

bu yerda  $\vartheta_b'$  - arqonning gorizontal tekislikdagi proeksiyasini tezligi, m/s;  $\gamma$  – arqon yo‘nalishining gorizontal tekislik bilan tashkil qilgan burchagi, grad.

$\Delta Oa$  va  $\Delta Ob$  larning o‘xshashlidan foydalananib, mashinaning ko‘chish tezligi  $\vartheta_k$  ni quyidagi formula orqali aniqlaymiz:

Bu formulaga (4.43) ni qiymatin qo‘yib, quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$\vartheta_k = \frac{r_{fr}}{r_b} \cdot \frac{\vartheta_b'}{\cos \gamma}, \text{ m/s} \quad (4.45)$$

Agar arqonning vertikal o‘q bilan tashkil qilgan burchagi  $\beta$  ni (4.15,b-rasm) ham hisobga olsak, mashinaning yakuniy ko‘chish tezligini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$\vartheta_k = \frac{r_{fr}}{r_b} \cdot \frac{\vartheta_{ar}}{\cos \gamma \cdot \cos \beta}, \text{ m/s} \quad (4.46)$$

bu yerda  $r_{fr}$  va  $r_b$  - tegishli ravishda freza va arqon bloklari og‘irlik markazlarining ko‘chish traektoriyalarining radiuslari, m;  $\vartheta_{ar}$  - arqon tezligi, m/s.

## 4.2. Gruntni qirqishda uni deformasiyalanish jarayoniga qo‘yiladigan ayrim mexanik savollar.

**Gruntni siljish qarshiligi.** Materiallar qarshiligi hamda gruntlar mexanikasi fanlaridan ma’lumki, barcha asosiy materiallar, shu jumladan gruntlar va jog‘ jinslari ham, ularga qo‘yilgan yuklamaning turidan qatiynazar deformasiyaning siljish turiga asosan buziladi (maydalaniadi).

Bog‘lanmagan gruntlarda (qum, qumloq va mayda shag‘al) ularning siljish maydonidagi urunma zo‘riqish (kuchlanish) chegarasi (siljish qarshiligi)  $\tau_{ch}$  va normal zo‘riqish  $\sigma$  orasidagi bog‘lanish, grunt zarrachalarni bog‘lovchi kuchning yo‘qligi tufayli, koordinata boshidan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziqdan iborat bo‘ladi va bu tenglama quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\tau_{ch} = \sigma \cdot \operatorname{tg} \rho, \text{ Pa} \quad (4.47)$$

bu yerda  $\rho$  - to‘g‘ri chiziqning normal zo‘riqish  $\sigma$  o‘qiga nisbatan og‘ish burchagi, grad.

Bog‘lanmagan (tarqoq) gruntlarni siljishiga, faqat grunt zarracha-larning bir biriga ishqalanishi qarshilik ko‘rsatadi, shuning uchun ham burchak  $\rho$  ***ichki ishqalanish burchagi*** degan nom olgan. Grunt turi va namligiga qarab uning qiymati  $15\dots40^0$  oraliqda bo‘ladi.

Tarqoq gruntlarda ichki ishqalanish burchagi ularning tabiiy qiya-lik burchagiga teng bo‘ladi.

Bog‘langan gruntlarda (qumoq, gilli), ularning zarrachalari orasi-da ilashish kuchining borligi, siljish qarshiligi  $\tau$  normal zo‘riqish  $\sigma$  ga egri chiziq orqali bog‘langan. Ammo amalda uni to‘g‘ri chiziq bilan almashtiriladi va uning qiymatini aniqlash uchun quyidagi formula tavsija etiladi:

$$\tau_{ch} = c + \sigma \cdot \operatorname{tg}\rho, \text{ Pa} \quad (4.48)$$

bu yerda  $c$  – gruntning ilashishi, Pa, gruntning konsruksiyasi va turiga qarab uning qiymati  $0\dots1\cdot10^5$  Pa oralig‘ida bo‘ladi.

***Gruntni tashqi ishqalanish kuchi.*** Gruntning bu ko‘rsatkichi, unga ishlov berishda katta ahamiyatga ega.

Bog‘lanmagan gruntlar uchun uning qiymati Amontov formulasidan foydalanib aniqlanadi:

$$F_{ich} = f \cdot N = N \cdot \operatorname{tg}\phi, \text{ N} \quad (4.49)$$

bu yerda  $f = \operatorname{tg}\phi$  - gruntning tashqi ishqalanish koeffitsenti;  $\phi$  - gruntni tashqi ishqalanish burchagi, grad. (uning qiymati grunt turi va namligiga qarab  $14\dots47^0$  oraliqda bo‘ladi);  $N$  - normal bosim kuchi, N.

Bog‘langan gruntlar uchun uning qiymati Kulon formulasidan foydalanib aniqlanadi:

$$F_{ich} = f \cdot N + k_{is}, \text{ N} \quad (4.50)$$

bu yerda  $k_{is}$  - ilashish sirtini hisobga oluvchi ko‘rsatkich.


Bog‘langan gruntlarni, ayrim sharoitlarda ishchi yuzaga birlashib qolish holatlariga ***gruntlarni yopishqoqligi*** deb ataladi. Grunlarni bunday xususiyatini V.V.Oxotin ularning yopishqoqlik koeffitsenti  $K_{yo}$  deb atab, uni quyidagi formula yordamida aniqlashni tavchiya etgan:

$$K_{yo} = \frac{F}{S}, \text{ Pa} \quad (4.51)$$

bu yerda F-sirtga qo‘yilgan kuch, N; S-kuch qo‘yilgan yuza,  $\text{m}^2$ .

**Gruntni qirqishda deformasiya turini baholash.** Gruntga ishlov berishda asosan deformamasiyaning qo'parish (4.16, *a*-rasm) va siljish (4.16, *b*-rasm) turlari mavjud bo'ladi.

Agar natijaviy kuch  $F_{na}$  qirqiladigan yuzadan yuqoriga yo'nalgan bo'lsa, deformasiyaning ***qo'parish*** turi ko'proq ta'sir qiladi, agar  $F_{na}$  kuch pastga yo'nalgan bo'lsa, deformatsiyaning ***siljish*** turi ko'proq ta'sir qiladi.



**4.16-rasm. Gruntni deformasiyalanish mezonining tenglamasini keltirib chiqarish sxemasi.**

Gruntni qirqib qo'parishdagi normal zo'riqishni aniqlash uchun (4.16,*a* - rasm), *a* nuqtaga nisbatan momentlar tenglamasini tuzamiz:

$$\frac{F_{na} \cdot h}{\sin \psi_{qo'}} - \frac{\sigma \cdot S}{2 \sin \psi_{qo'}} = 0 \quad (4.52)$$

Bu tenglamadan normal zo'riqish  $\sigma$  ni topamiz:

$$\sigma = \frac{F_{na} h}{S}, \text{ Pa} \quad (4.53)$$

Gruntni qirqib siljitishdagi urunma zo'riqishni aniqlash uchun, barcha kuchlarning *Oc* tekislikdagi proeksiyalar yig'indisini nolga tenglaymiz (4.16, *b* –rasm):

$$F_q \cos\delta - \tau \cdot S - F_{na} \operatorname{tg}\rho = 0 \quad (4.54)$$

Bu tenglamadan urunma zo'riqish  $\tau$  ni topamiz:

$$\tau = \frac{F_q \cos\delta - F_{na} \operatorname{tg}\rho}{S} = \frac{F_q \cos\delta \cdot \cos\rho - F_{na} \sin\rho}{S \cdot \cos\rho}, \text{ Pa} \quad (4.55)$$

4.16-rasmdan foydalanib quyidagilarni aniqlaymiz:

$$F_q = \frac{N}{\cos\varphi}; \quad F_{na} = F_{na} \sin\delta = \frac{N}{\cos\varphi} \sin\delta; \quad S = \frac{bh}{\sin\psi}; \quad \delta = 90^\circ - (\alpha + \varphi + \psi)$$

bu yerda  $\psi$  – deformasiyalananadigan yuzaning qiyalik burchagi, grad.;  $b$  va  $h$  – tegishli ravishda qirindining eni va qalinligi, m.

Yuqorida aniqlangan qiymatlarni (4.54) va (4.55) tenglamalarga qo'yib, soddalashtirilgandan so'ng, zo'riqishning quyidagi normal  $\sigma$  va urunma  $\tau$  tenglamalarini hosid qilamiz:

$$\sigma = \frac{N \cdot \cos(\alpha + \varphi + \psi_{qo}) \cdot \sin\psi_{qo}}{b \cdot h \cdot \cos\varphi}, \text{ Pa} \quad (4.56)$$

$$\tau = \frac{N \cdot \sin(\alpha + \varphi + \rho + \psi_{sil}) \cdot \sin\psi_{sil}}{b \cdot h \cdot \cos\varphi \cdot \cos\rho}, \text{ Pa} \quad (4.57)$$

bu yerda  $\psi_{qo}$  va  $\psi_{sil}$  – tegishli ravishda qo'parish va siljishdag'i deformasiyalananadigan yuzalarning qiyalik burchaklari, grad.

Agar  $\psi_{qo} = 45^\circ - \frac{\alpha + \varphi}{2}$ ,  $\psi_{sil} = 90^\circ - \frac{\alpha + \varphi + \rho}{2}$  bo'lsa, bu qiyamatlarni (4.46) va (4.57) tenglamalarga qo'yib, qirqiladigan yuzadagi maksimal zo'riqishlarni hisoblash uchun quyidagi formulalarni hosil qilamiz:

$$\sigma_{max} = \frac{N \cdot [1 - \sin(\alpha + \varphi)]}{b \cdot h \cdot \cos\varphi}, \text{ Pa} \quad (4.58)$$

$$\tau_{max} = \frac{N \cdot [1 + \cos(\alpha + \varphi + \rho)]}{b \cdot h \cdot \cos\varphi \cdot \cos\rho}, \text{ Pa} \quad (4.59)$$

Bu tenglamalar faqat gruntni oddiy usulda qirqib, ko'chiruvchi (chiziqli yoki aylanma harakat qiluvchi) uskunalar uchun o'rinni bo'ladi. Gruntni murakkab usulda qirqib ko'chiruvchi (masalan, loyqaso'r-gich snaryadlarining frezalari) uskunalar uchun, bu tenglamaga qirquvchi pichoqning ko'chishi va uning qirqish tezligi vektoriga nisbatan qiyaligi kabi kinematik ko'rsatkich K larni kiritish kerak bo'ladi. Buni uchun qirqish burchagi  $\alpha$  ni uning haqiqiy burchagi  $\alpha_h$  bilan al-

mashtirish kerak. Shunda narmal  $K_\sigma$  va urunma  $K_\tau$  zo‘riqishlarning kinematik ko‘rsatkichilarini quyidagi formulalar yordamida aniqlash mumkin:

$$K_\sigma = \sigma_{\max} = \frac{N \cdot [1 - \sin(\alpha_h + \varphi)]}{b \cdot h \cdot \cos \varphi}, \text{ Pa} \quad (4.60)$$

$$K_\tau = \tau_{\max} = \frac{N \cdot [1 + \cos(\alpha_h + \varphi + \rho)]}{b \cdot h \cdot \cos \varphi \cdot \cos \rho}, \text{ Pa} \quad (4.61)$$

Bu formulalarning bir biriga bo‘lgan nisbatiga, ***mezon tenglamasi*** deb ataladi va u qo‘parish deformasiyasidan siljish deformasiyasiga o‘tish chegarasini aniqlaydi. Uni quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{K_\sigma}{K_\tau} = 2 \frac{1 - \sin(\alpha_h + \varphi)}{1 + \cos(\alpha_h + \varphi + \rho)} \cdot \cos \rho \quad (4.62)$$


Bu tenglamani quyidagi fungsiya ko‘rinishda yozish mumkin:

$$f(\alpha_h + \varphi) = \frac{K_\sigma}{K_\tau} \quad (4.63)$$

Bu fungsianing grafigi 4.17-rasmida ko‘rsatilgan.

Bunda gruntning gil ( $\varphi = 30\dots40^\circ$ ,  $\rho = 22^\circ$ ) va qum ( $\varphi = 16\dots35^\circ$ ,  $\rho = 30^\circ$ ) turlari bo‘yicha tajribalar olib borilgan. Grafikning pastida  $\alpha + \varphi$  burchakning qiymatlari berilgan. Grafikdan quyidagi tartibda foydalilaniladi. O‘rganilayotgan gruntu turi bo‘yicha uning  $K_\sigma/K_\tau$  ko‘rsatkichi aniqlanadi va grafikdan (strelka bo‘ylab)  $\alpha_h + \varphi$  va  $\alpha + \varphi$  larning qiymatlari aniqlanadi.  $\alpha + \varphi$  ning qiymati,  $\alpha_{qo} + \varphi$  burchak qiymati bilan taqqoslanadi. Agar  $\alpha_{qo} + \varphi > \alpha + \varphi$  bo‘lsa, gruntuning buzilishi, deformasiyaning siljish turi, agar  $\alpha_{qo} + \varphi < \alpha + \varphi$  bo‘lsa deformasiyaning qo‘parish turi afzallikka ega bo‘ladi.

Grafikdan, gilli gruntlar uchun  $K_\sigma/K_\tau = 0,4\dots0,6$  qiymatida  $\alpha + \varphi = 44\dots59^\circ$  oraliqda ekanligini ko‘rish mumkin. Qo‘parish burchagini haqiqiy qiymati  $\alpha_{qo} = 30\dots45^\circ$ , gilli gruntlarda  $\varphi = 30\dots40^\circ$  bo‘lgani uchun  $\alpha_{qo} + \varphi = 60\dots85^\circ$  ni tashkil qiladi, bu esa hisob qiymatidan katta, demak bunda deformasiyaning siljish turi afzallikka ega bo‘ladi.



4.17-rasm. Gruntni qirqishdagi deformatsiyasining mezon grafigi.


**Gruntni deformasiyalanish jarayoni ko'rsatkichlariga qirqish tezligining ta'siri.** Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida, gruntning deformasiyalanish tezligi  $\vartheta_d$  bilan qirqish tezligi  $\vartheta_q$  orasida quyidagi munosabat borligi aniqlangan (4.18-rasm):

$$\vartheta_d = \frac{\vartheta_q \cdot \sin \alpha}{\sin(\alpha + \psi)}, \text{ m/s} \quad (4.64)$$


Suvosti gruntlarini qirqishda, qirqish tezligining qirqish kuchiga bog'liqligini boholash bo'yicha laboratoriya sharoitida tadqiqot ishlari olib borilgan.

Tadqiqot ishlari qumoq gruntlarda (qirqish burchagi  $35^0$ , qirqish qalinligi 6 sm) frezaning (pichoqning eni 30 sm) bo'ylama harakatida (4.19,*a*-rasm) hamda (qirqish burchagi  $45^0$ , qirqish qalinligi 2 sm va pichoqning siljishi 10 sm) frezaning (pichoqning eni 30 sm) aylanma

harakatida (4.19,*b*-rasm) o'tkazilgan. Uning natijalari 4.19-rasmda keltirilgan.



**4.18-rasm. Gruntni qirqishda deformasiyalanish tezligini aniqlash sxemasi.**



**4.19-rasm. Gruntni qirqish kuchining qirqish tezligiga bog'liqlik grafigi:** 1-suvostida ishlov berilganda; 2-suvsiz joyda ishlov berilganda.

Grafikdan shuni xulosa qilish mumkinki, suvosti va suvusti sharoitidagi gruntlarni qirqishda, qirqish tezligi qirquvchi kuchga bog'liq bo'lar ekan. Suvosti sharoitidagi muhit zichligi va yopishqoqligining yuqoriligi hisobiga gruntni qirqish kuchi suvosti sharoitiga nisbatan intinsiv ravishda ko'proq talab qilinishini kuzatish mumkin. Bu esa gruntni qirquvchi ish jihozini hisoblashda uni qirqish tezligini (gidrodinamik va inersiya) hisobga olishni taqazo etadi.


**Gruntni zichlangan yadrosi, uni hosil bo'lishi va uning ko'rsatkichlarini hisoblash.** Turli materiallar (metall, grunt va h.o.) ni turli ish jihozlari yordamida deformasiyalanish jarayonini kuzatish natijalari shuni ko'rsatadiki, gruntni qirquvchi pichoq oldida shunday qatlam hosil bo'ladiki, uning ma'lum qismi muvozanat holatda pichoq bilan birgalikda ko'chadi. Bu qatlam, turg'un qatlam deb ataladi.

Turg'un qatlamni hosil blish qonuniyati asosan metallarga ishlov berishda Ya.G.Usachev, I.M.Besprozvan, A.N.Eremin, A.I.Kashirin, M.I.Klushin va V.D.Kuznesovlar tomonidan ko'proq o'rganilgan. Bunda turg'un qatlam metallni qirqishda hosil bo'ladigan yuqori harorat natijasida uning bir qismi qirqgich uchiga payvandlanib qolish hisobiga hosil bo'ladi.

Gruntni qirqishda hosil bo'ladigan turg'un qatlam metallnikiga nisbatan boshqacharoq bo'ladi. Hozirda gruntlar uchun turg'un qatlamini hosil bo'lish qonuniyati gruntni shtaplash va unga qirquvchi pichoqni bosim kuchi ta'siri orqali ko'proq o'rganilgan.

Kuzatishlar va tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, turg'un qatlam bir xil shakilda hosil bo'lmayda va u ikki qismdan tashkil topgan. Ulardan biri ichki "qayishqoq" (qo'zg'almas) qism, odatda uni ***zichlangan yadro*** deb yuritiladi, bu qatlam deformator (pichoq) bilan mustahkam bog'langanbo'lib, u pichoq bilan bирgalikda ko'chadi. Ikkinchisi tashqi "qayishqoq bo'limgan" (qo'zg'aluvchan).

Pona shaklidagi pichoq oldidagi zichlangan yadroga, pichoq sirti bo'ylab ishqalanish kuchi  $F_{ish}$ , qirqish kuchining normal  $R_n$  va urunma  $R_{ur}$  reaksiya kuchlari ta'sir qiladi (4.20-rasm).



**4.20-rasm. Zichlangan yadroga ta'sir etuvchi kuchlar sxemasi.**

Zichlangan yadroni hosil qilish va uni tutib turish shartini aniqlovchi tenglamani quyidagicha yozish mumkin:

$$\left. \begin{aligned} F_{ish} &= N \cdot \operatorname{tg}\varphi \geq R_{ur} \cos\alpha + R_n \sin\alpha \\ (R_{ur} \cos\alpha - R_n \sin\alpha) \cdot \operatorname{tg}\varphi &\geq R_{ur} \cos\alpha + R_n \sin\alpha \end{aligned} \right\} \quad (4.65)$$

Bu tenglamani soddalashtirib, quyidagi tenglamaga ega bo'lamiz:

$$\left. \begin{array}{l} R_{ur} \cos(\alpha + \varphi) \geq R_n \sin(\alpha + \varphi) \\ \cos(\alpha + \varphi) \cdot [R_{ur} + R_n \operatorname{tg}(\alpha + \varphi)] \leq 0 \end{array} \right\} \quad (4.66)$$

Bu tenglamaning kvadrat kavs ichidagi ifoda nolga va undan kichik bo'lmashligi kerak, shunda:

$$\cos(\alpha + \varphi) \leq 0 \text{ yoki } \beta + \varphi \geq 90^\circ \quad (4.67)$$

Natijada, zichlangan yadroni hosil qilish va uni tutib turish imkoniyatining sharti quyidagicha bo'ladi:  $\alpha \geq 90^\circ - \varphi$  (4.68)

Misol uchun gilli gruntlarda tashqi ishqalanish burchagi  $\varphi$  ning o'rtacha qiymati  $35^\circ$ , qumli gruntlarda esa bu ko'rsatkich  $20^\circ$  ligini hisobga olsak, dastlabki zichlangan yadroni hosil bo'lishi, gilli gruntlar uchun qirqish burchagi  $55^\circ$ , qumli gruntlar uchun esa  $70^\circ$  ga teng bo'lishini aniqlash mumkin.


Agar freza pichoqlarining haqiqiy qirqish burchagi  $35 \dots 45^\circ$  oraliqda bo'lishini hisobga olsak, amaliy jihatdan pichoqning oldida zichlangan yadroni hosil bo'lishi kuzatilmaydi.

Pichoqning o'tmas qismida zichlangan yadroni shartli hosil bo'lishi. M.X.Pigulevskiy, A.D.Dalin, A.N.Zeleninlar, hamda Yu.A. Vetrovning ranglangan pichoq bilan o'tkazilgan tajribalari asosida olib borilgin tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zichlangan yadroning hosil bo'lishi asosan pichoqning o'tmas qismida (uning marqaziy burchagi  $\beta_0 = 60 \dots 100^\circ$  oraliqda) hosil bo'lar ekan.

Maxsus gilli grunt (gilli fraksiyasi  $63 \dots 65\%$ , changli fraksiyasi  $35 \dots 37\%$ , ichki ishqalanish burchagi  $\rho = 12^\circ$ , egiluvchanligi 19) da, gruntni qirquvchi jahozi (pichoqning eni  $b = 10$  sm o'tmas radiusi  $r_{o'} = 2$  sm, qirqish burchagi  $\alpha = 45^\circ$ , qirqish qalinligi  $h = 2$  sm) bilan o'tkazilgan laboratorya ishlarining natijalari shuni ko'rsatdiki, pichoqning uchidagi burchagi  $\beta_u = 77^\circ$  va markaziy burchagi  $80^\circ$  bo'lgan konus shaklida zichlangan yadro hosil bo'ladi (4.21-rasm).


I.I.Mixeev tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, zichlangan yadro uchi markaziy o'qda joylashmasdan, undan pastda  $\beta = 15 \dots 18^\circ$  burchak ostida joylashgan bo'ladi.

Pichoqning o'tmas sirtida zichlangan yadroni hosil bo'lish sharti va qonuniyatini ko'rib chiqish uchun 4.22 va 4.23-rasmlarga murojat qilamiz.



**4.21-rasm. Pichoqning o'tmas qismida zichlangan yadroni hosil bo'lish sxemasi.**

Zichlangan yadroni pichoqning o'tmas sirtda hosil bo'lish holatini ko'rib chiqamiz. Gruntni pichoq yordamida qirqishda uning o'tmas sirti bo'ylab uchta holatni kuzatish mumkin (4.22-rasm).



**4.22-rasm. Zichlangan yadroni pichoqning o'tmas sirtda hosil bo'lish holati.**

**Birinchi holatda** gruntning bir qismi o‘tmas sirtning OB o‘qidan yuqoridagi 1 nuqtada joylashgan bo‘ladi. Bunda qirqish burchagi  $\alpha$  gruntni yopishqoqligini hisobga olgan holdagi tashqi ishqalanish burchagi  $\varphi^*$  dan katta bo‘ladi. Bu holatda grunt zarralariga normal F va ishqalanish kuch  $F_{ish}$  lari ta’sir qilib, ularning teng ta’sir etuvchisi R ga teng bo‘ladi. Teng ta’sir etuvchi kuchni, qirqish yo‘nalishining tezligi bo‘ylab gorizontal  $R_g$  hamda unga perpendikulyar bo‘lgan vertikal  $R_v$  kuchlarga ajratish mumkin. Bu kuchlar ta’sirida grunt zarralari, qirqish yo‘nalishining tezligi bo‘ylab hamda yuqoriga ko‘chadi.

**Ikkinchi holatda** gruntning bir qismi o‘tmas sirtning OB o‘qidan yuqoridagi 2 nuqtada joylashgan bo‘ladi. Bunda qirqish burchagi  $\alpha$  gruntni yopishqoqligini hisobga olgan holdagi tashqi ishqalanish burchagi  $\varphi^*$  dan kichik bo‘ladi. Bu holatda teng ta’sir etuvchi kuch R ning vertikal tashkil etuvchisi  $R_v$  pastga yo‘nalgan bo‘lib, u grunt zarralarini pastga, ya’ni zichlanish o‘qi tomonga yo‘naltiradi.

**Uchinchi holatda** gruntning bir qismi A nuqtada (unga simmitrik bo‘lgan A’nuqtada) joylashgan bo‘lganda. Bunda gruntni qirqish burchagi  $\alpha$  gruntni yopishqoqligini hisobga olgan holdagi tashqi ishqalanish burchagi  $\varphi^*$  ga teng bo‘ladi, shuningdek, teng ta’sir etuvchi kuch R ning vertikal tashkil etuvchisi  $R_v$  ham nolga teng bo‘ladi.

Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, A va A’ nuqtalar oralig‘ida joylashgan grunt zarralari bir biriga qarama qarshi bo‘lgan siuvchi kuchlar ta’siri ostida bo‘ladi va bu, shu oraliqda zichlangan yadroni hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu oraliqning chekki nuqtalari markaziy burchagi  $\beta_0$  ni hosil qiladi va u quyidagiga teng bo‘ladi:


$$\beta_0 = 2 \cdot \varphi' \quad (4.69)$$

Endi zichlangan yadroni o‘tmas sirtidagi holatini o‘tmas o‘qi OC ga nisbatan joylashishini ko‘rib chiqamiz.

Barcha tomonlama siqilgan gruntni qirquvchi pichoqning sirtida hosil bo‘ladigan zichlangan yadro pichoqning o‘tmas sirtiga simmetrik joylashgan bo‘lishi kerak, ya’ni yadro o‘qi o‘tmas o‘qi bilan mos tushishi kerak.

Bu holatni asoslash uchun 4.23-rasmga murojat qilamiz. Pichoqning o‘tmas sirtidagi zichlangan yadroni muvozanatini saqlash uchun, yadroning yon tomonlaridan ta’sir qiluvchi normal kuch bosimi bir biriga teng bo‘lishi, uning o‘qi esa bosh zo‘riqish  $\sigma_1$  yo‘nalishi bilan mos kelishi kerak.

Ko‘rilayotgan holatda  $N_1$  va  $N'_2$  kuchlar bir biriga teng emas, chunki yadroning oldingi va orqa burchaklari ( $nCO = n'CO$ ) hamda yon tomonlari ( $nC = n'C$ ) bir biriga teng bo‘lib, gruntning deformatsiya qarshiligi esa har xil (orqa tomonidagi old tomonidagidan katta  $N'_2 > N'_1$  bo‘ladi). Demak, bu holatda zichlangan yadroga ta’sir etuvchi kuchlar muvozanatda bo‘lmaydi. Ularni muvozanatini ta’minalash uchun qirqish tezligining yo‘nalishi bo‘ylab old tomon qiyalik burchagini oshirib, orqa tomon qiyalik burchagini kamaytirish kerak. Ya’ni, zichlangan yadro o‘qini qirqiladigan grunt tubi tomon  $\beta$  burchakka burish kerak. Ma’luski, bu burchak qirqiladigan grunt qatlamiga, gruntning fizik-mexanik tarkibiga va deformatsiyalanish sharoitiga bog‘liq bo‘ladi.



**4.23-rasm. Zichlangan yadroning grunt ichida hosil bo‘lish holati.**

Grunt massivi ichida hosil bo‘ladigan zichlangan yadroning shakli va qonuniyatini ko‘rib chiqish uchun yana 4.23-rasmga murojaat qilamiz. Zichlangan yadroning chegaraviy zo‘riqish holati aK va a’K sirtlarda yuz beradi. Bu sirtlarning har biri, gruntning normal zo‘riqi-

shi  $\sigma_1$  ning o‘qidan  $45^0 - \frac{\rho}{2}$  burchakka og‘gan bo‘ladi. Bundan, zichlangan yadro uchidagi burchak  $\beta_{ya}$  ning qiymatini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$\beta_{ya} = 2 \cdot (45^0 - \frac{\rho}{2}) = 90^0 - \rho \quad (4.70)$$

Agar o‘zaro bog‘langan gruntlarda tashqi ishqalanish burchagi  $\phi$  ning qiymatini  $35\dots45^0$  va ichki io‘qalanish burchagi  $\rho$  ning qiymatini  $14\dots28^0$  deb olsak, zichlangan yadroni o‘tmas sirtga yopishgan burchagi  $\beta_o$  ning qiymati  $70\dots90^0$ , zichlangan yadro uchidagi burchak  $\beta_{ya}$  ning qiymati  $76\dots62^0$  ni tashkil qiladi.


Yoysimon (4.24,*a*-rasm) va tekis (4.24,*b*-rasm) zichlangan yadro o‘lchamlarini aniqlash.

Yoysimon yadroning yon tomoni uzunligi  $\ell_{ya}$  quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\ell_{ya} = \frac{ac}{\sin(45^0 - \frac{\rho}{2})}, \text{ m} \quad (4.71)$$

$\Delta$ asO dan  $ac = r_o \cdot \sin \varphi^*$  ekanligini aniqlab, uni (4.71) formulaga qo‘yib, quyidagi tenglamani hosil qilamiz:

$$\ell_{ya} = \frac{r_o \sin \varphi^*}{\sin(45^0 - \frac{\rho}{2})}, \text{ m} \quad (4.72)$$



**4.24-rasm. Zichlangan yadro o‘lchamlarini aniqlovchi sxema:** *a* - o‘tmasligi yoysimon bo‘lganda; *b*-o‘tmasligi tekis bo‘lganda.

Yadro asosining eni  $b_{ya}$  quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$b_{ya} = 2 \cdot ac = 2 \cdot r_o \sin \varphi^* = 2 \cdot \sin(45^\circ - \frac{\rho}{2}), \text{ m} \quad (4.73)$$

Yoysimon yadroning balandligi  $h_{ya}$  quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$h_{ya} = Kc + cO - r_o, \text{ m} \quad (4.74)$$

4.24-rasmdan foydalanib,

$$Kc = \ell_{ya} \cos(45^\circ - \frac{\rho}{2}); \quad cO = r_o \cos \varphi^* \text{ larni aniqlaymiz va bu qiy-$$

matlarni (4.74) formulaga qo'yib, soddalashtirgandan so'ng, yadroning balandligini quyidagi formula yordamida niqlash mumkin:

$$h_{ya} = r_o \left[ \frac{\sin\left(45^\circ - \frac{\rho}{2} + \varphi^*\right)}{\sin(45^\circ - \frac{\rho}{2})} - 1 \right], \text{ m} \quad (4.75)$$

Tekis yadroning yon tomoni uzunligi  $\ell_{ya}$  quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\ell_{ya} = \frac{b_{ya}}{2 \sin(45^\circ - \rho/2)}, \text{ m} \quad (4.76)$$

Tekis yadroning balandligi hya quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$h_{ya} = \frac{b_{ya} \operatorname{ctg}(45^\circ - \rho/2)}{2}, \text{ m} \quad (4.77)$$

Bu keltirilgan formulalardan shuni xulosa qilish mumkinki, zichlangan yadroining o'lchamlari nafaqat grunt turiga, balki gruntning holatiga, ya'ni uning namligiga, zichligiga hamda ichki va tashqi ishqalanish burchagining qiymatiga ham bog'liq bo'lar ekan.

**Gruntni qirquvchi jihozlarning yeyleishi va o'tmaslashishi.** Gruntni qirquvchi pichoq va tishlar, ishslash jarayonida ularning qirralari yeyleishi yoki o'tmaslashishi amalda ko'p kuzatiladi. Natijada ularning o'lchami kamayib, ish unumdorligini pasayishiga olib keladi.

Gruntni qirqish jarayonida uning qirquvchi jihoz qirralarini deformatsiyalanishi turlicha bo'ladi va u gruntning turiga, qirquvchi jihozning qanday materialdan yasalganligiga, qirqish kinematikasiga va ziyalangan yadroning bor yoki yo'qligiga bog'liq bo'ladi.


Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, qirquvchi jihozning gruntga ta'siri jarayonidayoq, qirquvchi jihozning yeyleishi hamda o'tmaslashuvi bir

vaqtning o‘zida sodir bo‘ladi. Bu ikki jarayon bir biri bilan fizik hodisalar orqali farqlanib, turli faktor va sabablarga bog‘liq bo‘ladi.

**Yeylish** - bu grunt va uni qirquvchi ish jihozisi orasidagi mexanik jarayon bo‘lib, metall zarrachalarini ajralib, yemirilishidir. Bu jarayon urunma kuchlar ta’sirida hosil bo‘ladi va gruntni qirquvchi pichoqning old va orqa burchaklarining geometrik o‘zgarishiga bog‘liq bo‘ladi.

**O’tmaslashish** - bu grunt va uni qirquvchi ish jihozisi orasidagi mexanik jarayon bo‘lib, metall zarrachalarini ajralmasdan, yemirilishi- dir. Bu jarayon normal kuchlar ta’sirida hosil bo‘ladi va gruntni qir- quvchi pichoqning geometrik o‘lchamlariga bog‘liq bo‘ladi.

Loyqaso‘rgich snaryadining frezali ish jihozidagi gruntni qirquv- chi pichoqlarning yeyishi va o’tmaslashuvi laboratoriya sharoitida olib borilgan tadqiqotlar asosida aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosi- da gruntni qirquvchi pichoqning uch qismida yeyish va o’tmaslashi- shni kuzatilgan (4.25-rasm).



**4.25-rasm. Gruntni qirquvchi pi- choqning yeyishi:** 1-pichoqning yeyilgan holati; 2-pichoqning dast- labki, yeyishidan oldingi holati.

4.25-rasmdan, pichoqning yeyilgandan keyingi (1-holat) orqa bur- chagi  $\gamma_y$ , uni yeyishidan oldingi (2-holat) orqa burchagi  $\gamma$  dan kattali- gini kuzatish mumkinki, bunga sabab, pichoqning orqa qismida grunt- ning bosimi uning old qismidagi bosimiga nisbatan ancha katta ekan- ligidir. Shuningdek, rasmdan pichoqning uch qismida o’tmaslashish- ning aylana shaklida, yeyishni esa parabola (yoki to‘g‘ri chiziqqa yaqin) shaklida ekanligini ham kuzatish mumkin.

**Gruntni qirqish qalinligini to‘liq baholashga beriladigan tav- siyalar.** Gruntni qirquvchi pichoqning yeyishi va o’tmaslashishi haqi-


da yuqoridagi bildirilgan mulohazalar va zichlangan yadroni hisobga olib, gruntni qirqish qalinligini aniqlash bo'yicha ayrim aniqliklar kiritamiz.

Agar gruntni qirqish, zichlangan yadrosiz va o'tmas pichoq yordamida amalga oshirilsa, gruntni to'liq qirqish qalinligi  $h_t$  quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin (4.26-rasm):

$$h_t = h + \Delta h, m \quad (4.78)$$

bu yerda  $h$ -kinematik sharoitdagи gruntni qirqish qalinligi, m;  $\Delta h$ -qirquvchi pichoqning o'tmas tomoni bilan qirqiladigan qo'shimcha qirqish qalinligi, m.

4.26-rasmdagi 1 nuqtaga (bunda  $\alpha > \phi^*$ ) normal kuch N va ishqalanish kuchi  $F_{ish}$  ta'sir etadi, ularning teng ta'sir etuvchi raksiya kuchi esa R ga teng bo'ladi. Bu reksiya kuchlarni gorizontal  $F_q$  va vertikal  $R_v$  kuchlarga ajratish mumkin, bunda gorizontal kuch qirqilgan gruntni qirqish tezligi  $v_q$  yo'nalishi bo'ylab, vertikal kuch esa gruntni pastga bosadi.



**4.26-rasm. Zichlangan yadrosiz o'tmas pichoq sirtida qirindi hosil bo'lish sxemasi.**

4.26-rasmdagi 2 nuqtaga (bunda  $\alpha = \phi^*$ ) teng ta'sir etuvchi raksiya kuchi R esa gruntni qirqish tezligi  $v_q$  yo'nalishiga paralell bo'lib, uning vertikal tashkil etuvchi kuchi nolga teng bo'ladi.

4.26-rasmdagi 3 nuqtaga (bunda  $\alpha < \varphi^*$ ) teng ta'sir etuvchi ryak-siya kuchi  $R$  ta'sirida qirqilgan gruntni gorizontal kuch  $F_q$  qirqish tezligi  $v_q$  yo'nalishi bo'ylab, vertikal kuch  $R_v$  esa gruntni yuqoriga ko'taradi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, o'tmas pichoq sirtidagi 2 nuqtasida joylashgan grunt, pastki qismiga siqladi, bu nuqtaning yuqorisida grunt yuqoriga ko'tarilib, qo'shimcha qalinlikdagi  $\Delta h$  qatlamni hosil qiladi, bu qo'shimcha qalinlikning maksimal qiymatini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$\Delta h = r_y \cdot \sin \varphi^*, \text{ m} \quad (4.79)$$

bu yerda  $r_y$  – o'tmas pichoqning egrilik radiusi, m.

(4.79) ni (4.78) ga qo'yib, quyidagini formulani hosil qilamiz:

$$h_t = h + r_y \cdot \sin \varphi^*, \text{ m} \quad (4.80)$$

Agar gruntni qirqish, zichlangan yadroli va o'tmas pichoq yordamida amalga oshirilsa, gruntni to'liq qirqish qalinligi  $h_t$  quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin (4.23-rasmga qarang):

$$h_t = h + KO \cdot \sin \beta, \text{ m} \quad (4.81)$$

(4.75) formulani hisobga olgan holda  $KO$  ni quyidagicha aniqlaysiz:

$$KO = r_o + h_{ya} = r_o + h_{ya} = r_o + r_o \left[ \frac{\sin\left(45^\circ - \frac{\rho}{2} + \varphi^*\right)}{\sin(45^\circ - \frac{\rho}{2})} - 1 \right] = h_{ya} = r_o \left[ \frac{\sin\left(45^\circ - \frac{\rho}{2} + \varphi^*\right)}{\sin(45^\circ - \frac{\rho}{2})} \right]$$

$KO$  ning bu qiymatini (4.81) ga qo'yib, quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$h_t = h + r_o \left[ \frac{\sin\left(45^\circ - \frac{\rho}{2} + \varphi^*\right)}{\sin(45^\circ - \frac{\rho}{2})} \right] \cdot \sin \beta, \text{ m} \quad (4.82)$$

### **Gruntni qirqish jarayonida uning deformasiyalangan joyida bosimning taqsimlanishi. Zo'riqish epyuralari.**

Gruntni qirqish jarayonida uning deformasiyalangan (zo'riqqan) joyida bosimning taqsimlanishini bir qancha tadqiqotchilarni e'tiborini tortshan va hozirda bu yo'nalish bo'yicha ma'lum materiallar to'plan-gan.

Gruntni o'tkir pichoq yordamida qirqishda uning deformatsiyalanihi asosan pichoqning old tomonidagi grunt qatlamlarining siqilishi natijasida sodir bo'ladi. Olib borilagan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pichoqning uchidan pastida joylashgan gruntlar deyarli deformatsiyalanmaydi.

V.P.Marchankov qirquvchi pichoq sirtidagi gruntning zo'riqish bo'yicha taqsimlanishini laboratoriya sharoitida maxsus tenzodatchikni qo'llab aniqlagan.

Deformasiyalangan gruntning qirqish tezligi (4.27-rasm) va unga perpendikulyar (4.28-rasm) bo'lgan zo'riqishining taqsimlanishi parabola qonuniga bo'y so'nadi, rasimlardan, qirqish tezligi bo'ylab zo'riqish taqsimlanishining absolyut qiymati unga perpendikulyar bo'lgan zo'riqish taqsimlanishining absolyut qiymatidan sezilarli darajada katta ekanligini kuzatish mumkin.

Shuningdek, laboratoriya sharoitida gruntni qirquvchi pichoq sirtidagi bosimning taqsimlanishi ham o'rganilgan. Buning uchun maxsus o'tkir (osti gruntga ishqalanmaydigan, 4.29,*c*-rasm) va o'tkir (osti gruntga ishqalanadigan, 4.30,*c*-rasm) pichoqlar hamda tenzodatchiklardan foydalanilgan.

O'ta o'tkir pichoq yordamida gruntni qirqishda bosimning taqsimlanishi 4.29-rasimda ko'rsatilgan. Rasmdan bosimning pichoq uzunligi bo'ylab tarqalishi notekisligini (4.29,*a,c*-rasm), pichoqning uchida uning qiymati katta, undan uzoqlashgan sari kamayib borishini kuzatish mumkin. Pichoqning eni bo'yicha bosimni tarqalishi ham notekis bo'lib (4.29,*b,c*-rasm), pichoqning yon tomonlarida uning qiymati katta, undan uzoqlashgan sari kamayib borishini kuzatish mumkin.

Zarralari o'zaro bog'langan gruntlarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida solishtirma bosimni aniqlovchi eperik formulalar hosil qilin-gan.

Gruntni qirqish yo'nalishiga perpendikulyar bo'lgan solishtirma bosimning o'zgarishini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:


$$P_\ell = (11,7 \cdot \ell^{-0,7}) \cdot 10^6, \text{ MPa} \quad (4.83)$$

bu yerda  $\ell$  - pichoqning uzunligi, sm.


Gruntni qirqish yo'nalishi bo'ylab hosil bo'ladigan solishtirma bosimni o'zgarishin quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$P_b = (11,7 \cdot b^{-0,25}) \cdot 10^6, \text{ MPa} \quad (4.84)$$


bu yerda  $b$  - pichoqning uzunligi, sm.




**4.27-rasm. Qirqish tezligi bo‘ylab yo‘nalishda zo‘riqishning taqsimlanish grafigi.**



**4.28-rasm. Qirqish tezligiga perpendikulyar yo‘nalishda zo‘riqishning taqsimlanish grafigi.**



4.29-rasm. O'ta o'tkir pisoq yordamida gruntni qirqishda bosimni taqsimlanishi.



4.30-rasm. O'tkir pisoq yordamida gruntni qirqishda bosimni taqsimlanishi.

Qirqish yo'nalishiga perpendikulyar bo'lgan pichoq ostidagi solishtirma bosimning o'zgarishini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$P_{\ell_{pp}} = (8,8 + 8,5 \cdot \ell_{pp} + 1,7 \cdot \ell_{pp}^2) \cdot 10^6, \text{ MPa} \quad (4.85)$$

bu yerda  $\ell_{pp}$  - pichoq ost qismining eni, sm.

Gruntni qirqish yo'nalishi bo'ylab pichoq ostida hosil bo'ladigan solishtirma bosimni o'zgarishin quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$P_b = (18,5 \cdot b^{-0,2}) \cdot 10^6, \text{ MPa} \quad (4.86)$$

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, qirquvchi elemenlarni turli shakldagi o'tmaslashuvi va yeyleshdagi zo'riqish epyurasini qurish, normal va urunma kuchlarni hisoblash uchun ayrim tavsiyalarni berish mumkin.

*Zichlangan yadro hosil bo'lmaydigan o'tmas pichoq yordamida gruntni qirqishda zo'riqish epyurasi egri chiziqli trapetsiya shaklida bo'ladi (4.31, a-rasm).* Bunda OK chiziqning ( $h_t$  dan pastda) ostki qismida grunt zarrachalarini ezilish, OK chiziqdan yuqorida esa qirqish jaryoni sodir bo'ladi.

S.P.Ogorodnikov o'tmaslashish jarayonidagi gruntni ezishdagi elementar qarshilik kuchini aniqlash uchun quyidagi formulani tavsiya etgan:

normal bosim kuchi (4.31, a-rasm)

$$dF_b = \sigma_e^i \cdot bd\ell = \sigma_e^i \cdot b \cdot r_o \cdot d\theta_q \quad (4.87)$$

ishqalanish kuchi (4.31, a-rasm)

$$dF_{ish} = \tau_i \cdot b \cdot r_o \cdot d\theta_q = dF_b \cdot \operatorname{tg} \varphi = \sigma_e^i \cdot b \cdot r_o \cdot d\theta_q \cdot \operatorname{tg} \varphi \quad (4.88)$$


bu yerda  $\sigma_e^i$  va  $\tau_i$  - tegishli ravishda o'tmaslashish maydonidagi normal va urunma zo'riqishlar Pa; b - qirqish eni, m;  $d\ell$  - o'tmaslashishning elementar uzunligi, m;  $d\theta_q$  - o'tmaslashishning elementar burchagi, rad.

Hozirda o'tmaslashish jarayonidagi uning uzunlik bo'yicha elementar kuchlarning o'zgarish qonuniyati yetarli darajada o'rganilmagan. Shuning uchun bu formulalardan foydalanilmaydi.

Normal zo'riqishni aniqlashda (hisoblashda) xususiy hollardan foydalaniadi. Normal zo'riqish, pichoqning uchidan ( $\sigma'_e$ ) uning oxirigacha ( $\sigma''_e$ ) tarqaladi va uni grunt massivining ezilishdagi qarshilik chegarasi k orqali aniqlash mumkin.

$$\text{Ya'ni, } \sigma''_e = k'' \text{ va } \sigma'_e = m \cdot k' \quad (4.89)$$

bu yerda m - narmal va urunma zo'riqishlarni bog'liqlik ko'rsat-kichi;  $k'$ - gruntni siljishdagi qarshilik chegarasi;  $k''$ - gruntni bosimi qarshilik chegarasi.



**4.31-rasm. O‘tmaslashgan pichoqdagi zo‘riqish epyurasining taxminiy ko‘rinishi:** *a*-zichlangan yadro bo‘lмаганда; *b*- zichlangan yadrosi bo‘lgанда (qoraytirilgan yuza).

O‘ta yupqa qalnlikdagi gruntlarni qirqishda  $\sigma_e'' = \sigma_e' = k''$  ga teng bo‘ladi, shunda ko‘rsatkich m quyidagiga teng bo‘ladi:

$$m = k''/k' \quad (4.90)$$

Agar  $\sigma_e'$  dan  $\sigma_e''$  gacha bo‘lgan oraliqda zo‘riqish bir teksda bo‘lsa, zo‘riqishning o‘rtcha qiymati aniqlanadi, uni quyidagi formula orqali topish mumkin:

$$\sigma_e^{o_r} = \frac{\sigma_e' + \sigma_e''}{2} = \frac{m \cdot k' + k''}{2}, \text{ Pa} \quad (4.91)$$

Yuqoridagilarni hisobga olib, normal bosim  $F_b$  va  $F_{ish}$  ishqalanish kuchlarini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\left. \begin{aligned} F_b &= \sigma_e^{o_r} \cdot b \cdot r_o \cdot \theta_q = \frac{m \cdot k' + k''}{2} b \cdot r_o \left( \frac{\pi}{2} + \varphi - \beta \right) \\ F_{ish} &\approx F_b \cdot \operatorname{tg} \varphi = \frac{m \cdot k' + k''}{2} b \cdot r_o \left( \frac{\pi}{2} + \varphi - \beta \right) \cdot \operatorname{tg} \varphi \end{aligned} \right\} \quad (4.92)$$

*Zichlangan yadro hosil bo‘lgan o‘tmas pichoq yordamida gruntni qirqishda zo‘riqish epyurasi bir oz boshqacha shakilda bo‘ladi (4.31, b-rasm). Bunda normal bosim  $F_b$  va  $F_{ish}$  ishqalanish kuchlari quyidagicha aniqlanadi:*


$$\left. \begin{aligned} F_b &= F_b' + F_b'' = \frac{m \cdot k' + k''}{2} b \cdot [r_o \left( \frac{\pi}{2} - \varphi + \beta \right) + \ell_{ya}] \\ F_{ish} &\approx \frac{m \cdot k' + k''}{2} - b \cdot [r_o \left( \frac{\pi}{2} - \varphi + \beta \right) \cdot \operatorname{tg} \varphi + \ell_{ya} \operatorname{tg} \varphi] \end{aligned} \right\} \quad (4.93)$$

bu yerda  $F_b'$  va  $F_b''$  - tegishli ravishda o‘tmas va zichlangan yadro qismlaridagi normal bosim kuchlari, N;  $\ell_{ya}$  - zichlangan yadro yon qirrasining uzunligi, m.

Zichlangan yadrosi bo‘lmagan gruntni eyilgan pichoq maydoni bilan qirqishdagi epyurasi 4.32-rasmida ko‘rsatilgan.

Bu maydondagi normal bosim  $F_b^{ym}$  va  $F_{ish}^{ym}$  ishqalanish kuchlari quyidagicha aniqlanadi:

$$\left. \begin{aligned} F_b^{ym} &= \frac{m \cdot k' + k''}{2} b \cdot \ell_{pp} \\ F_{ish}^{ym} &\approx \frac{m \cdot k' + k''}{2} b \cdot \ell_{pp} \operatorname{tg} \varphi \end{aligned} \right\} \quad (4.94)$$



**4.32-rasm. Eyilgan pichoqdagi zo‘ri-qish epyurasining taxminiy ko‘rinishi (zichlangan yadro bo‘l-maganda).**


Zichlangan yadrosi bo‘lgan gruntni yeyilgan pichoq maydoni bilan qirqishdagi epyurasi 4.33-rasmda ko‘rsatilgan.

Bu maydondagi normal bosim  $F_b^{\text{ym}}$  va  $F_{\text{ish}}^{\text{ym}}$  ishqalanish kuchlari quyidagicha aniqlanadi:


$$\left. \begin{aligned} F_b^{ym} &= F_b'^{ym} + F_b''^{ym} = \frac{m \cdot k' + k''}{2} b \cdot (\ell_{pp} + \ell_{ya}) \\ F_{ish}^{ym} &\approx \frac{m \cdot k' + k''}{2} b \cdot (\ell_{pp} \cdot \operatorname{tg} \varphi + \ell_{ya} \operatorname{tg} \rho) \end{aligned} \right\} \quad (4.95)$$

Qirqish kuchining o‘tmas pichoq uzunligiga bog‘liqlik darajasini aniqlash uchun laboratoriya sharoitida uzun va kalta pichoqlar yordamida tajribalar o‘tkazilgan. O‘tkazilgan tajribalarning natijalari 4.34-rasmda keltirilgan. Grafikdan shuni kuzatish mumkinki, gruntni uzun pichoq yordamida qirqishda qirqish kuchi bilan pichlq uzunligi to‘g‘ri

chiziq orqali bog'langan, gruntni qirqish kalta pichoq yordamida amalga oshirilganda esa bu bog'lanig egri chiziqli bo'lar ekan.



**4.33-rasm. Eyilgan pichoqdagi zo'riqish epyurasining taxminiy ko'rinishi (zichlangan yadro bo'lmaganda).**



**4.34-rasm. Qirqish kuchining o'tmas pichoq uzunligiga bog'liqlik grafigi:** a-uzun pichoq bilan ( $b = 30 \text{ sm}$ ); b- kalta pichoq bilan ( $\delta = 4 \text{ sm}$ ,  $v_a = 2 \text{ m/s}$ ,  $v_{ch} = 1,3 \text{ m/mm}$ ); 1-yarim blokli qirqishda; 2-erkin qirqishda; 3-suv ustida qirqish; 4-suv ostida qirqish.

### 4.3. Suvosti gruntlarini qirqishning dinamikasi.

Gruntni qirqishga sarflanadigan kuch asosan uni qirquvchi ish jihozining turini va texnologiyasini tanlashga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham gruntni qirqish mexanizmi va uni qirqish kuchini hisoblash o‘ta kerakli vazifalardan hisoblanadi.

Suvosti gruntlarini frezali ish jihozni yordamida qirqishda frezaga ta’sir etuvchi kuchlarning yig‘indisi  $\Sigma R_f$  ni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$\Sigma R_f = \vec{R}_{po} + \vec{R}_{ye} + \vec{R}_{ag} + \vec{R}_{in} + \vec{R}_{gd}, N \quad (4.96)$$

bu yerda  $\vec{R}_{po}$  - pichoq oldidigi deformasiyalangan gruntning qarshilik kuchi, N;  $\vec{R}_{ye}$  - yeylish (o‘tmaslashish) zonasidagi deformasiyalangan gruntning qarshilik kuchi, N;  $\vec{R}_{ag}$ , - qirquvchi element sirtida gruntni surishdagi qarshilik kuchi, N;  $\vec{R}_{in}$  - inersiya kuchining qarshiligi, N;  $\vec{R}_{gd}$  - gidrodinamik qarshilik kuchi, N.

Suvosti gruntlarini frezalashda (ishlov berishda) ish jihoziga ta’sir etuvchi kuchlar yig‘indisining bunday taqsimlanishini quyidagicha tushuntirish mumkin. Agar qirquvchi element o‘tkir va gruntni qirqish jarayoni kichik tezlikda olib borilsa, qirqishdagi qarshilik kuchi qirquvchi pichoqning oldingi va yon tomonlaridagi deformasiyalangan gruntning qarshiliklari orqali aniqlanadi. Cho‘michli va pichoqlari tishsimon bo‘lgan ish jihozlarida yon tomon qarshilik kuchlarining ta’siri uncha katta bo‘lmaydi.

Gruntni qirqish jarayoni katta tezlikda olib borilsa (4.96) formulada keltirilgan barcha qarshilik kuchlari ta’sir qiladi.

**Gruntni qirquvchi pichoq oldidagi deformasiyalangan gruntning qarshiligi.** Bu kuch gruntning turiga uni qirqish sharoitiga bog‘-liq bo‘lib, asosan deformasiyaning siljish turi orqali hosil bo‘ladi.

Agar gruntni qirqish ponasimon o‘tkir pichoq yordamida amalga oshirilsa, deformasiyalangan gruntning qarshilik kuchlari mexanika qonuniga asosan normal N va ishqalanish  $F_{ish}$  kuchlari asosida hosil bo‘ladi. Bu kuchlarni qirqish yo‘nalishi ( $x$  va  $y$  o‘qlari) bo‘ylab urunma (tangensial) va normal tashkil etuvchilarini quyidagi munosabat orqali aniqlash mumkin (4.35-rasm):

tangensial tashkil etuvchisi

$$F_{ol}^{sil} = R_{ol}^{\tau} = N \sin \alpha + F_{ish} \cos \alpha = N(\sin \alpha + f \cos \alpha), N;$$


normal tashkil etruvchisi

$$N_{ol}^{sil} = -R_{ol}^{\sigma} = -N \cos \alpha + F_{ish} \sin \alpha = -N(\cos \alpha - f \sin \alpha), N$$

Agar  $N$  va  $F_{ish}$  kuchlarni qo'shib, uni  $N' = \frac{N}{\cos \varphi}$  kuch bilan, qirqish burchagi  $\alpha$  ni  $\alpha^* = \alpha + \varphi$  ga almashtirib, tashkil etuvchi kuchlarni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\left. \begin{aligned} F_{ol}^{sil} &= N' \sin \alpha^* = \frac{N}{\cos \varphi} \sin(\alpha + \varphi) \\ N_{ol}^{sil} &= -N' \cos \alpha^* = -\frac{N}{\cos \varphi} \cos(\alpha + \varphi) \end{aligned} \right\}, N \quad (4.97)$$

Agar  $F_{ol}^{sil}$  kuchning yo'nalishi qirqish tezligi yo'nalishi bilan bir xid bo'lsa (+) ishora, yo'nalishlar qarama-qarshi bo'lsa (-) ishora olinadi. Agar  $N_{ol}^{sil}$  kuchining reaksiya kuchi yo'nalishi bo'ylab bo'lsa (+) ishora, bu yo'nalishlar qarama-qarshi bo'lsa (-) ishora olinadi.



**4.35-rasm. Ponasimon o'tkir pichoq yordamida gruntni qirqish jarayonining siljish deforasiyasiga bog'liqlik chizmasi.**

$N'$  kuchni  $N'_s$  (siljishga perpendikulyar) va  $N'_p$  (siljish tekisligi bo'ylab) tashkil etuvchilarga ajratib, uning qiymatlarini 4.35 rasmdan foydalananib, quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$\left. \begin{aligned} N'_s &= \frac{N}{\cos\varphi} \sin(\alpha + \varphi + \psi_{sil}); \\ N'_p &= \frac{N}{\cos\varphi} \cos(\alpha + \varphi + \psi_{sil}) \end{aligned} \right\}, N \quad (4.98)$$

Gruntni siljishdagi urunma zo'riqishi Kulon tenglamasi orqali aniqlanadi:

$$\tau_{sil} = \tau + \mu \cdot \sigma = \frac{N'_s}{S_{sil}} + \mu \frac{N'_p}{S_{sil}}, \text{ Pa} \quad (4.99)$$

bu yerda  $S_{sil}$  - siljish yuzasi,  $\text{m}^2$ . Uni qiymatini quyidagi formula arqali aniqlash mumkin:

$$S_{sil} = \frac{b \cdot h}{\sin \psi_{sil}}, \text{ m}^2 \quad (4.100)$$

Agar urunma zo'riqish  $\tau_{sil}$  ni gruntni siljishdagi qarshilik chegarasi  $k'$  bilan almashtirib tegishli soddalashtirishlarni amalga oshirgandan so'ng, gruntni siljishdagi qarshilik chegarasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$k' = \frac{N \cdot \sin \psi_{sil} \cdot \sin(\alpha + \varphi + \rho + \psi_{sil})}{b \cdot h \cdot \cos\varphi \cdot \cos\rho}, \text{ Pa} \quad (4.101)$$

Agar  $\psi_{sil} = 90^\circ - \frac{\alpha + \varphi + \rho}{2}$  ga tengligini va ayrim soddalashtirishlarni amalga oshirib, gruntni qirqishdagi normal kuch  $N$  ni quyidagicha ifodalash mumkin:


$$N = \frac{k' \cdot b \cdot h \cdot \cos\varphi \cdot \cos\rho}{\cos^2 \frac{\alpha + \varphi + \rho}{2}}, \text{ N} \quad (4.102)$$

Bu ko'rinishdagi formulani birinchi bo'lib V.G.Goryachkin tavsiya etgan.

Plastik materiallarni qirqish nazariyasini N.N. Zorev o'rgangan. I.I.Mixeev plastik gruntlarni qirqishda normal kuch  $N'$  ni aniqlash uchun quyidagi formulani tavsiya etgan (4.36-rasm):

$$N' = \frac{k' \cdot b \cdot h_1 \cdot \cos\varphi \cdot \cos\rho}{\sin k\psi_1 \cdot \sin(\alpha + \varphi + \rho + k\psi_1)}, \text{ N} \quad (4.103)$$

bu yerda  $h_1$ - gruntni qirqishdagi egrilia balandligi, m;  $k$ -siljish tekisligining egriligini hisobga oluvchi koeffitsient (tajriba yo'li orqali aniqlanadi);  $\psi_1$ - siljishning maksimal burchagi, grad.



4.36-rasm. Ponasimon o'tkir pichoq yordamida plastik materiallarni qirqish deforasiyasiga bog'liqlik chizmasi.

**O'tmaslashgan yoki yeyilgan pichoq yordamida gruntga ishlov berishda deformasiyalangan gruntning qarshiligi.** Ma'lumki, gruntni qirquvchi pichoq ishlatilishi natijasida, ishqalanish va boshqa kuchlari ta'sirida yeyilib, o'z shaklini o'zgartiradi. O'tmaslashgan yoki yeyilgan pichoq bilan gruntga ishlov berish uning yeyilgan sirtidagi qarshilik kuchlarini ham hisobga olish kerak. Bu kuchlarni aniqlash bo'yicha A.N. Zelenin, A.Sh.Rabinovich, Yu.A.Vetrov va boshqalar shug'ullanib, o'z takliflarini bergan.

Tadqiqotlar yadrosi bo'magan (4.37, a-rasm) va yadrosi bo'lgan (4.37,b-rasm) sirti yeyilgan pichoqlar yordamida amalga oshirilgan.

Bunda, yeyilgan sirtdagagi deformasiyalangan gruntga ta'sir etuvchi faol kuchlarning qiymati baholanadi.

Ta'sir etuvchi kuchning tangensial tashkil etuvchisi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$F_{ey}^d = N_{ey} \sin \gamma_{pp} + F_{ish}^{ey} \cos \gamma_{pp}, \text{N} \quad (4.104)$$

Ta'sir etuvchi kuchning normal tashkil etuvchisi quyidagi formula orqali aniqlanadi:


$$N_{ey}^d = N_{ey} \cos \gamma_{pp} + F_{ish}^{ey} \sin \gamma_{pp}, \text{N} \quad (4.105)$$

4.37,a-rasmdan  $N_{ey}/N'_{ey} = \sin(\gamma_{pp} + \varphi)$  ekanligi va bundan,

$N'_{ey} = \frac{N_{ey}}{\cos \varphi}$  ni aniqlash mumkin.

Yeylish maydonida ponanazariyasini qo'llab (4.37,*a*-rasm), quyidagi tenglmamani hosil qilish mumkin:

$$\left. \begin{aligned} F_{ey}^d &= \frac{N_{ey}}{\cos\varphi} \sin(\gamma_{pp} + \varphi); \\ N_{ey}^d &= \frac{N_{ey}}{\cos\varphi} \cos(\gamma_{pp} + \varphi) \end{aligned} \right\} \quad (4.106)$$



**4.37-rasm. Eyilgan pichoqning grunt bilan bog'lanish sxemasi: *a*-yadrosiz; *b*-yadroli.**

Pichoqning eni *b*, siljish k' va k'' bosim qarshiliklari chegarasini hisobga oligan holda zichlangan yadrosiz (4.37,*a*-rasm) va yadroli (4.37,*b*-rasm), gruntlar qirqishda tangensial va normal kuchlarni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

zichlangan yadrosiz gruntlar uchun

$$\left. \begin{aligned} F_{ey}^d &= \frac{mk' + k''}{2 \cdot \cos\varphi} b \cdot \ell_{pp} \cdot \sin(\gamma_{pp} + \varphi); \\ N_{ey}^d &= \frac{mk' + k''}{2 \cdot \cos\varphi} b \cdot \ell_{pp} \cdot \cos(\gamma_{pp} + \varphi) \end{aligned} \right\} \quad (4.107)$$

zichlangan yadroli gruntlar uchun

$$\left. \begin{aligned} F_{ey}^{ya} &= \frac{mk' + k''}{2 \cdot \cos\varphi} b \cdot (\ell_{pp} + \ell_{ya}) \cdot \sin(\gamma_{pp} + \varphi); \\ N_{ey}^{ya} &= \frac{mk' + k''}{2 \cdot \cos\varphi} b \cdot (\ell_{pp} + \ell_{ya}) \cdot \cos(\gamma_{pp} + \varphi) \end{aligned} \right\} \quad (4.108)$$

**Gruntni ag‘darib-qirquvchi pichoqlardagi qarshilik kuchlar.** Bunday pichoqlar asosan aylanma harakat qiluvchi rotor yoki freza-larga o‘rnatilgan bo‘ladi. Gruntni qirqish pastdan yuqoriga (4.38-rasm) yoki yuqoridan pastga (4.39-rasm) qarab amalga oshiriladi.

Gruntni qirqishda unga qarshilik qiladigan kuchlarni aniqlash uchun pichoq markazidagi M nuqtaga ta’sir qiluvchi kuchlarni ko‘rib chiqamiz (4.38 va 4.39-rasmlar). Nuqtadagi elementar dV hajimdagi qirqilayotgan gruntga quyidagi kuchlar ta’sir etadi:

- elementar hajimdagi gruntning og‘irlik kuchi  $dG$ ;
- ag‘dargich sirtidagi gruntning siljishdagi markazdan qochma inersiya kuchi  $dF_{mqi}^{as}$ ;
- gruntning ag‘dargich bilan birga ko‘chishirib siljishdagi markazdan qochma inersiya kuchi  $dF_{mqi}^{aks}$ ;
- frezani aylanishida gruntni ko‘chish kuchi (Koriolis kuchi)  $dF_k$
- gruntni (uni ag‘dargich sirtiga yopishganligini hisobga olgan hol-dagisi bilan birgalikdagi) ishqalanish kuchi  $dF_{ish}^*$ .

Bu kuchlarni birlashtiruvchi kuchni yig‘ma reaksiya kuchi  $dR$  deb belgilab, uni normal  $dR_n$  va urunma  $dR_u$  tashkil etuvchilarga ajratish mumkin.

Normal tashkil etuvchi kuch quyidaga formula orqali aniqlanadi:

$$dR_n = \pm dG \cos\mu + dF_{mqi}^{as} \sin\theta' - dF_{mqi}^{aks} \quad (4.109)$$

Urunma og‘irlik kuchlari orasidagi burchak, grad;  $\theta'$  - urunma va gruntni ko‘chirib tashkil etuvchi kuch quyidaga formula orqali aniqlanadi:

$$dR_u = \pm dG \sin\mu + dF_{mqi}^{as} \cos\theta' + dF_{ish}^* \quad (4.110)$$

bu yerda  $\mu$  - normal va siljitishdagi markazdan qochma inersiya kuchi orasidagi burchak, grad.

Formuladagi (+) ishora, gruntni qirqish pastdan yuqoriga qarab (4.38-rasm), (-) ishorasi esa gruntni qirqish yuqoridan pastga qarab (4.39-rasm) bo‘lganda olinadi.

Elementar hajimdagi gruntning og‘irlik kuchi  $dG$  ni quyidaga formula orqali aniqlash mumkin:

$$dG = \gamma_{gr}^* \cdot S_{gr} \cdot r_p \cdot d\Omega \quad (4.111)$$


bu yerda  $r_{gr}^*$  - aralashmaning solishtarma og‘irligi,  $N/m^3$ ;  $S_{gr}$  - qir-qiladigan gruntning ko‘ndalang ksim yuzasi,  $m^2$ ;  $r_p$  -  $\Omega$ -ag‘dargich tekisligidagi grunt qatlami hosilqilgan yoyning burchagi.

Qirqilgan gruntni uzlusiz harakatini ta'minlash uchun quyidagi shart bajarilishi kerak:

$$\frac{2\pi \cdot R_{fr} \cdot h_{o'r} \cdot \alpha}{360^0} = \frac{2\pi \cdot r_o' \cdot h_{o'r} \cdot \Omega}{360^0}$$

Bu munosabatdan  $\Omega = \frac{R_{fr}}{r_o'} \alpha$  yoki  $d\Omega = \frac{R_{fr}}{r_o'} d\alpha$  (4.112)

bu yerda  $R_{fr}$  - frezaning radiusi, m;  $h_{o'r}$  - gruntni qirqishning o'rtacha qaliligi, m.




**4.38-rasm. Gruntni ag'darib qirquvchi pichoqqa ta'sir etuvchi kuchlar (qirqish pastdan yuqoriga bo'lganda).**

Ag‘dargich sirtidagi gruntning siljishdagi markazdan qochma inertsiya kuchi  $dF_{mqi}^{as}$  ni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$dF_{mqi}^{as} = \frac{dm \cdot g_q^2}{r_o} \quad (4.113)$$

bu yerda  $dm$  - elementar hajimdagи gruntning massasi, uni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin;

$$dm = \rho_{gr} \cdot b \cdot h \cdot d\Omega \quad (4.114)$$



**4.39-rasm. Gruntni ag‘darib qirquvchi pichoqqa ta’sir etuvchi kuchlar (qirqish yuqoridan pastga bo‘lganda).**

Gruntning ag‘dargich bilan birga ko‘chishirib siljishdagi markazdan qochma inersiya kuchi  $dF_{mqi}^{aks}$  ni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$dF_{mqi}^{aks} = \frac{dm \cdot g_M^2}{R_M} \quad (4.115)$$

bu yerda  $g_M^2$  va  $R_M$  – tegishli ravishda elementar massa markazi ning tezligi va radiusi.

Koriolis kuchi  $dF_k$  ni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$dF_k = dm \cdot a_k \quad (4.116)$$

bu yerda  $a_k$  – koriolisli tezlanish bo‘lib, u quyidagi formula bilan aniqlanada:

$$a_k = 2 \frac{g_q^2}{R_{fr}} , \text{ m/s}^2 \quad (4.117)$$

Gruntni ishqalanish kuchi  $dF_{ish}^*$  ni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$dF_{ish}^* = f \cdot (dR_n + K_{yo} \cdot dS_{ag'}) \quad (4.118)$$

bu yerda  $f$  – tashqi ishqalanish koefitsenti;  $K_{yo}$  – ag‘dargich sirtidagi gruntning solishtirma yopishish kuchi;  $dS_{ag'}$  – elementar hajimdagi gruntni ag‘dargichga yopishgan qismining yuzasi, uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$dS_{ag'} = r_o \cdot b \cdot d\Omega \quad (4.119)$$

V.P.Marchenkovning tadqiqoti bo‘yicha ormal va og‘irlilik kuchlari orasidagi burchak  $\mu$  ni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\mu = \left( \frac{R_{fr}}{r_o} - 1 \right) \cdot \alpha + \alpha_q \quad (4.120)$$

**Gruntni qirqishdagi inersiya qarshilik kuchlari.** Bu kuch grunt massasining inersiyasi uning tezlanish olishiga bog‘liq bo‘ladi. Inersiya qarshiligi to‘g‘ridin to‘g‘ri muxidning zichligiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun uni aniqlashda gruntga ishlov berishning suv osti va suv usti holatlarini o‘rganish talab qilinadi.

**Suv usti** gruntlariga ishlov berishda inersiya kuchi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\vec{F}_i^{su} = m_{gr} \cdot \vec{a}_a , \text{ N} \quad (4.121)$$

bu yerda  $m_{gr}$  - ko‘chiriladigan gruntning massasi, kg;  $\vec{a}_a$  - ko‘chiriladigan gruntning absolyut tezlanishi,  $\text{m/s}^2$ .

Gruntni qirqish sxemasi 4.40 - rasmida ko‘rsatilgan. Chizmadan gruntning absolyut tezligi  $v_a$  ni, qirqish  $v_q$  va nisbiy  $v_{nis}$  tezligi kabi tashkil etuvchilarga ajratish mumkin.

Demak gruntni absolyut tezligini vektorlarni qo‘shish qoidasidan foydalanib quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:


$$\vec{g}_a = \vec{g}_q + \vec{g}_{nis} \quad (4.122)$$

Absolyut tezlikni 4.140, a-rasmdagi uchburchakdan foydalanib aniqlasa ham bo‘ladi:

$$\vartheta_a = \vartheta_q \frac{\sin \alpha}{\cos \delta}, \text{ m/s} \quad (4.123)$$

Gruntni tezlanish olishdagi massasini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$m_{gr} = \rho_{gr} \cdot V_{gr}, \text{ kg} \quad (4.124)$$



**4.40-rasm. Frezali ish jihoziga ta’sir qiluvchi inersiya kuchlarini aniqlovchi sxema.**

Gruntni tezlanishini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$a_a = \frac{\vartheta_a}{T}, \text{ m/s}^2 \quad (4.125)$$

bu yerda  $T$  - tezlanish olish davri, s, u ( $\vartheta_q = \text{const}$ ) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$T = \frac{\ell}{\vartheta_q}, \text{ s} \quad (4.126)$$

bu yerda  $\ell$ -qirindining nul tezlakdan ablosyut tezlik olgandagi o’tgan masofasi, m.

Agar inersiya kuchini normal  $R_n^{su}$  va urunma  $R_u^{su}$  tashkil etuvchi-larga ajratsak, ularni qiymatini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$\left. \begin{array}{l} R_n^{su} = F_i^{su} \cos \delta \\ R_u^{su} = F_i^{su} \sin \delta \end{array} \right\} \quad (4.127)$$

bu yerda  $\delta$  - inersiya va uning normal tashkil etuvchi kuchlari orasidagi burchak, grad.

**Suv osti** gruntlariga ishlov berishda inrsiya kuchi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\vec{F}_i^{so} = (m_{gr} + m_m) \cdot \vec{a}_a, N \quad (4.128)$$

bu yerda  $m_m$  - ma'lum hajimdagi aralashmadagi muhitning masasi (bizni holatda suvning), kg.

**Gidrodinamik qarshiliklar.** Suv osti gruntlariga ishlov berishda-gi gidrodinamik qarshilik deganda qirqilgan gruntu ko'chirishda ish jihozini muhitdagi suyriligi tushiniladi. Bu qarshilik ish jihozini shakli va o'lchamiga, ish tartibi va muhitning zichligiga bog'liq bo'ladi. Suv osti gruntlariga ishlov berishda odatda bu qarshilik hisobga olinmaydi (bunga sabab havo zichligining kamligidir). Ammo suv osti gruntlari-ga ishlov beruvchi ish jihozlarining yuqori tizlikda ishlatalishi bu kichni hisobga olishni taqoza etadi.

Suyrilik qarshilik kuchi  $F_{su}$  quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$F_{su} = 0,5 \cdot k_{sgd} \cdot \rho_m \cdot S_{syu} \cdot \vartheta_{su}^2, N \quad (4.129)$$

bu yerda  $k_{sgd}$  - suyrikning gidrodinamik qarshilik koeffitsenti;  $\rho_m$  - muhitning zichligi,  $kg/m^3$ ;  $S_{syu}$  - suyrik yuzasi,  $m^2$ ;  $v_{su}$  - suyrik tezligi,  $m/s$ .

## SINOV (NAZORAT) SAVOLLARI VA TOPSHIRIQLAR

1. *Suvosti gruntlarini qirqishning geometrik ko'rsatkichlarini aytib bering?*
2. *Loyqaso 'rgich snaryadlarining ish jarayonida ko'chirish usul-larini aytib bering.*
3. *Suvosti gruntlarini qirqish va mashinani ko'chish tezliklari qanday faktorlarga bog'liq bo'ladi.*
4. *Gruntning deformasiyalanish tezligi bilan qirqish tezligi orasi-da qanday bog'lanish bor.*
5. *Gruntni zichlangan yadrosi va uni hosil bo'lishini tushuntirib bering.*
6. *Zichlangan yadroga qanday kuchlar ta'sir etadi.*
7. *Gruntni qirquvchi jihozlarni yeysishi va o'tmaslashish sabab-larini aytib bering va bu nimaga o'z tasirini o'tkazadi.*
8. *Gruntning zo'riqishi qanday faktorlarga bog'liq bo'ladi.*
9. *Zo'riqishning qirqish tezligi bo'ylab va unga perpendikulya yo'nalishdagi taqsimlanishini izohlab bering.*
10. *O'tkir o'ta o'tkir pichoq yordamida gruntni qirqishda bosim qanday taqsimlanadi.*
11. *Ponasimon o'tkir pichoq yordamida gruntni qirqishda qanday kuchlar ta'sir qiladi.*
12. *Eyilgan pichoq yordamida gruntni qirqishda unga qanday kuchlar ta'sir qiladi.*
13. *Gruntni ag'darib-qirquvchi pichoqlarga qanday kuchlar ta'sir qiladi.*
14. *Gruntni qirqishda inersiya qarshilik kuchlari (suvosti va suvosti sharoitida) qanday faktorlarni o'z ichiga oladi.*
15. *Gidrodinamik qarshilik deganda nimani tushunasiz?*

## **5-BOB. LOYQASO‘RGICH SNARYADNING SO‘RUVCHI VA GRUNTGA ISHLOV BERUVCHI USKUNALARINI HISOBLASH**

### **5.1. Frezali ish jihoziga ega bo‘lgan loyqaso‘rgich snaryadini hisoblash.**

Suv osti gruntlariga ishlov beruvchi frezali ish jihozining ko‘rsat-kichlarini asoslash va hisoblash uchun quyidagi bir biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uch jarayonni hisobga olish talab qilinadi: gruntni qir-qish, uni majburan so‘rivchi uskunaga uzatish va gidroaralashmani so‘rib olish.

#### **Gidroaralashmani so‘rish ko‘rsatkichlarini hisoblash.**

Loyqaso‘rgich kallagi surgich qismining yuzasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$S = \frac{Q}{\vartheta_{kk}}, \text{ m}^2 \quad (5.1)$$

bu yerda  $Q$  - gidroaralashmani nasosdan o‘tish miqdori  $\text{m}^3/\text{s}$ ; u (2.44) formula yordamida aniqlanadi;  $\vartheta_{kk}$  - gidroaralashmani kallakka kirish paytidagi tezligi,  $\text{m/s}$  ( $3\dots4 \text{ m/s}$ ).

Gidroaralashmani so‘ruvchi quvur ichidagi tezligi, uni kallakka kirish tezligidan  $20\dots25\%$  ga ortiq bo‘ladi.

#### **Gruntni qirquvchi freza o‘lchamlarini aniqlash.**

Freza diametrini aniqlash uchun uchta olim quyidagi formulalarni taviya etganlar:

S.P.Ogorodnikov  $D_{fr} = \frac{Q}{L_{fr} \cdot \vartheta_{ar} \cdot k_D \cdot k_L \cdot k_b}, \text{ m} \quad (5.2)$

B.M.Shkundin  $D_{fr} = k_{gr} \cdot Q^{0,35}, \text{ m} \quad (5.3)$

A.I.Xarin  $D_{fr} = 2 \cdot \lg Q \cdot k - 3,2, \text{ m} \quad (5.4)$

bu yerda  $L_{fr}$  - frezaning uzunligi,  $\text{m}$ ;  $\vartheta_{ar}$  - gidroaralashmani tezligi,  $\text{m/s}$ ;  $k_D$  - freze diametridan foydalanish koeffitsenti (zich va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan gruntlar uchun uning kiymati  $0,85\dots0,95$  oraliqda olinadi);  $k_L$  - freza uzunligidan foydalanish koeffisiknti (qo‘zg‘almas yo‘naltirgichi bo‘lgan frezalar uchun uning qiymati  $0,6$ , bosim ostida-gi qoziqli yurishda bu qiymat  $0,95$  ga teng deb olinadi);  $k_b$  - bo‘shliqlik koeffitsenti (uni qiymati  $0,80\dots0,85$  oraliqda olinadi);  $k_{gr}$  - ishlov beriladigan gruntni guruhini hisobga oluvchi koeffitsient (yengil

gruntlar uchun uning qiymati 0,23, og‘ir gruntlar uchun 0,21 ga teng bo‘ladi); k - gruntga ishlov berishning qiyinlik koeffitsenti (grunt turi ga qarab uni qiymati 0,7...0,9 oraliqda bo‘ladi).

Olib borilgan tadqiqot natijalari, freza uzunligi  $L_{fr}$  ning diametri  $D_{fr}$  ga nisbati 0,6...0,7 oraliqda bo‘lishini taqazo etadi. Bu oraliqdan kam yoki ko‘p bo‘lganda frezali ish jihozidan unimli foydalanilmaydi.

Olib borilgan ko‘p yillik tadqiqot va tajribalar asosida freza tishi (pichog‘i) ning shakli aniqlangan. Unga ko‘ra o‘zaro bog‘langan elastik gruntlarga ishlov berish uchun silliq pichoq, o‘zaro bog‘langan zichligi yuqori bo‘lgan gruntlarga ishlov berish uchun to‘lqinsimon pichoq, zichligi o‘ta yuqori bo‘lgan gruntlarga ishlov berish uchun tishli pichoq o‘rnatilishi lozim.

Pichoq tig‘ining o‘tkirlik burchagi  $\beta$  ni o‘rnatishda pichoq yasalgan materialning mustahkamligi va yeyilashga chidamligini hisobga olib, o‘zaro bog‘langan gruntlar uchun 20...250, qattiq (zichligi yuqori bo‘lgan) gruntlar uchun 25...350 bo‘lishini ta’minalash kerak.

Pichoqning orqa burchagi  $\gamma$  quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\gamma = (7\ldots 11^0) + \left( 90^0 - \arccos \frac{g_{il}}{g_{ay}} \right), \text{ grad} \quad (5.5)$$

Gruntni statik qirqish burchagi  $\alpha$  ni quyidagicha niqlash mumkin:

$$\alpha = \beta + \gamma, \text{ grad} \quad (5.6)$$

Gruntni qirqishning haqiqiy burchagi  $\alpha_h$  quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\alpha_h = \operatorname{arctg}(\operatorname{tg}\alpha \cdot \cos\theta) \pm \operatorname{arctg} \frac{g_{il}}{g_{ay}}, \text{ grad} \quad (5.7)$$

bu yerda  $\theta$  - pichoqning freza aylanish o‘qiga nisbatan og‘ish burchagi, grad

Gruntni qirquvchi pichoqlar soni quyidagi formula bilan aniqlanadi:


$$Z_{min} = \frac{\pi \cdot D_{fr}}{L_{fr}} \operatorname{ctg}\theta \quad (5.8)$$

Agar frezaga gruntni qirquvchi tishlar o‘rnatilgan bo‘lsa, uni maxsus loyihalash talab etiladi. Buni uchun tishning shakli va o‘lchami asoslanadi, shuningdek, tishlarni freza sirtiga joylashish tartibi va uni kursatkichlarini hisoblash talab qilinadi.

Freza sirtiga tishlarni o'rnatish sxemasini tanlashda gidroaralashmani so'rish va trasport qilish uchun minimal energiya sarflashni hisobga olish kerak.

Ma'lumki freza gardishiga gruntni qirquvchi tishlar ma'lum oraliqlarda shaxmat yoki ketma-ket o'rnatilgan bo'ladi.

Freza tishlarini loyihalash uchun uning aylanish o'qi bo'yicha joylashgan tishlarni raqamlanadi (5.1-rasm) va freza gardishiga joylashtirilgan tishlari bilan birga yoyiladi (5.2-rasm).



**5.1-rasm. Freza tishlarini raqamlash sxemasi.**

Sxemada (5.2-rasm) joylashtirilgan tishlarning asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash uchun quyidagi formulalar taklif etiladi:

$$\text{tishning qadami} \quad \ell_t = b_t + h_{o'r} \frac{k_{y_{00}}}{k_{tsh}}, \text{ m} \quad (5.9)$$

$$\text{tishning burchak qadami} \quad \varepsilon = \frac{360^0}{z \cdot n_t}, \text{ grad} \quad (5.10)$$


tishlarni qirqish chiziqlari soni

$$j = \frac{L_{fr} - b_t}{\ell_t} + 1 \quad (5.11)$$

bitta pichoqdagi tishlar soni

$$n_t = \frac{n_{ch}}{z} \quad (5.12)$$

bu yerda  $b_t$  – tishning eni, m;  $h_{o'r}$  – o‘rtacha qirqish qaliligi, m;  $k_{yoq}$  – yon tomon uvalanish koeffitsenti ( $k_{yoq} = 0,8 \dots 1,0$ );  $k_{tsh}$  – tish shaklining koeffitsenti ( $k_{tsh} = 0,8$ );  $z$  – pichoqlarning umumiyligi;  $n_t$  – bitta pichoqdagi tishlar soni;  $n_{ch}$  – qirqish chizig‘idagi tishlar soni (shaxmat shaklida joylashgan tishlar uchun  $n_{ch} = z/2$ , qaytariladigan tishlar uchun  $n_{ch} = z$ ).



**5.2-rasm. Freza pichoqlaridagi tishlarning joylashish sxemasi:**  
a-shaxmat shaklida; b-ketma-ket.

Gruntni ag‘darib-yo‘naltiruvchi sirtini shunday loyialash kerakki, gruntni qirqish va uni majburiy aralashtirishga sarflanadigan energiya minimal darajada kam bo‘lsin.

Frezaning ag‘darib-yo‘naltiruvchi sirtini loyihalashda quyidagi uslub tavsiya etiladi:

1) frezaning sirtqi ko‘rinishi masshtabda chizilib, uning chekki nuqtalarini ABCD harflar bilan belgilanadi; chizmada frezaning uzunligi  $L_{fr}$ , maksimal  $D_{fr}^{max}$  va minimal  $D_{fr}^{min}$  diametrleri ko‘rsatiladi (5.3 a-rasm);


2) frezaning sirtqi qo‘rinishi ichiga uzunligi  $L_{ag^*}$  ga teng bo‘lgan hamda uzunligi  $\ell_{gu}$  bo‘lgan gupchakka tayangan ANBLMK sirtqi ko‘rinish chiziladi;

3) hosil bo‘lgan shakilni freza o‘qiga perpendikulyar bo‘l-gan bir nechta paralell chiziqlar o‘tkaziladi (bunda boshlang‘ich chiziq 0-0 frezaning maksimal diametri bilan mos tushishi kerak);

4) frezaning ko‘ndalang kesimining profeli quriladi, bunda egrilik radiusi  $r_0$  bo‘lgan aylananing markazi  $O_2$  nuqtada bo‘ladi (5.3 b-rasm), egrilik radiusi quyidagicha aniqlanadi:

$$r_0 = \frac{R_{fr}}{k_z}, \text{ m} \quad (5.13)$$

bu yerda  $k_z$  – zahira koeffitsenti ( $k_z = 2\dots2,4$ )



**5.3-rasm. Frezaning ag‘darib-yo‘naltiruvchi sirtini aniqlash sxemasi.**


$A_1B_1S_1$  nuqtalar orqali yo‘naltiruvchi egri chiziq chiziladi,  $A_1C_1$  va  $A_1O_1$  to‘g‘ri chiziqlar orasidagi burchak  $\alpha_n$  ning qiymati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\alpha_n = \operatorname{arctg}(\operatorname{tg}\alpha \cdot \cos\theta), \text{ grad} \quad (5.14)$$

Egri chiziq markazi  $O_2$  ning koordinatalari quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\left. \begin{array}{l} x_0 = R_{fr} - r_0 \cdot \cos \alpha_n \\ y_0 = r_0 \cdot \sin \alpha_n \end{array} \right\} \quad (5.15)$$

Pichoqlar yordamida qirqiladigan grunt yuzalari yig‘indisini aniqlashda freza pichoqlari yordamida qirqilayotgan gruntni fazoviy holati chizmasidan foydalaniladi (5.4-rasm).



**5.4-rasm. Freza pichog‘i yordamida qirqiladigan gruntning fazoviy holati: I...III –pichoqlarning tartib raqami.**

Rasmda freza pichoqlari yordamida qirqiladigan uchta elementar yuzalar ko'rsatilgan bo'lib, ular freza o'qi bo'ylab qirqiladigan yuza  $S_q$ , freza dioganali bo'ylab qirqiladigan yuza  $S_{qd}$  va frezaning yon tomonida qirqiladigan yuza  $S_{qyo}$  lardan tashkil topgan.  $\Delta$  - gruntni qirqish tekisligida pichoqning boshlang'ich va oxirgi nuqtalari orasidagi markaziy burchak.

Freza o'qi bo'ylab qirqiladigan yuza  $S_q$  quyidagi formula orqali aniqlanadi (5.4-rasm):

$$S_q = S_{qd} \cdot \cos \theta, \text{ m}^2 \quad (5.16)$$

Odatta  $S_q$  yuzani frezaning yon tomonida qirqiladigan yuza  $S_{qyo}$  orqali aniqlash qulay bo'ladi. Sunga asoslanib, qirqiladigan yon tomon yuzani quyidagi formula yordamida niqlash mumkin:


$$S_q = S_{qyo} \cdot \operatorname{ctg} \theta, \text{ m}^2 \quad (5.17)$$

Agar bu yon qirqim yuzasini halqa yuzasini bir qismi (elementar yuza) sifatida qarab (5.5-rasm), yuzani o'zgarishi uning eniga ( $r_2 - r_1$ ) bog'liqligini hisobga olsak, bu elementar yuza  $dS_{qyo}$  ni quyidagi formula orqali aniqlasa bo'ladi:

$$dS_{qyo} = 0,5 \cdot (r_2^2 - r_1^2) d\alpha \quad (5.18)$$

bu yerda  $r_1$  va  $r_2$  – tegishli ravishda halqaning ichki va tashqi radiuslari, ular quyidagicha aniqlanadi:

$$r_1 = R_{fr} \text{ va } r_2 = R_{fr} + h = R_{fr} + \ell_t \cdot \sin \alpha \quad (5.19)$$



Bir dona pichoq yordamida qirqiladigan yon tamon yuza (5.5-rasm) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$S_{qyo} = 0,5 \int_{\Omega-\Delta}^{\Omega} (r_2 - r_1^2) d\alpha \quad (5.20)$$

Bu formulaga (5.19) formulaning qiymatlarini qo'yib, uni integrallab quyidagi foriulani hosil qilamiz:

$$S_{qyo} = 2 \cdot R_{fr} \cdot \sin\left(\frac{2\Omega - \Delta}{2} \cdot \sin \frac{\Delta}{2}\right) + \frac{\ell_t^2}{4} [\Delta - \cos(2\Omega - \Delta) \cdot \sin \Delta] \quad (5.21)$$

## **5.2. Rotorli ish jihoziga ega bo'lgan loyqaso'rgich snaryadini hisoblash.**

### **5.2.1. Rotoring geometrik ko'rsatkichlarini hisoblash.**

*Rotoring diametri*  $D_r$  ni aniqlashda gidromexanizatsiya yoki ko'p cho'michli rotorli ekskavatorni hisoblash formulasidan foydalanildi.

Gidromexanizatsiya uslubida rotorni diametri aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya etiladi:

$$D_r = k_d \cdot k_{rk} \cdot \left( \frac{Q \cdot k_{gp}}{Z_{ch}} \right)^{\frac{2}{5}}, \text{m} \quad (5.22)$$

Rotorli ekskavatorlarni hisoblash uslubida rotorni diametri aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya etiladi:

$$D_r = 0,17 \cdot k_d \cdot \sqrt[5]{Q}, \text{m} \quad (5.23)$$

bu yerda  $k_d$  – rotor diametrini tanlanishini hisobga oluvchi koefitsient ( $k_d = 1,4 \dots 1,5$ );  $k_{rk}$  – rotorni konstruksiyasini hisobga oluvchi koeffitsient (bunkerli rotorlar uchun  $k_{rk} = 0,46$ , bunkersiz rotorlar uchun  $k_{rk} = 0,48$  ga teng bo'ladi);  $Q$  – rotoring ish unum dorligi,  $\text{m}^3/\text{s}$ ;  $k_{gp}$  - gruntingning rotor ish unum dorligiga bog'liqligini hisobga oluvchi koeffitsient (uning qiymati qum uchun  $k_{gp}=1$ , yngil suglina uchun  $k_{gp} = 0,9$ , og'ir suglina uchun  $k_{gp} = 0,8$ , og'ir glina uchun  $k_{gp} = 0,7$  );  $Z_{ch}$  – bir rotordagi cho'michlar soni.

*Rotor cho'michining hajmi*  $q_{ch}$  berilgan ish unumdarlik asosida quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$q_{ch} = \frac{Q \cdot k_{yu}}{Z_{ch} \cdot n_r}, m^3 \quad (5.24)$$

bu yerda  $k_{yu}$  – gruntni yumshatish koeffitsenti (uning qiymati grunt guruhiga qarab  $k_{yu} = 1,05 \dots 1,42$  oraliqda bo'ladi, yumshoq gruntlar uchun kichik qiymat qattiq gruntlar uchun katta qiymatlar olinadi;  $n_r$  – rotorning aylanish chastotasi,  $s^{-1}$ ).

*Rotor cho'michining balandligi* quyidagi empirik formula orqali aniqlanadi:

$$h_{ch} = \sqrt{\frac{q_{ch}}{k_{chj}}}, m \quad (5.25)$$

bu yerda  $k_{chj}$  - cho'michni joylashish koeffitsenti (uning qiymati bog'lanmagan gruntlar uchun  $k_{chj} = 0,8$ , o'rtacha bog'langan gruntlar uchun  $k_{chj} = 1,0$ , bog'langan gruntlar uchun  $k_{chj} = 1,25$  ga teng qilib olish kerak).

### **5.2.2. Rotorning kinematik ko'rsatkichlarini hisoblash.**

*Rotorning bo'ylama tezligi* ( $\vartheta_r$ ) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\vartheta_r = \sqrt{g \cdot R_r}, m/s \quad (5.25)$$

bu yerda  $R_r$  – rotorning radiusi, m.

*Rotorni gorizontal tekislikda burish tezligi* ( $\vartheta_{gb}$ ) quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\vartheta_{gb} = \frac{10 \cdot Q \cdot k_{gr}}{D_r^2 \cdot k_b}, m/s \quad (5.26)$$

bu yerda  $k_b$  – grunt bo'shlig'i koeffitsenti ( $k_b = 0,85$ ).

### **5.2.3. Rotorga ta'sir etuvchi kuchlar va unga sarflanadigan quvvatni hisoblash.**

Hozirda loyqso'rgich snaryadlari rotorlariga ta'sir etuvchi kuchlarni aniqlash asoslari mavjud emas, shuning uchun ularni hisoblashda

rotorli ekskavatorlarni hisoblash uslubidan foydalanish maqsadga muofiq bo‘ladi.

Ma’lumki, gruntni cho‘mich orqali qirqishda unga urunma  $R_{01}$  normal  $R_{02}$  va yon tomon  $R_{03}$  reaksiya kuchlari qarshilik qiladi (5.6-rasm)

Agar gruntni qirqishda uning tangensial (urunma) tashkil etuvchisi  $F_{01}$  ni (qiymati jihatdan uni reaksiya kuchi  $R_{01}$  ga teng deb olish mumkin) aniqlashda N.G.Dombrovskiy tavsiya etgan quyidagi oddiy formuladan foydalanish mumkin:

$$F_{01} = R_{01} = k_{sq} \cdot S_i, \text{ kN} \quad (5.27)$$

bu yerda  $k_{sq}$  - gruntni solishtirma qazish qarshiligi (uning qiymati grunt guruhiga qarab  $k_{sq} = (0,4 \dots 7,6) \cdot 105$  kPa oraliqda bo‘ladi, yumshoq gruntlar uchun kichik qiymatlar, qattiq gruntlar uchun esa katta qiymatlar olinadi):  $S_i$  - i-cho‘mich yordamida qirqiladigan yuzalar,  $\text{m}^2$ .

i ta cho‘mich yordamida qirqiladigan yuzani aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya etiladi:

$$\left. \begin{array}{l} S_1 = S_{\max} \cdot \cos \alpha_1 \\ S_2 = S_{\max} \cdot \cos(\varepsilon - \alpha_1) \\ \dots \dots \dots \\ \dots \dots \dots \\ S_i = S_{\max} \cdot \cos[(i-1)\varepsilon - \alpha_1] \end{array} \right\} \quad (5.28)$$

bu yerda  $S_{\max}$  - bir dona cho‘mich yordamida qirqiladigan gruntning maksimal yuzasi, uni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$S_{\max} = h_{\max} \cdot b, \text{ m}^2 \quad (5.29)$$

bu yerda  $h_{\max}$  – qirqiladigan gruntning maksimal qalinligi, m;  $b$  – qirqiladigan gruntning eni, m (5.6-rasm), uning qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$h_{\max} = \frac{q_{ch} \cdot k_{chf}}{b \cdot H_q \cdot k_{yu}}, \text{ m} \quad (5.30)$$

bu yerda  $k_{chf}$  – cho‘michni hajmidan foydalanish koeffitsenti (uiing qiymati grunt turiga qarab  $k_{chf} = 0,95 \dots 1,4$  oraliqda bo‘ladi).

Qirqiladigan gruntning eni quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$b = \frac{g_{gb}}{Z_{ch} \cdot n_r}, \text{ m} \quad (5.31)$$


Gruntni qirqishdagi normal kuchni (qiymati jihatdan uni reaksiya kuchi  $R_{02}$  ga teng deb olish mumkin) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$F_{02} = R_{02} = (0,20 \dots 0,55 \cdot F_{01}), \text{ kN} \quad (5.32)$$

Gruntni qirqishda rotor yon tomoniga ta'sir qiluvchi kuchni (qiymati jihatdan uni reaksiya kuchi  $R_{03}$  ga teng deb olish mumkin) quyidagicha aniqlash mumkin:

$$F_{03} = R_{03} = \frac{\vartheta_{gb,max}}{\vartheta_{q,min}} \cdot R_{01}, \text{ kN} \quad (5.33)$$

bu erda  $\vartheta_{gb,max}$  gidroaralashma berishning maksimal tezligi, m/s:  
 $\vartheta_{q,min}$  – gruntni qirqishning minimal tezligi, m/s.



**5.6-rasm. Rotor yordamida gruntni qirqishda unga ta'sir etuvchi kuchlar sxemasi.**

Gruntni qirqishdagi rotorga sarflanadigan quvvat quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$N_r = (1,15 \dots 1,25) \cdot \frac{3\pi \cdot (F_{01} + F_{gd}) \cdot n_r}{25 \cdot \eta_r}, \text{ kVt} \quad (5.34)$$


bu yerda  $F_{gd}$  - suvosti gruntlarida ishlov beruvchi rotoring hidrodinamik qarshiligi, kN:  $n_r$  - rotoring aylanish tezligi, ayl/min:  $\eta_r$  - rotor uzatmasining  $F,I,K$  ( $\eta_r = 0,85$ ).

### 5.3. Loyqasurgich snaryadini burishga ta'sir etuvchi kuchlar va unga sarflanadigan quvvatni hisoblash.

Suvosti gruntlariga faol ish jihozlari yordamida ishlov berishda, mashina va unga o'rnatilgan ish jihozini suv tubiga qoqilgan qoziq atrofida burish, qirg'oqqa qoqilgan qoziq bilan mashina korpusiga o'rnatilgan chig'irga ulangan po'lat arqonni harakatga keltirish orqali amalga oshiriladi.

Chig'irga ulangan arqon qirg'oqdagi qoziq bulokidan o'tib, rotor yoki frezaning pastki ramasiga bog'langan bo'ladi.

Mashina va unga o'rnatilgan gruntga ishlov beruvchi ish jihozini suv tubiga qoqilgan qoziq atrofida aylantiruvchi po'lat arqonga ta'sir etuvchi kuchlar 5.7-rasmda ko'rsatilgan.



**5.7-rasm. Loyqaso'rgich snaryadini gorizontal o'qda aylantirishdagi tortish kuchi ni aniqlash sxemasi.**

Loyqaso'rgich snaryadini burishda ishlatiladigan chig'irni quvvati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$N_{chi} = k_{eh} \frac{F_t \cdot g_{ar}}{\eta_{chi}}, \text{ kVt} \quad (5.35)$$

bu yerda  $k_{\text{chi}}$  - chig'irli yuritma quvvatining ehtiyot koeffitsenti;  $F_t$  - Po'lat arqonga tushadigan maksimal kuch, kN;  $\vartheta_{\text{ar}}$  - po'lat arqoning chiziqli tezliga;  $\eta_{\text{chi}}$  - chig'irli yuritmaning F,I,K. ( $\eta_{\text{chi}} = 0,70 \dots 0,85$ ).

Agar  $\beta = 0$  bo'lsa  $F = F'_t$  bo'ladi (5.7 b-rasm), shunga ko'ra bar-cha kuchlarni O nuqtaga nisbatan (5.7a-rasm) quyidagi ko'rinishdagi momentlar tenglamasini tuzish mumkin:

$$\Sigma M_O = F'_t \cdot r_b - F'_N \cdot a - R_{gb} \cdot r_{fr} = 0 \quad (5.36)$$

$F'_N$  kuchning yelkasi  $a$  qiymati juda kichik bo'lgani uchun uni hisobga olmasa ham bo'ladi, shunda (5.36) formulani kuyidagicha yozish mumkin:

$$F'_t \cdot r_b - R_{gb} \cdot r_{fr} = 0 \quad (5.37)$$

Bu formuladan  $F'_t = R_{gb} \cdot \frac{r_{fr}}{r_b}$  ni aniqlaymiz.

Uchburchak qoidasidan foydalanib quyidagini aniqlaymiz:

$$F_t = \frac{F'_t}{\cos \gamma} = \frac{R_{gb}}{\cos \gamma} \cdot \frac{r_{fr}}{r_b} \quad (5.38)$$

Agar  $\beta \neq 0$  bo'lmasa unda bu formulani quyidagicha yozish mumkin:

$$F_t = \frac{F'_t}{\cos \beta} = \frac{R_{gb}}{\cos \gamma \cdot \cos \beta} \cdot \frac{r_{fr}}{r_b} \quad (5.39)$$

Loyqaso'rgich snaryadini burishdagi qarshilik kuchi  $R_{gb}$  ni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$R_{gb} = R_{gb \cdot fr} + R_{fr \cdot m} + R_{gb \cdot sh} + R_{gb \cdot s}, \text{kN} \quad (5.40)$$

bu yerda  $R_{gb \cdot fr}$ ,  $R_{gb \cdot m}$ ,  $R_{gb \cdot sh}$ , va  $R_{gb \cdot s}$  – tegishli ravishda frezaning, muhitning, shamolning va suvning (odatda suvning qarshiligini nolga teng deb olinida) snaryadni burishga ko'rsatadigan qarshilik kuchlari, kN.

Bu kuchlar ichida asosan frezaning qarshilik kuchi yuqori bo'lib, u barcha kuchlarning gorizontal tashkil etuvchisiga teng bo'ladi:

$$R_{gb \cdot fr} = R_g \quad (5.41)$$

Kuchlarning gorizontal tashkil etuvchisini (5.8-rasm) quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$R_g = R_t \cdot \cos \alpha + R_N \cdot \sin \alpha, \text{kN} \quad (5.42)$$

Muhitning qarshilik kuchi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:


$$R_{gb\cdot m} = 0,5 \cdot C'_{gd} \cdot \rho_m \cdot S_{yo} \cdot g_{gb}^2, \text{ kN} \quad (5.43)$$

bu yerda  $C'_{gd}$  - suyrilik koeffitsenti (snaryadning gidrodinamik va inersiya qarshiliklarining suyrilik koeffitsenti);  $\rho_m$  – muhitning zichligi,  $\text{t/m}^3$ ;  $S_{yo}$  – suyrilikning yon tomon yuzai,  $\text{m}^2$ .

Shomolning qarshilik kuchi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$R_{gb\cdot sh} = p_{sol} \cdot S_{sh\cdot t\cdot yu}, \text{ kN} \quad (5.44)$$

bu yerda  $p_{sol}$  – shomolning solishtirma bosimi,  $\text{kPa}$ ;  $S_{sh\cdot t\cdot yu}$  – loyqaso‘rgich sirtiga ta’sir qiluvchi shamolning umumiy yuzasi,  $\text{m}^2$ .



**5.8-rasm. Loyqaso‘rgichni burishda frezaga ta’sir qiluvchi kuchlarni aniqlash chizmasi;** a) gruntga pastdan yuqoriga qarib ishlov berishda; b) gruntga yuqoridan postga qarib ishlov berishda.

Loyqaso‘rgich sirtiga ta’sir qiluvchi shamolning umumiy yuzasini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$S_{sh\cdot t\cdot yu} = S_1 \cdot \cos \alpha_1 + S_2 \cdot \cos \alpha_2 + S_3 \cdot \cos \alpha_3 + \dots + S_n \cdot \cos \alpha_n, \text{ m}^2 \quad (5.45)$$

bu yerda  $S_1, S_2, \dots, S_n$  - tegishli ravishda shamol ta’sir qiladigan yuzalar,  $\text{m}^2$ ;  $\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_n$  - tegishli ravishda yuza sirtiga o’tkazilgan perpendikulyar va shamol yo‘nalishi orasidagi burchaklar, grad.

#### 5.4. Loyqaso‘rgich ish jihozini minimal og‘irligini aniqlash.

Agar gruntni qirqish yuqoridan pastga qarab olib borilsa (5.8,b-rasmga qarang), barcha qarshilik kuchlar yig‘indisiga qarshi yuqoriga vertikal yo‘nalgan  $R_v$  kuch ta’sir qiladi. Agar bu kuch ish jihoziga

ta'sir qiluvchi barcha kuchlar yig'indisi  $\Sigma R$  dan katta bo'lsa frezanning ish unumdorligi pasyadi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun  $\Sigma R \leq R_v$  shart bajarilishi kerak.

Yuqoriga yo'nalgan  $R_v$  kuch quyidaga formula yordamida aniqlanadi:

$$R_v = R_\tau \cdot \sin \alpha + R_N \cdot \cos \alpha, \text{ kN} \quad (5.46)$$

Ish jihozining minimal og'irligi  $G_{min}$  ni aniqlash uchun yuqoriga yo'nalgan qarshilik kuchining maksimal qiymatini bilash kerak. Bu ni uchun (5.46) formuladan birinchi tartibli hosila olib u nolga tenglanadi.

$$\frac{dR_v}{d\alpha} = R_\tau \cdot \cos \alpha - R_N \cdot \sin \alpha = 0$$

bundan  $\tan \alpha = \frac{R_\tau}{R_N}$  va  $\alpha = \arctan \frac{R_\tau}{R_N}$

$\alpha$  ning bu qiymatini (5.46) formulaga qo'ysak, yuqoriga yo'nalgan qarshilik kuchining maksimal qiymatini aniqlovchi quyidagi formula hosil qilinadi:

$$R_{v,max} = R_\tau \cdot \sin \arctan \frac{R_\tau}{R_N} + R_N \cdot \cos \arctan \frac{R_\tau}{R_N}, \text{ kN} \quad (5.47)$$

Ish jihozi og'irlilik kuchining minimal qiymatini aniqlovchi formulani aniqlashda 5.9-rasmdan foydalananamiz.

Chizmadan yuqoriga yo'nalgan  $R_v$  kuchni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$R_v = R_{v,max} \cdot \cos \beta, \text{ kN} \quad (5.48)$$

bu yerda  $\beta$  - ish jihozini vertikal tekislikka nisbatan og'ish burchagi. Agarda ish jihozining og'irlilik markazi uning ramasi o'rtasida joylashgan va burchak  $\beta = 0$  deb olsak, ish jihozini minimal og'irligi quyidagicha aniqlash mumkin:


$$\text{suv ustida ishlaganda} \quad G_{min} \geq 2 \cdot R_{v,max} \quad (5.49)$$

$$\text{suv ostida ishlaganda} \quad G_{min} \geq 2 \cdot R_{v,max} + F_A \quad (5.50)$$

bu yerda  $F_A$  – Arixmed kuchi, bu sharoitda uni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$F_A = \rho_s \cdot V_{sik} \cdot g, \text{ N}$$

bu erda  $\rho_s$  – suvning zinchligi,  $\text{t/m}^3$   $V_{sik}$  – ish jihozining suvosti-da joylashgan qrnstruksiyasining hajmi,  $\text{m}^3$ .



**5.9-rasm. Ish jihozining minimal og'irligini aniqlash chizmasi.**

## 5.5. Loyqaso'rgich snaryadining aralashmani so'rish tarmog'ini hisoblash.

Loyqaso'rgich snaryadini so'rish tarmog'ini hisoblashda asosan tarmoqdagi bosim (napor) yo'qotishlar yig'indisi va uni grunt nasosining vakuumetrik so'rish balandligining ruxsat etiladigan qiymati bilan solishtirish kerak.

**Loyqaso'rgich snaryadining so'rvchi tarmog'idagi bosim (napor) yo'qolishini hisoblash.** Agar grunt nasosini gidroaralashmani so'rish jarayonining ishchi muvozanati tuzilsa, uni tarmoqdagi napor yo'qotishini quyidagi formula yorda-mida oson aniqlash mumkin:

$$H_{so'}^{ar} = H_{gsb} \cdot \frac{\rho_{ar}}{\rho_s} + H_{ch} \cdot \left( \frac{\rho_{ar}}{\rho_s} - 1 \right) + h_{sui}^{ar} + h_{o'j}^{ar} + \frac{\rho_{ar}}{\rho_s} \cdot \frac{g_{so'}^2}{2g} + h_{sq}^{ar}, \text{ m.s.u} \quad (5.51)$$

bu yerda  $H_{gsb}$  - so'rishning geodezik balandligi;  $H_{ch}$  - ish jihozining suvgaga botirilgan qismining chuqurligi;  $h_{sui}^{ar}$  - so'rish tarmog'inining uzunligi bo'yicha ishqalanishdagi napor yo'qotishi;  $h_{o'j}^{ar}$  - gidroara-

lashmaning so‘rish tarmog‘i joylaridagi napor yo‘qatishi;  $h_{\text{sq}}^{\text{ar}}$  - grunt nasosning aralashmani so‘rish qismidagi napor yo‘qotishi.

So‘rish tarmog‘ining uzunligi bo‘yicha ishqalanishdagi napor yo‘qotishini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$h_{\text{sui}}^{\text{ar}} = i_{\text{ar}} \cdot L_{\text{ar}} \quad (5.52)$$

bu yerda  $i_{\text{ar}}$  – gidroaralashmani so‘ruvchi tarmoqdagi so-lishtirma napor yo‘qotishi;  $L_{\text{ar}}$  – so‘rish tarmog‘ining umumiyligini.

Gidroaralashmaning so‘rish tarmog‘i joylaridagi napor yo‘qotishini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$h_{\text{oj}}^{\text{ar}} = \sum k_j^i \cdot \frac{g_{\text{ar}}^2 \cdot \rho_{\text{ar}}}{2g \cdot \rho_s} \quad (5.53)$$

bu yerda  $\sum k_j^i$  – so‘ruvchi jihozning suvosti tarmog‘i joylaridagi qarshiliklari yig‘indisi.

Grunt nasosning aralashmani so‘rish qismidagi napor yo‘qotishini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$h_{\text{sq}}^{\text{ar}} = k_{\text{sq}}^{\text{ar}} \cdot \frac{g_{\text{ar}}^2}{2g} \quad (5.54)$$

bu yerda  $k_{\text{sq}}^{\text{ar}}$  – gidroaralashmani so‘rish qismidagi naporni yo‘qotish koeffitsenti. Bu koeffitsient asosan olib borilgan tadqiqot natijalari asosida aniqlanadi.

**Grunt nasosining ruxsat etiladigan vakuumetrik so‘rish balandligini hisoblash.** Suvli yoki gruntli nasoslar suyuqlikni so‘rishi uchun, nasos ishchi g‘ildiragining kirish qismida vakuum hosil qilish kerak. Agar suv havzalari satidagi bosim bilan nasos ishchi g‘ildiragining kirish qismidagi bosmi ayirmasi orasida farq bo‘lsa, suyuqlik yoki aralashma ishchi g‘ildirak markazi tomon yo‘naladi. Nazariy tomondan bu farq atmosfera bosimidan oshmasligi kerak, amalda uning qiymati 50...80 kPa (5...8 m.s.u) ni tashkil qiladi.

Suvli yoki gruntli nasosning maksimal so‘rish qobuliyati (odatda uni so‘rishing vakuumetrik balandligi chegrasi ham deb yuritiladi), toza suv uchun S.S.Rudakov tavsiya etgan quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_{\text{vak}}^s = H_{\text{at}} - 10 \cdot \left( \frac{n \cdot \sqrt{Q}}{C_{\text{klik}}} \right)^{0,75} + \frac{g_{\text{so'}}^2}{2g} \quad (5.55)$$

bu yerda  $H_{at}$  – atmosfera bosimi, m.s.u;  $n$  – nasos valining aylanish chastotasi,  $s^{-1}$ ;  $Q$  – nasosning suv berish miqdori,  $m^3/s$ ;  $C_{kkk}$  – kavitasiyaning kiritik koeffitsenti, u nasosning tezyurish koeffitsenti  $k_{tyu}$  ga bog‘liq bo‘ladi, uni qiymatini 5.1-jadvaldan foydalanib aniqlash mumkin.

### 5.1-jadval

#### Kavitasiyaning kiritik koeffitsenti.

$K_{tyu} \dots \dots \dots$	50...70	70...80	80...150	150...200
$C_{kkk} \dots \dots \dots$	600...750	800	800...1000	1000...1200

Nasosning tezyurish koeffitsenti  $k_{tyu}$  ni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$k_{tyu} = 3,65 \cdot n \cdot \frac{\sqrt{Q}}{H^{0,75}} \quad (5.56)$$

bu yerda  $N$  – nasosning napori, m.s.u

Gruntli (gilroaralashmali) nasoslarda aralashmani so‘rish qobuliyati pasayadi. Gidroaralashma so‘rishning vakuumetrik balandligi chegrasini aniqlash uchun A.N.Mashin quyidagi formulani tavsiya etadi:

$$H_{vak}^{ar} = H_{vak}^s \cdot \frac{\rho_{ar}}{\rho_s} - H_{at} \cdot \left( \frac{\rho_{ar}}{\rho_s} - 1 \right), \text{ m.s.u} \quad (5.57)$$

Gruntli nasosni barqaror (kavitasiyasiz) ishlashani ta’minalash uchun quyidagi shart bajarilishi lozim

$$H_{so'}^{ar} \leq H_{vak}^{ar} \quad (5.58)$$

Agar grunt nasosning aralashmani so‘rish tarmog‘idagi napor yo‘qotishi  $H_{so'}^{ar}$ , uning so‘rish qobuliyati  $H_{vak}^{ar}$  dan katta bo‘lsa, qazish chuqurligini kamaytirish kerak. Hozirda (5.58) formula shartini bajarish uchun so‘rvuchi tarmoqqa ejektorlar o‘rnatilmoqda.

## SINOV (NAZORAT) SAVOLLARI VA TOPSHIRIQLAR

1. *Frezali ish jihoziga ega bo‘lgan loyqaso‘rgichlarni qanday ko‘rsatkichlarini bilasiz va ularni hisoblashda ishlatiladigan formulalarni yozib bering?*
2. *Frezaning ag‘darib-yo‘naltiruvchi sirtini loyihalash uslublarini aytib bering.*
3. *Rotorli ish jihoziga ega bo‘lgan loyqaso‘rgich snaryadlarni qanday ko‘rsatkichlarini bilasiz va ularni hisoblashda ishlatiladigan formulalarni yozib bering?*
4. *Rotorning geometrik ko‘rsatkichlariga nimalar kiriadi va ular qanday hisoblanadi.*
5. *Rotorli ish jihoziga qanday kuchlar ta’sir etadi unga sarflanadigan quvvat formulasini yozib bering.*
6. *Loyqasurgich snaryadini burishga qanday kuchlar ta’sir etadi va unga sarflanadigan quvvat formulasini yozib bering.*
7. *Loyqaso‘rgich ish jihozini minimal og‘irligi qanday aniqlanadi.*
8. *Gruntli nasosni barqaror (kavitasiyasiz) ishlashani ta’minlash uchun qanday shart bajarilishi lozim.*

## **6-BOB. GIDROMEXANIZATSIYA VOSITALARINI ISHLATISHDAGI TEXNIK XAFSILIKLAR VA ATROF MUXITNI MUHOFAZA QILISH**

### **6.1. Hayot faoliyati xavfsizligi.**

#### ***6.1.1. Mehnat xavfsizligiga oid umumiy talablar.***

Gidromexanizatsiya vositalarini boshqarish, ishlatish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va tuzatish ishlarini bajarish, shu soha bo'yicha ma'lum kursni bitirgan va malakaga ega bo'lgan kishilargagina ruxsat etiladi.

Gidromexanizatsiya vositalarini qat'yan o'z vazifasi bo'yicha ishlatish, loyihada ko'rsatilgan ishlarni bajarishda uning ishlatish yo'-riqnomasiga qattiy rivoya qilish talab etiladi.

Ish boshlangunga qadar haydovchi gidromexanizatsiya vositalari ning texnik holatini tekshirishi, aniqlangan buzuqliklarni tuzatishi hamda mashinaga texnik va texnologik xizmat ko'rsatishi lozim. Ishga yaroqli mashinalarnigina ishlatishga ruxcat etiladi.

Dvigatelni ishga tushirishdan oldin gidromexanizatsiya vositalari ning ish jihozlari uzib qo'yilganligiga ishonch hosil qilish kerak.

Gidromexanizatsiya vositalarining harakati vaqtida ishga aloqasi bo'limgan kishilarning uning ramasida, qanotida yoki tirkash tuzilmasida tik turishi yoki o'tirishi, tortkich bilan mashina orasidan chopib o'tishi, mashinadan tortkichga yoki, aksincha, tortkichdan mashinaga o'tishi, ularga sakrab chiqishi yoki tushishi taqiqlanadi.

Kechasi ishlaganda yoki harakatlanganda ish joyii va harakatlanish yo'li yoritilishi lozim. Yoritish jihozlari buzuq mashinalardan kechasi ishlatishga ruxsat etilmaydi.

O'ta qizib ketgan dvigatelni ishga tushirish, dvigatel ishlab turganda mashina ostida bo'lish va gidrosilindr yoki sim arqon bilan ko'tarib qo'yilgan ish jihizi (ag'dargich, cho'mich, to'siq) ostida bo'lish taqiqlanadi. Ish jihizi ostida biron ishni bajarishga to'g'ri kelsa, dvigatelni o'chirib, ish jihizi ostiga ishonchli tirak qo'yish lozim.

O'zga shaxslarning gidromexanizatsiya vositalarini boshqarishi taqiqlanadi.

Kerakli qurol va inventar mashinada belgilangan joyida saqlanishi kerak. Mashinada (kabinada, kapot ostida, ish jihozida va h.k.) begona

predmetlar, ehtiyot qismlari bo‘lishga ruxsat etilmaydi, ular halokatga sababchi bo‘lishi mumkin.

### ***6.1.2. Gidromexanizatsiya vositalarini bilan ish bajarishda mehnat xavfsizligiga qo‘yladigan talablar.***

Ish boshlanishidan oldin haydovchi gruntga ishlov beriladigan uchastka bilan tanishib chiqishi va uni mehnat xavfsizligi nuqtaiy nazaridan baholashi lozim. Uchastkadan yirik toshlar, to‘nkalar va shu kabi boshqa predmetlar chiqarib tashlanishi, yer osti inshootlari ogohlantiruvchi belgilar bilan belgilab qo‘yiilishi kerak.

Sim arqon-bloklaridagi arqon tolalari tililgan bo‘lsa, ishlashga ruxsat etilmaydi.

Ishlayotgan mashinaga nisbatan 20 m radiusli masofada odamlar bo‘lishi taqiqlanadi.

### ***6.1.3. Gidromexanizatsiya vositalarini transport qilishda va saqlashda mehnat xavfsizligiga qo‘yladigan talablar.***

Gidromexanizatsiya vositalarini tirkamaga ortish va undan tushirishda uni ag‘darilib (yoki sirpanib) tushish ehtimoli bo‘lgan sohada odamlar bo‘lmasligini kuzatib turish lozim.

Gidromexanizatsiya vositalarini tirkamaga ortib bo‘lgach, uning mustahkam mahkamlanganligini tekshirish lozim.

Yo‘lda ketayotganda gidromexanizatsiya vositalari ortilgan texnika yo‘lning o‘ng tomonidan harakatlantirish, bunda mashinalar orasida yoki transport agregatlari orasida kamida 20m masofa bo‘lishiga e’tibor berish lozim.

Ko‘rinish yaxshi bo‘limganda mashina shatakka bikr tirkagich bilan olingan bo‘lsa, uning gabarit chiroqlarini, agar egiluvchan tirkagich bilan shatakka olingan bo‘lsa, uning oldingi chiroqlarini yoqib qo‘yish kerak.

Temir yo‘llarni faqat o‘tish joylaridan, shlagbaum ochiq bo‘lganida past uzatmada kesib o‘tish kerak. Agar o‘tish joyida shlagbaum yoki boshqa ishorasi bo‘lmasa, o‘tishdan oldin to‘xtab, atrofga qarab yaqinlashib qolgan poezd yo‘qligiga ishonch hosil qilgandan keyingina yo‘lni kesib o‘tish lozim.

Ko‘prik, to‘g‘onlardan o‘tishdan oldin ulardan o‘tish mumkinligiga ishonch hosil qilish darkor.

Agar tashuvchi mashina yo‘lda uzoq muddatga to‘xtab turadigan bo‘lsa, kunduzi uni qizil bayroqchalar bilan, kechasi esa qizil fonarlar bilan to‘sib qo‘yish lozim.

Yoritish faralari va ketingi yorug‘lik ishoralari yo‘q mashinalarni kechasi transportirovka qilish taqiqlanadi.

Mashina saqlanishi mo‘ljallanayotgan maydoncha tekis, kechasi yaxshi yoritiladigan, mashina oldiga bemalol borish mumkin bo‘lgan, u yerda yuk ko‘tarish vositalaridan foydalanish mumkin bo‘lgan, begona predmetlar bo‘lmasan, mashinadan olingan tarkibiy qismlarni qo‘yish imkonini bo‘lishi kerak.

#### ***6.1.4. Gidromexanizatsiya vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni tuzatishda mehnat xavfsizligiga qo‘yiladigan talablar.***

Gidromexanizatsiya vositalariga texnik xizmat ko‘rsatishdan yoki uni tuzatishdan oldin uning dvigatelini o‘chirib qo‘yish kerak. Rostlashlardan keyin mashina dvigateli yoki uning tarkibiy qismlari ishini tekshirish lozimligi bundan mustasno. Gidromexanizatsiya vositalarining ishga tushirish tuzilmalari, richaglari va elektr starter tugmachalariga «Ulanmasin - odamlar ishlayapti!» degan yozuvni ilib qo‘yish lozim.

Gidromexanizatsiya vositalarini yuvish issiq suv yordamida amalga oshiriladi va bunda rezina qo‘lqoplardan foydalanish zarur.

Mashina va uning tarkibiy qismlarini chang va gruntdan tozalashda qirg‘ich, cho‘tka, maxsus tozalagichlar va lattalardan foydalanish darkor.

Ish vaqtida faqat benuqson asboblardan foydalanish lozim. Gayka kalitlari gayka va bolt kallaklari o‘lchamiga mos kelishi, qirralari yeyilmagan, qiyshaymagan bo‘lishi kerak. Kalit jag‘i bilan gayka orasiga qistirma qo‘yish, kalitlarni boshqa kalitga ilashtirib, bo‘yini uzaytirish taqiqlanadi. Detallarni mahkamlashda kalitni «o‘zingizga» tortib burash kerak.

Bolg‘a va bosqonlarning dastalari quruq va pishiq yog‘ochdan yasalib, yaxshilab ishlangan bo‘lishi kerak. Bolg‘a va bosqonlarning dastaga mustahkam o‘rnatilganligini ish boshlamasdan turib tekshirish lozim.

Egov va shunga o‘xshash asboblarning o‘tkir, ishlamaydigan uchlariga dasta kiydirilgan bo‘lishi kerak.

Moslama va ajratkichlarning ilmoqlari, panjalar va qamrovlari detallarga puxta mahkamlanishi lozim.

Yuk ko‘tarish transportirovka qilish tuzilmalaridan foydalanishdan oldin ko‘tarish tuzilmasining va ushlagichlarning (zanjur, arqonlar, sim arqonlar) buzuqmasligini gekshirish lozim. Yukni vertikal holatda ko‘tarib tushirish kerak; ko‘tarilgan yuk ostida turish taqiqlanadi; ko‘tarilgan yukni transport qilish vaqtida uning orqasida bo‘lish lozim. Yuk tushirilayot-gan paytda uning tagiga tagliklar qo‘yish taqiqlanadi, uni ol dinroq qo‘yib qo‘yish darkor; agar ish tugagan yoki vaqtinchato‘xtatilgan bo‘lsa, ko‘tarilgan yukni osilgan holda qoldirib bo‘lmaydi.

O‘tkir qirrali detallarni qo‘lqop kiyib olib mashinadan olish yoki unga o‘rnatish kerak; o‘zaro birlashtiriladigan detallardagi teshiklar birbiriga mos kelishi borodok yoki metall sterjen’ bilan tekshiriladi.

Detallarni kerosin yoki dizel yonilg‘isi bilan yuvishdan oldin qo‘llarga vazelin surib olish zarur.

Akkumulyatorlardagi shamollatish teshiklarini kuzatib turish va tozalash lozim, aks holda akkumulyatorlar batareyasi ichida gaz yig‘ilib qolib, baki yorilib ketishi mumkin. Akkumulyatorlar batareyasagini ko‘zdan kechirishda 36 V kuchlanishli ko‘chma lampadan foydalanish zarur. Bunda ochiq alangalardan foydalanish taqiqlanadi.

Kislotalar bilan ishlaganda rezina qo‘lqop kiyib, ko‘zoynak taqib olish shart. Kislotani suv bilan aralashtirishda kislotani suvga quyish lozim. Kiyimga tushgan kislotani nashatir spirti bilan yuvish kerak.

Detallarni etillangan benzinda yuvish taqiqlanadi. Tasodifan to‘kilgan etillangan benzin dixloramin yoki xlorli ohak eritmasi bilan zarrisizlantiriladi (1 qism ohakka 3...5 qism suv qo‘shiladi). Gidrome-xanizatsiya vositalarining etillangan benzin bilan ifloslangan metall detal lari kerosin yoki ishqor eritmasi bilan yuviladi.

Dvigatelning sovitish tizimidagi qaynoq suvni, mashina va dvigatel karterlaridagi moyni ehtiyyotlik bilan to‘kib olish, biror yerni kuydirib qo‘ymaslik kerak.

Mashinaga texnik xizmat ko‘rsatishda qizigan chiqarish kollektoriga tegib ketib, kuyib qolishdan saqlanish zarur.

Domkrat bilan ko‘tarib qo‘yilgan mashina tagiga kirish man etiladi.

### ***6.1.5. Yong'in xavfsizligi.***

Yonilg'i, moy va ishchi suyuqlikni sizib chiqishiga yo'l qo'ymaslik; ishlatilgan lattaputtalarni, zaxiradagi moylash materiallari va yonilg'ini mashinada saqlamaslik; chiqarish trubasini toza holda saqlash kerak. Gidromexanizatsiya vositalarining yonilg'i baklari va dvigatelning ta'minlash tizimiga qarov vaqtida elektr yoritish asboblari dan foydalanish kerak.

Mabodo neft mahsulotlari alanganlib qolsa, uni o't o'chirgich bilan yoki qum, tuproq sepib, yoxud brezent yopib o'chirmoq kerak. Alangaga suv sepish qat'yan taqiqlanadi.

Mashinalarda ishlaganda, ularga texnik xizmat ko'rsatish va tuzatish ishlarida benzin solingan bochkalarning tiqinini metall buyumlar bilan urib ochish man etiladi; gidromexanizasiya vositalarini yonilg'i bilan ta'mmnlash joyida va baklardagi yonilg'i sathini tekshirishda ochiq olovdan foydalanish va chekish taqiqlanadi; mashinani yoqilg'i bilan ta'minlash jarayonida va to'xtab turadigan joy yaqinida olov yoqish va chekish mumkin emas; gidromexanizatsiya vositalarini ishga tushirishda dvigatelni ochiq alanga bilan isitish mumkin emas; neft mahsulotlari bo'lgan idishlarni qopqog'ini ochayotganda uni yonida alanga bo'lmasligi kerak

Har bir mashinada o't o'chirgich bo'lishi zarur.

### ***6.1.6. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.***

Baxtsiz hodisa yuz berganda shikastlangan odamga birinchi tibbiy yordami ko'rsatish, shifokor chaqirish yoki shikastlangan kishini eng yaqindagi davolash muassasasiga olib borish kerak

Barcha mashinalarda birinchi medisnna yordami ko'rsatuvchi aptechka bo'lishi lozim.

Elektr toki urganda shikastlangan kishni tok ta'sirndan ajratish kerak, bunda ehtiyyot choralarini ko'rmasdan tokka bevosita tegish, yordam ko'rsatayotgan odamning hayotiga xavfli ekanligini yodda tutish zarur.

Elektr tokini uzib qo'yishning imkonini bo'lmasa, tok urgan kishini tok tarmog'idan tezda ajratish, buning uchun tok o'tkazmaydigan tagliklar (uzun quruq tayoqlar, rezina qo'lqoplar va hokazo)dan foydalanish kerak.

Agar tok urgan kishi hushidan ketganu, ammo ma'lum vaqit o't-gach, hushiga kelgan bo'lsa, shifokor kelguniga qadar uni tinch qoldirish zarur.

Agar tok urgan kishi hushsiz bo'lsayu, ammo nafas olayotgan bo'lsa, shifokor kelguniga qadar uni yerga yotqizish, kiymalarining tugmalarini yechish, toza havodan nafas olishiga sharoit yaratish, unga novshadil spirti hidlatish, sovuq suv sepish, badanini ishqalab isitish kerak.

Shikastlangan kishi og'ir va entikib nafas olayotgan bo'lsa, unga suniy nafas oldirish hamda yuragini massaj qilish lozim.

Agar tok urgan kishi nafas olmayotgan va pul'si urmayotgan bo'lsa, bunda ham uni siqib turgan kiymalarini yechish va og'zini ochib, unga sun'iy nafas berish kerak.

Shikastlangan kishi mustaqil ravishda va bir tekis nafas ola boshlaganda sun'iy nafas oldirishni to'xtatish lozim.

Jarohatlanganda jarohatning zaharlanmasligi uchun jarohatga tlatta-putta bosish va uni suv bilan yuvish mumkin emas. Qon ko'p oqayotgan bo'lsa, jarohatning yuqori qismidan bog'ich bilan bog'lab qo'yish, jarohatni toza doka, bint, paxta bilan berkitish va bint bilan siqib bog'lash kerak.

Agar jarohatlangan kishini 1,5 soat ichida tibbiy maskanga olib borishning imkonи bo'lmay qolsa, qon oqishini to'xtatuvchi bog'lamani ehtiyyotlik bilan olish, ma'lum vaqt o'tgandan so'ng qon aylanishi yana tiklangach, avvalgi joydai yuqoriroqdan yana boglab qo'yish lozim.

Lat eganda og'riqni kamaytirish uchun sovuq suvda ho'llangan latta bosish darkor. Agar lat yeys qoqibatida teri shilingan bo'lsa, bu joy avval yod eritmasi bilan yuviladi, keyin jarohat kabi bog'lab qo'yadi. Qattiq lat yeys qoqibatida kishining boshi aylanishi, boshi og'-rishi, qayt qilishi mumkin. Bu holda shoshilinch tibbiy yordami zarur bo'ladi.

Suyak singanda bu joyga taxtakach bog'lash va shikastlangan kishini tezda medpunktga olib borish kerak. Taxtakachga avval paxta, toza latta yoki doka o'raladi, keyin oyoq yoki qo'lga ikki tomondan singan joydag'i bo'g'lnlarni yuqoridan va pastdan qamrab turadigan qilib taxtakachlar qo'yadi va bog'lanadi. Ochiq jarohatlar taxtakach qo'yimasdan oldin bog'lab qo'yadi. Agar taxtakach bo'lmasa, singan oyoq sog' oyoqqa, singan qo'l tanaga bog'lab qo'yadi.

Paylor cho‘zilganda yoki uzilganda bu joyga sovuq suvda ho‘llangan latta bosilib, ustidan ho‘l latta yoki bint bilan bog‘lanadi va bemor davolash punktiga olib kelinadi.

Suyak chiqqanda zinhor uni joyga solishga harakat qilmaslik zarur. Bemorni esa davolash punktiga olib borish kerak.

Issiq yoki oftob urganligining dastlabki alomatlari (bosh og‘rishi, yuzning qizarishi, madorsizlik, to‘xtab-to‘xtab nafas olish) payqalganda bemor soya joyga olib o‘tiladi, o‘tqazilib, suv beriladi, yoqasining tugmasi ehtiyyotlik bilan echiladi, boshi va ko‘kragi sovuq suv bilan ho‘llanadi, unga novshadil spirti hidlatiladi. Nafas olmay qo‘yganda sui’iy nafas oldiriladi.

Sovuq urgan kishi issiq xonaga olib kiriladi, agar u hushsiz bo‘lsa, unga toza havo kelishi ta‘minlanadi, nafas olishi osonlashtiriladi (buning uchun yoqasi, belbog‘i yechib qo‘yladi), novshadil spirtida ho‘llangan lattani hidlatiladi. Sovuq urgan joylari qizargunga, ya’ni qon aylanishi tiklangunga qadar toza quruq jun qo‘lqop bilan artib ishqalanadi, keyin vazelin, g‘oz yog‘i yoki o‘simplik moy surkab qo‘yladi.

Ko‘zga biron narsa tushganda ko‘zni ishqalash mumkin emas. Uni toza paxta yordamida yoki suvni jildiratib oqizib, toza suv bilan yuvish lozim.

## **6.2. Atrof muhitni muhofaza qilish.**

Gidromexanizatsiya vositalarini ishlatishda atrof muhitni muhofaza qilish talablariga qat’iy rioya qilish kerak.

Agar qurilish ishlari tufayli qishloq xo‘jalik yerlari va o‘rmonzorlar buzilgan bo‘lsa, quruvchilar ularni qurilish bilan bir vaqtida, juda bo‘lmasa, qurilish tugagandan keyin uzog‘i bilan bir yil mobaynida tiklab berishlari lozim.

Bo‘lajak qurilish o‘rnida o‘sayotgan qimmatbaho daraxtlar yangi joyga ko‘chirib o‘tqazilishi, qurilish bilan yonmayon joylashganlari esa shikastlanishdan himoya qilinishi kerak.

Gidromexanizatsiya vositalarini transport qilishda ularni yo‘l chetidan haydash, agar yo‘l kesib o‘tiladigan bo‘lsa, uni vaqtincha yotqizilgan to‘shama ustidan yurgizish kerak.

Dvigateli belgilangan me’yordan ortiq darajada tutun chiqarib ishlaydigan mashinalardan ishlatishga ruxsat etilmaydi.

Yonilg‘isi, moyi, ish suyuqliklari va surkama moylari sizib turadigan mashinalardan foydalanish taqiqlanadi, chunki YOMM atrof muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xuddi shu sababga ko‘ra gidromexanizatsiya vositalarini YOMM bilan ta’minlashda uning to‘kilishiga va isrof bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Mashinaga ishlash joyining o‘zida texnik xizmat ko‘rsatish va tuzatish jarayonida moyini almashtirish, ish suyuqligi va surkama moylarini yangilashda ularning isrof bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

Ishlatilgan neft mahsulotlarini yerga, suv havzalariga va oqova tarmoqlariga to‘kish man etiladi. Mashinadan yonilg‘i qoldig‘i sifatida to‘kib olinadigan neft mahsulotlari, texnologik ehtiyojlar uchun ishlatiladigan moylar, kerosin, benzin, dizel’ yonilg‘isi, eritkichlar va boshqa neft mahsulotlarini yig‘ish va neft ta’mnoti tashkilotlari omboriga topshirish yoki Davlat saninspeksiyasi bilan kelishilgan usullar bilan yo‘qotish zarur.

## SINOV (NAZORAT) SAVOLLARI VA TOPSHIRIQLAR

1. *Mehnat xavfsizligiga oid umumiy talablarni aytib bering.*
2. *Gidromexanizatsiya vositalarini bilan ish bajarishda mehnat xavfsizligiga qo‘yiladigan talablarni aytib bering.*
3. *Gidromexanizatsiya vositalarini transportirovka qilishda va saqlashda mehnat xavfsizligiga qo‘yiladigan talablarni aytib bering.*
4. *Gidromexanizatsiya vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni tuzatishda mehnat xavfsizligiga qo‘yiladigan talablarni aytib bering.*
5. *Yong‘in hosil qilmaslik va uni oldini olish holatlarini aytib berig.*
6. *Baxtsiz hodisaga uchlagan insonlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishda qanday ishlar amalga oshiriladi.*
7. *Gidromexanizatsiya vositalarini ishlatishda atrof muhitni muhofaza qilishda qanday talablariga qat’iy rioya qilish kerak.*

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Арифжонов А.М. ва бошқалар. “Сув ҳавзаларини тозалаш учун оқимли инжектор ” Фойдали моделга патент № FAP 00490, 25.08.2008 й.
2. Ветров Ю.А. Резание грунтов землеройными машинами. - Москва. Машиностроение, 1971.
3. Горячkin В.П. Собрание сочинений. В 3-х. -Москва. Колос, 1968.
4. Журин И.Д., Юфин А.П. Оборудование гидромеханизации. Москва. Госстайиздат. 1960.
5. Зеленин А.Н. Основы разрушения грунтов механическими способами. Москва. Машиностроение, 1968.
6. Маламут Д.Л. Гидромеханизация в мелиоративном и водохозяйственном строительстве. Москва. Стройиздат, 1981.
7. Огородников С.П. Гидромеханизация разработки грунтов. Москва. Стройиздат, 1986.
8. Рябов Г. А., Мер И.И., Прудников Г.Т. Мелиоративные и строительные машины. Москва. Колос, 2-е изд. 1976.
9. Харин А.И. Гидромеханизация земляных работ в строительстве. Москва. Стройиздат, 1989.
10. Шкундин Б.М. Землесосные снаряды. Москва. Государственное энергетическое издательство. 1973.
11. Шкундин Б.М. Землесосы и землесосные снаряды. Москва. Государственное энергетическое издательство. 1961.
12. Юфин А.Г. Гидромеханизация. Москва. Стройиздат, 1974.
13. K.Sh.Latipov,O.M.Arifjonov Gidravlika va gidravlik mashinalar.Toshkent 2011, 336 b.
14. Vafoyev S.T. Melioratsiya mashinalari (Darslik). Toshkent. «Fan va texnologiyalar». 2013, 304 b.

MUNDARIJA

**KIRISH**..... bet 5

## **1-BOB. GRUNT VA GIDROARALASHMA HAQIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR**

1.1. Gruntlarning fizik-mexanik xossalari va ularning gruntga gidromexanizatsiya vositalsri yordamida ishlov berish jarayoniga ta’siri.....	7
1.2. Gidroaralashmaning oqimi va uning tavsifi.....	10
1.3. Grunt zarrachalarining gidravlik yirikligi..... Sinov (nazorat) savollari va topshiriqlar.....	11
	12

## **2-BOB, GIDROMEXANIZATSIYA VOSITALARI**

2.1. Gidromexanizatsiya vositalari haqida asosiy tushunchalar..	13
2.2. Gidromonitorlar.....	14
2.2.1. <i>Gidromonitorning vazifasi, tuzilishi va ishlashi</i> .....	14
2.2.2. <i>Gidromonitorlarni hisoblash</i> .....	15
2.3. Gidroelevatorlar.....	21
2.3.1. <i>Gidroelevatorlar haqida umumiy tushunchalar</i> .....	21
2.3.2. <i>Gidroelevatorlarni hisoblash</i> .....	22
2.4. Loyqaso‘rgichlar (Zemlesoslar).....	26
2.4.1. <i>Loyqaso‘rgichlarning konstruksiyalari</i> .....	26
2.4.2. <i>Loyqaso‘rgichlarni hisoblash</i> .....	36
2.4.3. <i>Loyqaso‘rgichning so‘rish qobiliyatini aniqlash</i> .. ....	40
2.5. Loyqaso‘rgich snaryadlari (Zemsnaryadlar).....	42
2.5.1. <i>Loyqaso‘rgich snaryadlarini vazifasi, tuzilishi va ishlash jarayoni</i> .....	42
2.5.2. <i>Loyqaso‘rgich snaryadlarining konstruksiyalari</i> .. ....	45
2.5.3. <i>Loyqaso‘rgich snaryadlarining asosiy qismlari</i> .....	51
2.5.3.1 . <i>Loyqaso‘rgichning kallagi</i> .....	51
2.5.3.2 . <i>Suv ostidagi grunt ni yomshatuvchi ish jihozlar (frezalar)</i> .. ....	52
2.5.3.3. <i>Ejektorlar</i> .....	52

<i>2.5.3.4. So 'ruvchi va bosim quvurlarining qo'zsaluvchan birikmalar .....</i>	54
<i>2.5.3.5. Loyqaso 'rgich snaryadlarini tutib turvuchi qoziqlari....</i>	57
<i>2.5.4. Xorijiy loyqaso 'rgich snaryadlari.....</i>	60
<i>2.5.5. Loyqaso 'rgich snaryadlarini hisoblash.....</i>	63
<i>2.5.5.1. Loyqaso 'rgich snaryadlarini suvda suzuvchanligi.....</i>	63
<i>2.5.5.2. Loyqaso 'rgich snaryadlarini suvda turzunligi.....</i>	64
<i>2.5.5.3. Loyqaso 'rgich snaryadi korpusining mustahkamligi.....</i>	68
<i>2.5.5.4. Mashina ish jihozining asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash.....</i>	69
<i>Sinov (nazorat) savollari va topshiriqlar.....</i>	71

### **3-BOB. SUVOSTI GRUNTLARIGA ISHLOV BERUVCHI USKUNALAR VA ULARNING ASOSIY KO'RSATKICHLARINI ANIQLASH**

<i>3.1. Suvosti gruntlarini erkin so'ruvchi uskunalar.....</i>	73
<i>3.1.1. So 'ruvchi kallakning asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash....</i>	77
<i>3.2. Suvosti gruntlariga gidravlik ishlov beruvchi uskunalar va ularning asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash.....</i>	79
<i>3.3. Suvosti gruntlariga mexanik ishlov beruvchi uskunalar.....</i>	82
<i>3.4. Suvosti gruntlariga tebranma (titratma) ishlov beruvchi uskunalar.....</i>	85
<i>Sinov (nazorat) savollari va topshiriqlar.....</i>	86

### **4-BOB. SUVOSTI GRUNTLARINI QIRQISHNING NAZARIY ASOSLARI**

<i>4.1. Suvosti gruntlarini qirqishning geometrik ko'rsatkichlari va kinematikasi.....</i>	87
<i>4.2. Gruntni qirqishda uning deformasiyalanish jarayoning ayrim masalalari.....</i>	106
<i>4.3. Suvosti gruntlarini qirqish dinamikasi.....</i>	131
<i>Sinov (nazorat) savollari va topshiriqlar.....</i>	142

## **5-BOB. LOYQASO‘RGICH SNARYADNING SO‘RUVCHI VA GRUNTGA ISHLOV BERUVCHI USKUNALARINI HISOBBLASH**

5.1. Frezali ish jihoziga ega bo‘lgan loyqaso‘rgich snaryadini hisoblash.....	143
5.2. Rotorli ish jihoziga ega bo‘lgan loyqaso‘rgich snaryadini hisoblash.....	150
5.2.1. <i>Rotorning geometrik ko‘rsatkichlarini hisoblash</i> .....	150
5.2.2. <i>Rotorning kinematik ko‘rsatkichlarini hisoblash</i> .....	151
5.2.3. <i>Rotorga ta’sir etuvchi kuchlar va unga sarflanadigan quvvatni hisoblash</i> .....	151
5.3. Loyqasurgich snaryadini burishga ta’sir etuvchi kuchlar va unga sarflanadigan quvvatni hisoblash.....	154
5.4. Loyqaso‘rgich ish jihozini minimal ofirligini aniqlash.....	156
5.5. Loyqaso‘rgich snaryadining aralashmani so‘rish tarmogini hisoblash.....	158
Sinov (nazorat) savollari va topshiriqlar.....	161

## **6-BOB. GIDROMEXANIZATSIYA VOSITALARINI ISHLATISHDAGI XAFSILIK TEXNIKASI VA ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH**

6.1. Hayot faoliyati xavfsizligi.....	162
6.1.1. <i>Mehnat muhofazasiga oid umumiyi talablar</i> .....	162
6.1.2. <i>Mashinalar bilan ish bajarishda mehnat muhofazasiga qo‘yiladigan talablar</i> .....	163
6.1.3. <i>Gidromexanizatsiya vositalarini transport qilishda va saqlashda mehnat xavfsizligiga qo‘yiladigan talablar</i> .....	163
6.1.4. <i>Mashinalarga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni tuzatishda mehnat xavfsizligiga qo‘yiladigan talablar</i> .....	164
6.1.5. <i>Yongin xavfsizligi</i> .....	166
6.1.6. <i>Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish</i> .....	166
6.2. Atrof muhitni muhofaza qilish.....	168
Sinov (nazorat) savollari va topshiriqlar.....	169
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>170</b>

**VAFOYEV SAFO TO'RAYEVICH**  
**XUDAYEV IBROHIM JUMAQULOVICH**

# **GIDROMEXANIZATSIYA VOSITALARI**

**«5A450301 - Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash» yo‘nalishida  
ta’lim oluvchi magistrantlarga darslik sifatida tavsija etiladi.  
/ DARSLIK /**

**Muharrir:**

**M. NURTOYEVA**

---

*Bosishga ruxsat etildi 09.06.2014 v. Qog‘oz o‘lchami 60x84 - 1/16,  
Hajmi : 10,75 b.t. 30 nusha. Buyurtma № 354  
TIMI bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent 100000, Qori-Niyoziy ko‘chasi 39 uy.*